

**NARGIZA AHMEDOVA SHIXNAZAROVNA**

**O‘ZBEK ORFOGRAFIYASI VA  
PUNKTUATSIYASI ASOSLARI**




**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

---

**NARGIZA AHMEDOVA SHIXNAZAROVNA**

**O'ZBEK ORFOGRAFIYASI VA  
PUNKTUATSIYASI ASOSLARI**

Ta'lim yo'nalishi: 5111200 – O'zbek tili va adabiyoti



**Toshkent – 2016**

1534

## 1-Mavzu: "O'zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi asoslari" fani predmeti, maqsadi va vazifalari. Yozuv va uning paydo bo'lishi

### Reja

1. "O'zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi asoslari" fani predmeti, maqsadi va vazifalari

2. Yozuv va uning komponentlari.

3. Yozuvning paydo bo'lishi.

**Tayanch tushunchalar:** Orfografiya, punktuatsiya, grafika, yozuv, alfavit, imlo qoidalari, tinish belgilari.

"O'zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi asoslari" fanining o'rganish obyekti yozuvni o'zida birlashtiruvchi sathlar, ya'ni grafika, orfografiya va punktuatsiya belgilari qoidalaridir. Fanni o'qitishdan asosiy maqsad talabalarning imloviy malakalarini mustahkamlash, savodxonligini oshirish, yozma nutqning qonun-qoidalarini to'liq o'rgatishdan iboratdir. Chunki har bir kishi to'g'ri yoza bilishi va to'g'ri so'zlashi kerak. Bu talab bo'lg'usi pedagoglar hamda ona tili va adabiyoti fani o'qituvchilariga nisbatan ayniqsa qat'iy qo'yiladi. Zero, ular yosh avlodga umumiy savodxonlik va nutq madaniyati to'g'risida saboq beradilar, ularni savodxonlikka va to'g'ri yozishga o'rgatadilar. Qolaversa, imloviy savodxonlik ma'naviy yetuklikning belgisi sifatida ko'p asrlar oldin e'tirof etilgan.

Qisqacha aytganda, ushbu fanning maqsadi hozirgi kunda eng dolzarb masalalardan biri bo'lgan savodxonlikni oshirishga qaratilgan.

"O'zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi asoslari" fanining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Orfografiya va grafikaning yozuv tizimidagi o'rni va belgilash hamda jamoatda tutgan o'rni va ahamiyatini talabalarga o'qitish.

2. O'zbek orfografiyasi va grafikasining tarixiy taraqqiyoti bilan tanishtirish.

3. Talabalarni imlo tamoyillari va asosiy imlo qoidalariga oid bilim va ko'nikmalarini sistemalashtirish, amaliy jihatdan mustahkamlash.

4. To'g'ri yozish bilan bog'liq ayrim (xususiy) imlo qoidalari haqidagi bilimlarni kengaytirish.

5. Punktuatsiyaning mustaqil soha sifatidagi o'rni va ahamiyatini aniqlash.

6. O'zbek punktuatsiyasining tarixiy taraqqiyoti bilan tanishtirish.

7. Talabalarning tinish belgilariga oid umumnazariy bilimlarini yanada boyitish.

8. Tinish belgilarining qo'llanish o'rinlari xususidagi bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash.

Yozuv muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o'rtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi. Ma'lumki, insoniyat erishgan eng buyuk va muhim yutuqlardan biri yozuvning kashf etilishidir.

Yozuv tizimi grafika (harflar tizimi), orfografiya (imlo) hamda punktuatsiya (tinish belgilari)ni o'zida jamlaydi.

Ma'lum bir grafema (harf)ning tildagi u yoki bu tovushlar va boshqa fonologik birliklar (fonema, bog'in...) bilan muvofiq kelish hollarini grafika tavsiflab beradi. Imlo qoidalarini morfemalar va so'zlarni to'g'ri yozish qonun-qoidalarini yoritib beradi. Sintaktik birlik – gap va gap qismlari orasida ishlatiladigan tinish belgilarining qo'llanilishi bilan bog'liq qoidalar esa punktuatsiya bo'limida o'rganiladi. Mana shu uch holat ham to'liq o'zlashtirilganda, savodxonlik darajasi yuqori bo'ladi.

Yozuv kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining ibtidosi, bashariyatning uzoq va murakkab tadrijiy takomili jarayonidagi omillarning eng asosiylaridan biridir. Ma'lumotlarga ko'ra, yozuvning paydo bo'lganiga 4-5 ming yillar bo'lgan.

Ma'lumki, yozuv jamiyatning buyuk madaniy kashfiyotlaridan biri bo'lib, kishilik jamiyatining har tomonlama taraqqiyotida juda katta o'rni va o'ziga xos ahamiyati bor.

Dunyodagi aksariyat tillar o'z yozuv tizimiga ega bo'lganidek, o'zbek xalqi ham o'z yozuviga ega bo'lgan eng qadimiy xalqlardan biri sanaladi. U o'zining uzoq yillik tarixi mobaynida oromiy, so'g'd, xorazm, avesto (mixxat), turkiy-run, uyg'ur va arab yozuvlaridan keng foydalangan.

O'rta Osiyo xalqlari dastlab dunyodagi juda ko'p yozuvlar uchun asos bo'lgan finikiya yozuvi asosida yaratilgan oromiy yozuvidan foydalanganlar. Bu yozuv asosan eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda ishlatilgan. Er.av. III-I asrlarda so'g'd, Avesto (mixxat) yozuvlaridan, eramizning I-V asrlarida esa so'g'd yozuvidan keng foydalanganlar. II asrning oxiri va III asrning boshlarida Xorazm shohi chiqargan pullarda xorazm yozuvi uchraydi. Bu yozuv O'rta Osiyoda ancha keng tarqalgan bo'lib, oromiy yozuviga yaqin edi.

V-VIII asrlarda so'g'd yozuvini qayta ishlash natijasida yaratilgan O'rxun-Yulduz yozuvlaridan foydalanganlar. Bu yozuv ba'zan runik yozuvi deb ham yuritiladi. Yenisey daryosi havzasidan topilgan O'rxun yozuvi yodgorliklari haqida dastlab XVIII asrning boshlarida rus xizmatchisi Remezov xabar berdi. Keyinroq shved ofitseri Iogann Stralenberg shu daryo havzasida noma'lum yozuvli tosh borligini qayd etadi. Bu haqda olim Messershmidt ham o'z asarlarida ma'lumot berib o'tadi. Ammo uzoq vaqt davomida olimlar bu yodgorliklarni o'qishga, uning qaysi xalqqa tegishli yodgorlik ekanligini aniqlashga muvaffaq bo'la olmadilar.

Qisqasi, O'rxun-enasoy yozuvi turkiy xalqlarning eng katta madaniy yodgorliklaridan hisoblanadi. Ayni vaqtda ushbu yozuv turkiy xalqlarning jahon xalqlari orasida eng qadimiy va yetuk madaniyatga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Ko'rinadiki, mazkur yozuv ham tarixiy, ham siyosiy, ham madaniy jihatdan beqiyos o'rin tutadi.

VI-VII asrlardan boshlab turkiy xalqlar va mo'g'ullarda uyg'ur alfaviti qo'llangan. Akademik V.V.Radlovning ta'kidlashicha, bu alfavit turkiy xalqlar orasida ancha keng ishlatilgan.

XIV-XV asrlarda yaratilgan ko'pgina asarlar uyg'ur yozuvida ko'chirilgan. Qadimgi uyg'ur yozuvi bilan ish ko'rish ayrim yozma adabiy tillarga ham o'z ta'sirini o'tkazdi va sezilarli iz qoldirdi.

VI-VIII asrlardan keyin arab yozuvi keng iste'molda bo'lgan. Arab yozuvini salqimoz eng uzoq vaqt, ya'ni 1929-yilgacha qo'llagan.

— Keling sho'rolar tuzumi davrida deyarli barcha ittifoqdosh respublikalar bilan bir asrda ayval lotin, keyinchalik esa rus grafikasiga asoslangan yozuvni qabul qilish o'zbek xalqi hayotida o'ziga xos hodisa bo'ldi.

### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Fanning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Yozuvning jamiyat hayotidagi ahamiyati qanday?
3. Yozuv nima? Uning komponentlariga nimalar kiradi?
4. O'zbek xalqi qanday yozuvlardan foydalangan?
5. Hozirgi o'zbek grafikasi qanday belgilarni o'z ichiga oladi?
6. Ortografiya nimani o'rganadi?
7. Punktatsiya nimani o'rganadi?

### A d a b i y o t l a r :

1. Usmanov I. O'zbekistonda 20-asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixidan (sotsiolingvistik tahlil). – Toshkent, 2006
2. Baburajullayev Sh. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. – Toshkent, 1999.
3. Jamshidjonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2013
4. Akhmedilayev Y. Sovg'a. – Toshkent, 1996
5. Qammatjonov X., Сапаев К. Имло муаммолари. – Toshkent, 2007.

### 1-mavzu: Alifbo va imlo muammolari bo'yicha tarixiy-xronologik ma'lumot (XX asr islohotlari misolida)

#### H o j a

1-davr - arab grafikasiga asoslangan yillar (1900-1929).

2-davr - lotin grafikasiga asoslangan yillar (1929-1940).

3-davr - rus grafikasiga asoslangan yillar (1940-1993)

4-davr - ikki yozuvlilikka (kirill-o'zbek va lotin-o'zbek alifbolariga)

asoslangan yillar

**Tarqanchi tushunchalar:** Yozuv, alfavit, arab yozuvi, lotin yozuvi, kirill yozuvi, imlo qoidalari.

Yozuv millatning takrorlanmas belgilaridan biri bo'lib, u umumxalq madaniyatining ajralmas parchasidir, chunki bu unsurlar milliy tilning amal qilishi va yashab qolishini ta'minlab beradigan ijtimoiy mexanizmdir. Demak, yozuv va imlo xuddi til, din va madaniyat singari insoniyatning eng avaylab oqsatib borib bo'lgan qadriyatlaridan biridir.

Ma'lumki, tarixda turk xalqlari juda ko'p yozuvlardan foydalanib keldilar. Ularning, o'zaro, sog'd, uyg'ur, arab, kirill, lotin alifbolari shular jumlasidandir. Uzoq tarixda ajdodlarimizning u yoki bu yozuvga o'tishi xalq hayotida yuz bergan

jiddiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib (masalan, xalqlarning buyuk ko'chishi, buyuk saltanatlarning barpo etilishi, yangi dinga e'tiqod qo'yish va sh.k.), u tarixiy taraqqiyotning ajralmas qismidir. Ammo 20-asrda sobiq Sovet ittifoqidagi xalqlar qatori o'zbeklar ustma-ust o'z yozuv va imlolarni o'zgartirdilarki, bu bir qancha omillar bilan bog'liq.

Ma'lumki, O'zbekistonda XX asrda 3 marta yozuv almashtirildi (1929, 1940, 1993), 5 marta imlo qoidalari o'zgartirildi (1923, 1929, 1935, 1956, 1995), tilni isloh qilish va termin tanlash tamoyillari ham tez-tez o'zgarib turdi: 20-yillar boshida turkizmlar va sof o'zbekcha so'zlarga moyillik bildirilgan bo'lsa, 30-yillardan boshlab rus tilidan so'z o'zlashtirishga zo'r berildi, 80-90 yillarda va ba'zan hozirda ham eskirgan arabcha-forscha o'zlashmalarni atama sifatida qo'llashga intilish kuchaydi<sup>1</sup>.

O'zbek yozuvining XX asr tarixi murakkab jarayonlarga boyligi bilan xarakterlanadi: bu davrda o'zbek yozuvi bir necha marta tubdan isloh qilindi – bir grafik tizimdan boshqa grafik tizimga ko'chirildi. Jahon xalqlarining yozuv tarixida bunday hodisa kamdan kam uchraydi.

Arab alifbosi bizda VIII asrning 20-yillaridan XX asrning 20-yillarigacha qo'llangan. "Milliy uyg'onish" davrida arab imlosi va alifbosiga ayrim islohlari kiritish boshlangan. Ilg'or o'zbek ziyolilari 1905-1907 yillardan (matbuot va so'z erkinligiga erishilgandan so'ng) ayrim arabcha harflarning shakliga, ba'zi imlo qoidalariga isloh kiritish to'g'risida matbuotda yoza boshlaganlar. O'zbekcha matbuot va muallimlik bilan shug'ullangan mahalliy ziyolilar turli tazyiqlarga bardosh berib, imlo va ona tili darsliklari yaratish yuzasidan o'zlari tashabbus ko'rsatib ish olib borganlar, "Turkcha qoida", "Imlo" singari o'quv qo'llanmalarini nashr qildirganlar, matbuotda maqolalar bilan chiqqanlar. Ma'rifatchilar buni milliy ongni uyg'otishning asosiy, milliy dunyoqarashdagi yangilanishlar uchun poydevor sifatida tushundilar.

1917-yil oktabr to'ntarishidan so'ng mahalliy tillar, ularning alifbosi va imlosiga rasmiy ravishda e'tibor berila boshlangan. Ayniqsa, 1919-yil 26-dekabrda Rossiya Respublikasida savodsizlikni tugatish to'g'risida Dekret chiqqanidan so'ng Qo'shma Rossiya Sho'rolarining Turkiston Muxtor Jumhuriyatida ham alifbo va imlo masalalarini tezroq hal qilish o'rta qo'yilgan, chunki imlo va harflar shakli masalalarini hal qilmay turib, ko'pchilik xalqni savodxon qilib bo'lmas edi.

1918-yilda Toshkentda til-imlo va adabiyot masalalari bilan shug'ullanuvchi to'garak-seminar – "Chig'atoy g'urungi" jamiyati tashkil topadi. Unga Fitrat va Qayum Ramazonov boshchilik qilishadi. 1919-1920 yillarda bu jamiyat a'zolari alifboni isloh qilish bilan bog'liq "Bitim yo'llari" kitobchasini yaratadi.

Turkiston jumhuriyati Xalq Maorif Komissarligi o'zbek maorifchilarining 1918-yil avgustda bo'lib o'tgan birinchi qurultoyida arabcha harflarni isloh qilish yuzasidan quyidagi qarorga kelingan: harflarning ikki xil shaklda, ya'ni alohida yozilish shakli hamda so'z boshida yozilish shakliga bo'lishi lozim.

<sup>1</sup> Hiltazarov J. D. O'zbekistonda 20-asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixidan (sotseolingvistik tahlil). – Toshkent, 2006, 6-b.

1921-yilning yanvar oyi boshida Toshkentda o'zbek tili va imlosi yuzasidan Yul'tonin Muhiir Jumhuriyati qurultoyi o'tkaziladi. Bu anjumanda harf va imlo masalasi yuzasidan ma'ruza qilgan Fitrat o'z so'zini: "Maorifimizni eski imlo va imlo bilan kengaytmak mumkin emas. Maorifni kengaytmak va savodsizlikni kamaytirish uchun imlomizni isloh etmak lozimdir", – degan chaqiriq bilan yakunlagan. Fitrat o'z ma'ruzasida arab alifbosining o'zbek tili xususiyatlariga moslashtirilgan, unda unli tovushlarni ifodalash uchun belgilar yetishmasligini, harf bo'lmagan to'rt shakli borligini, bunday nomukammallikdan qutulish uchun esa unli isloh qilib zarurligini aytadi<sup>2</sup>.

— Mankur masala yuzasidan qo'shimcha ma'ruza qilgan Botu – Mahmud Hushiyev arab alifbosini isloh qilish bilan kifoyalanmay<sup>3</sup> uni lotin grafikasi usulidagi yangi alifbo bilan almashtirish masalasini o'rta qo'yadi.

"Chig'atay gurungi" a'zolari mavjud alfavitda o'zbek tilidagi kamida 9 ta unli belgini ber-yo'g'i 3 ta harf ifodalayotgani qoniqarsiz holat ekanligini hamda bu holatga xat-savod o'rgatish ishiga jiddiy to'siq bo'layotganini qayd etgan holda, "Uyruq"chilar mazkur holatni tuzatish uchun alfavitga 6 ta yangi harf kiritish lozimligini yoqlab chiqqan edilar. Bu 20-asrda mavjud yozuvni isloh qilishga qaratilgan dastlabki taklif edi<sup>4</sup>.

Arab yozuvining turkiy tillar lingvistik tabiatiga to'g'ri kelmasligini Mahmud Kashiqari (XI asr), Alisher Navoiy (XV asr) kabi ijodkorlar qayd etgan bo'lsa-da, bu yozuvni o'zbek (turkiy) tiliga moslash haqida birinchi bor dadil qaror boshqat boshlagan Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) edi. Bobur 1500-1504 yillarda arab yozuvini o'zbek tilining fonetik xususiyatlariga moslab qayta o'zlashtirib chiqqani va o'zi yaratgan yozuvga "Xatti Boburiy" deb nom bergani ma'lum.

1923-yil 3-9-oktabrda O'rta Osiyo o'zbeklari yozuvi va imlosini isloh qilish yuzasidan Buxoro shahrida alifbo-imlo konferensiyasi bo'lib o'tadi. Unda 1922-yildagi qaror asosida isloh qilingan yangi arab alifbosi qabul qilinadi. Alifboga islohi uchun 6 belgi kiritiladi. Konferensiyada yangi alifbo bilan birga birinchi unli belgilar ham qabul qilinadi.

1923-yil 29-31-noyabr kunlari Samarqandda til mutaxassislari va o'zbek olimlarining kengashi o'tkaziladi. Bu kengashda imlo va alifbo to'g'risida qarardagi qaror qabul qilingan. "Bugun ishlatilmoqda bo'lgan imlomizning qaramasliklariga qaramasdan aytish mumkinki, ko'p imlolardan mukammaldir. Bu imlo yetarlichamliklarini bir imlo kengashi yig'ish bilan to'ldirish mumkindir. Shuning uchun-da boshqadan bir lotin harf va imlosi masalasi ko'tarish muvofiqdir".

1926-yilning 26-fevralidan Bokuda sobiq Ittifoqdagi turkshunoslarning kengashi qurultoyi ish boshlagan. Boku qurultoyida bir necha ilmiy masalalar

<sup>2</sup> Fitratning S. G'ulomli, H. H. Muhammadovlari. – Toshkent, 2007, 15-b.

<sup>3</sup> Mankur masalasi haqida: I. H. H. Muhammadovning "O'zbekistonda 20-asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixidan" kitobidagi ma'lumotlar haqida H. Limolxonov, Q. Sapayevlarning "Imlo muammolari" qo'llanmasidagi ma'lumotlardan unumli foydalanildi.

<sup>4</sup> Fitratning I. H. H. Muhammadovlari 20-asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixidan (sotsiolingvistik tahlil). – Toshkent, 2006, 20-b.

<sup>5</sup> Fitratning I. H. H. Muhammadovlari 20-asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixidan (sotsiolingvistik tahlil). – Toshkent, 2006, 20-b.

qatorida harf va imlo masalasiga keng o'rin berilgan. Bu qurultoyda sho'rolar hududidagi turkiy xalqlar o'z yozuvlari uchun lotin alifbosini asos qilib olishlari to'g'risida tavsiya qabul qilingan.

O'zbekistonda Boku qurultoyidan keyin yangi alifboga o'tish yuzasidan qizg'in ish boshlangan. 1928-yil 11-martda O'zbekiston Yangi alifbo markaziy qo'mitasining 1-plenumi bo'ladi. Bunda yangi alifboni hayotga to'la joriy qilish rejasi ko'rib chiqiladi va lotinlashtirilgan yangi o'zbek alifbosi Davlat alifbosi deb e'lon qilinadi. Shu yil dekabr oyida 2-plenum o'tadi, bunda yangi alifboga o'tishni tugallash 2 yilga (1932 yildan 1930 yilga) qisqartiriladi. Maktablarda yangi alifboga o'tish 1927-1928 o'quv yilidan boshlanib, 1929-1930 o'quv yilida tugallangan. Davlat idoralarida esa 1928-1930 yillarda o'tilgan. Lotin alifbosini hayotga joriy qilish jarayonida unga ayrim to'ldirish va tuzatishlar kiritib borilgan. 1929-yilning 10-avgustida O'zbekiston Xalq Maorifi Komissarligi kollegiyasining yig'ilishi bo'lib, unda may oyida bo'lib o'tgan til-imlo konferensiyasi tavsiya qilgan yangi imlo qoidalari tasdiqlanadi. "Qoidalar" 29 moddadan iborat bo'lib, ularda singarmonizmli sheva xususiyatlarini yozuvda ifodalashga ko'proq o'rin beriladi. Yozuvning ayni shu jihati jamoatchilikda e'tiroz tug'diradi, bu e'tiroz 1933-yilda o'zbek orfografiyasi qoidalarining yangi loyihasi yaratilishiga olib keladi.

1934-yilning yanvar oyida Toshkentda o'zbek orfografiyasining yangi loyihasi muhokamalarini yakunlash maqsadida birinchi Respublika Qurultoyi o'tkaziladi, unda alifbodan 3 ta harf (e, y, b) chiqariladi, natijada "o" - "o", "u" - "y", "i" - "b" juftliklari o'rnida "o", "u" va "i" harflarining o'zini qo'llash qoidalashtiriladi, biroq bu bilan alifbo va imlodagi qiyinchiliklarga to'la barham berilmaydi.

Bu yozuv turkiy tillardagi tovushlar xususiyatini, xususan, ularga xos fonetik hodisalarni berishda arab alifbosiga nisbatan birmuncha qulayliklarga ega edi, ammo 1940-yilda sobiq sho'rolar hududida yoppasiga *kirill alifbosiga* o'tishga qaror qilindi (Boltiqbo'yi davlatlari - Litva, Latviya, Estoniya va Kavkaz davlatlari - Gruziya, Armaniston bundan mustasno qoldi) hamda bu yozuv 1991-yilgacha o'zbek xalqning ham "milliy" yozuvi sifatida amal qildi.

1939-yilning 18-noyabrda matbuotda "Rus grafikasi asosida tuzilgan yangi o'zbek alifbesi"ning loyihasi muhokama uchun e'lon qilinadi.

1940-yilning 26-28-martida Toshkentda yangi o'zbek alfaviti va orfografiyasi masalalariga bag'ishlangan Respublika ilmiy kengashi bo'lib o'tadi.

1940-yilning 5-8-mayida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1-chaqiriq III sessiyasi bo'lib o'tadi. Sessiya o'zining 8-maydagi yig'ilishida rus grafikasiga asoslangan yangi o'zbek alifbosining 35 harfdan iborat loyihasini tasdiqlaydi.

Oliy Kengash yangi alifboga ko'chish ishlarining hammasini ikki yil ichida o'tkazish, bu ishni 1942-yilning 1-yanvarigacha tugallash majburiyatini yuklaydi.

1940-yilning 4-iyulida yangi alifbe hukumat komissiyasi yig'ilishida "O'zbek adabiy tilining orfografiyasi" (loyiha) ham ba'zi o'zgarish va tuzatishlar



bilan tasdiqlandi. Shunday qilib, o'zbek yozuvi tarixining yangi bosqichi – kirill grafikasiga asoslangan davri boshlanadi.

1940-1941-o'quv yilida maktablarning quyi sinflarida o'quv jarayoni yangi yozuvga ko'chiriladi.

1941-1942-o'quv yilida maktablarning yuqori sinflarida ham o'quv jarayoni yangi (kirillcha o'zbek) yozuvga ko'chiriladi.

1946-yilda orfografiya qoidalarining yangi to'plami yaratiladi, imlo lug'ati va qiyin so'zlar lug'atini tuzishga kirishiladi.

1953-1955-yillarda matbuotda bildirilgan tanqidiy fikrlar va takliflar asosida "O'zbek orfografiyasi asosiy qoidalari"ning bir necha yangi loyihalari yaratiladi, ulardan so'nggisi O'zbekiston Oliy Kengashi Prezidiumiga topshiriladi.

1956-yilning 4-aprelida "O'zbek orfografiyasi asosiy qoidalari"ning (qayta ishlangan va takomillashtirilgan varianti) O'zbekiston Oliy Kengashi Prezidiumi tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik e'lon qilinganidan so'ng lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosi masalasi o'rta qo'yildi.

Bu masala O'zbekiston Oliy Kengashi sessiyasida ham muhokama qilinib, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini tuzish yuzasidan guruh tuzildi.

O'zbekiston Oliy Kengashining 1993-yilda o'tgan 12-chaqiriq 12-sessiyasida noib P.Qodirovning lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini tuzish yuzasidan olib borilayotgan ishlar to'g'risidagi axboroti tinglandi.

Shu yil 16-avgustda Toshkent shahrida o'zbek yozuvi istiqboliga bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferensiya bo'ldi. Bunda P.Qodirov, A.Hojiyev, I.Qo'chqortoyev, N.Mahmudovning ma'ruzalari tinglandi, ma'ruzalar yuzasidan O.Yoqubov, Jamol Kamol, Abdulla Oripov, Sobir Kamolov (Qoraqalpog'iston), Izzat Sultonov, H.Ne'matov, Y.Abdullayev, S.Otamirzayeva va boshqalarning fikr-mulohazalari eshitildi. Konferensiya yakunida lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosi asosan ma'qullanib, 4 moddadan iborat qaror qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 2-3-sentabrdagi 12-chaqiriq 13-sessiyasida yangi alifbo masalasi muhokama qilinib, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tish to'g'risida qonun qabul qilindi.

"Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'grisida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga kiritish tartibi haqida"gi qarori matbuotda berildi.

Mazkur qarorga binoan, yangi o'zbek alifbosini joriy etish bo'yicha Respublika davlat komissiyasi tashkil qilindi; yangi alifbo asosidagi o'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini ishlab chiquvchi ishchi guruh tuzildi va 1993-yilning dekabr oyidan ish boshladi.

"O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari"ni hozirlash jarayonida alifbodagi ayrim harflarning shakli yuzasidan fikr-mulohazalar paydo bo'ldi. Bundan tashqari, yozuv jarayonida texnika vositalaridan kengroq foydalanish, harflar shaklini jahondagi taraqqiy qilgan davlatlar alifbolariga yaqinlashtirish muammolari ham o'rta qo'yildi.

Bu muhim masalalarga ijobiy yondashish uchun alifbodagi ayrim harflarning shaklini isloh qilish zarur bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisyda (1995-yil 6-may) mazkur masalalar yuzasidan axborot eshitildi, Qonun chiqdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Oliy Kengash qaroriga o'zgartishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qildi.

Bu hujjatlarda o'zbek alifbosi 26 harf, 3 ta harflar birikmasidan iborat ekanligi, *ç, j* harflari mustaqil harf belgisi sifatida 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan alifbodan chiqarilganligi, ayrim harflarning shakliga isloh kiritilganligi ko'rsatilgan; u mumiy ta'lim maktablarida yangi alifbo asosida ishlash 1995-yil sentabrdan emas, balki 1996-yil sentabrdan 1-sinflarda boshlanishi, yangi alifboga to'liq o'tilishi 2005-yilda tugallanishi qayd qilingan.

O'zbek tilidagi 3 xil nutq tovushi (*sh, ch, ng*) harflar birikmasi bilan quyidagicha ifodalanadi:

- *sh* harf birikmasi sholi, o'qish kabi so'zlarda *sh* tovushi;

- *ch* harf birikmasi cho'l, ishonch kabi so'zlarda *ch* tovushini;

- *ng* harf birikmasi ong, tenglik kabi so'zlardagi til orqa ovozdor burun tovushini ifodalash uchun yoziladi. Bu tovush amaldagi alifboda 1940-yil 8-mayda harf birikmasi *-ng* bilan ifodalanishi qabul qilingan edi.

Demak, harf birikmasi bilan ifodalangan nutq tovushlari o'zbek tilida ikki harfni yonma-yon keltirish bilan ko'rsatiladi.

"O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" loyihasining birinchi turi respublika ziyolilarining Toshkentda 1994-yil 16-apreldagi yig'inida muhokama qilindi. Imlo qoidalari matbuotda berilgan hamda turli yig'inlarda bayon qilingan fikr-mulohazalarni e'tiborga olib, ishchi guruh uni qayta ko'rib chiqdi. Loyihaning uchinchi turi O'zbekiston Fanlar akademiyasining Tilshunoslik institutida, Toshkent davlat universitetida, Toshkent davlat Nizomiy nomidagi pedagogika institutida, Respublika o'quv-metodika markazida muhokama qilinib, asosan ma'qullandi, ayrim mulohazalar bildirildi. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" Respublika davlat komissiyasiga topshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995-yil 24-avgustdagi 339-son qarori bilan "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari"ni tasdiqladi.

Asosiy qoidalar "Harflar imlosi", "Asos va qo'shimchalar imlosi", "Qo'shib yozish", "Ajrati yozish", "Chiziqcha bilan yozish", "Bosh harflar imlosi" va "Ko'chirish qoidalari" bo'limlaridagi 82 moddadan tarkib topgan.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. O'zbek xalqi XX asrda qanday yozuvlardan foydalangan?
2. Arab grafikasi asosidagi eski o'zbek yozuviga qaysi yillarda qanday o'zgartirishlar kiritilgan?
3. Arab grafikasi asosidagi o'zbek yozuvidan nechanchi yilgacha foydalanildi?
4. Arab grafikasidan lotin grafikasiga ko'chish jarayoni qanday kechdi?

5. Lotin grafikasiga asoslangan o'zbek alifbosiga yo'l-yo'lakay qanday o'zgartirishlar kiritildi?
6. Rus grafikasiga asoslangan o'zbek alifbosi qachon qabul qilindi?
7. Kirill grafikasiga asoslangan o'zbek yozuvining imlo qoidalari qachon tasdiqlandi?
8. Kirill grafikasi asosidagi o'zbek yozuidan yangi yozuvga o'tish g'oyasi qachon yuzaga keldi?
9. Yangi (lotincha) o'zbek alifbosining birinchi va ikkinchi variantlari qachon qabul qilindi?
10. Yangi (lotincha) o'zbek yozuvining imlo qoidalari qachon tasdiqlangan?

### A d a b i y o t l a r :

1. Eltazarov J. O'zbekistonda 20-asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo o'zgarishlari tarixidan (sotsiolingvistik tahlil). – Toshkent, 2006.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. – Toshkent, 1999.
3. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2013.
4. Abdullayev Y. Sovg'a. – Toshkent, 1996
5. Жамолхонов Х., Сапаев Қ. Имло муаммолари. – Toshkent, 2007.

### J MAVZU: Rus-o'zbek alifbosiga asoslangan yozuvning grafik tavsifi va imlo qoidalari

#### Reja:

1. Kirill alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvining grafik tavsifi
2. 1956-yil 4-apreldagi imlo qoidalari

**Tayanch tushunchalar:** Rus-o'zbek alifbosi, kirill yozuvi, yozuvning grafik tavsifi, imlo qoidalari, harflar imlosi, o'zak-negiz va qo'shimchalar imlosi, qo'shma so'z va so'z birikmalari imlosi, bo'g'in ko'chirish, bosh harflar imlosi.

1. Rus-o'zbek (yoki kirill yozuviga asoslangan o'zbek) alifbosida 35 harf bor (shu jumladan, ikkita diakritik harf: ъ, ѓ). Ular quyidagilardir: *Аа, Бб, Вв, Гг, Дд, Ее, Ёё, Жж, Зз, Ии, Йй, Кк, Лл, Мм, Нн, Оо, Пп, Рр, Сс, Тт, Уу, Фф, Хх, Цц, Чч, Шш, Ъъ, Ѓѓ, Ээ, Юю, Яя, Ўў, Ққ, Ғғ, Ҳҳ*

2. Rus-o'zbek yozuvining grafik tizimida ikkita poligraf (**шч, нг** digraflari) bor Ammo bular alifboga kiritilmagan.

3. Rus-o'zbek yozuvining grafik tizimida rus tili orqali o'zlashtirilgan so'zlar tarkibidagi qattiq va yumshoq undoshlarni farqlash sistemasi bor, bu sistema yozma nutq oqimida qattiq undoshni ifodalovchi harflardan so'ng **а, о, u** harflarining, yumshoq undoshlarni ifodalovchi harflardan so'ng esa **и, е, ё, ю, я** harflarining va yumshatish (**ь**) belgisining qo'llanishiga asoslanadi.

4. Alifbodagi **u** harfi o'zbek tilga yot bo'lgan boshqa til fonemasini ifodalashga xizmat qiladi.

5. O'zbek tilining ayrim milliy tovushlari (masalan, qorishiq "ж", sayoz til orqa "нр", quyi keng "о" fonemalari) uchun maxsus harf belgilanmagan.

6. Alifbodagi *е, ё, я, ю* harflari ikki fonemani (*ye, yo, ya, yu*) ifodalashga xizmat qiladi.

7. Alifboda bir fonema ayni bir harf bilan ko'rsatilishi kerak, o'rninga qarab ikki boshqa-boshqa harf bilan yozish biroz qiyinchilik tug'diradi. Masalan: bitta fonema so'z boshida *э* harfi bilan, so'z ichida *е* harfi bilan ifodalanadi; *этик* va *бер* kabi.

8. O'zbek yozuvining grafik tizimida sintetik va analitik grafemalarning borligi ham ko'pchilik mutaxassislar tomonidan salbiy hodisa sifatida baholanib kelingan. Darhaqiqat, bu tipdagi grafemalarning mavjudligi so'z va morfemalarning akustik va grafik obrazlarida asimmetriya hodisasini yuzaga keltirmoqda: *ёшлик* (6 ta fonema, 5 ta grafema, 5 ta harf), *онг* (2 ta fonema, 2 ta grafema, ammo 3 ta harf) kabi. Bunday asimmetriyaning mavjudligi so'zning fonetik va morfemik tarkibini yozuvda to'g'ri ifodalashga, ayniqsa, harf bilan tovush o'rtasidagi aloqani ilg'ab olishga xalaqit bermoqda<sup>6</sup>.

9. *Ж* harfi ikki fonemani ifodalashga xizmat qiladi: *жу́жа* – *журнал* kabi. Bundan tashqari, unli fonemalarda ham shuni kuzatish mumkin: *о* va *и* harflari.

**Rus-o'zbek yozuvining imlo qoidalari** dastlab 1940-yilning 4-iyulida yangi alifbe hukumat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan va shu yilning o'zida "Birlashgan o'zbek alfaviti va orfografiyasi" nomli to'plamda e'lon qilingan. Keyinchalik bu qoidalar yana bir necha marta qayta ishlandi, shular asosida 1952, 1953, 1955-yillarda "O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari" loyiha tarzida besh marta qayta nashr qilindi, nihoyat, uning 5-nashri 1956-yilning 4-aprelida O'zbekiston Oliy Soveti Prezidiumi tomonidan tasdiqlandi. Hozirgi rus-o'zbek yozuvining imlosi ana shu "...qoidalar"ga asoslangan. U quyidagi 5 bo'limni o'z ichiga oladi:

1. Ayrim harflar imlosi (1-30-§ qoidalari).
2. O'zak-negiz va qo'shimchalar imlosi (31-55-§ qoidalari).
3. Qo'shma so'z va so'z birikmalari imlosi (56-58-§ qoidalari).
4. Bo'g'in ko'chirilishi (59-62-§ qoidalari).
5. Bosh harflarning yozilishi (63-72-§ qoidalari).

### **Ўзбек орфографиясининг асосий қондалари<sup>7</sup>**

#### **Айрим ҳарфларнинг имлоси**

**1-§. и ҳарфи:** 1) *бир, билим, бишак, тилак, билан, бироқ, сира, пировардида, сизир, пилик, тирик, тиргак, чигит, тишит* каби сўзларда қиска айтиладиган *и* унлиси ўрнида, *муҳит, лирика* каби сўзларда чўзиқроқ айтиладиган *и* унлиси ўрнида ёзилади;

2) *қир, қиз, биқин, гишт, қизиқ, хирмон, хина, миш* каби сўзларда *к, х, г* товушлари билан ёнма-ён келиб, қиска ва каттиқроқ айтиладиган *и* унлиси

<sup>6</sup> Жамолхонов Х., Сапас К. Имло муаммолари – Тошкент, 2007, 165-б.

<sup>7</sup> Ҳозирда айрим ҳолатларда кўрил ёзуви ҳам амалда бўлиб қолган бўлиши билан қoidalарни янаса тасдиқлашга мумкин бўлмади. Чунки бо'лажак она тили ва адабиёти о'қитувчилари ҳам аққала имло қoidalарини ҳам тўлиқ билган ҳолда ёзишлари.

ўнида, **посилка, вишка, виставка, вивеска** каби сўзларда русча **ы** унлиси ўрнида ёзилади.

**2-§. у харфи:**

1) *ун, тун, қун, қурт* каби бир бўғинли сўзларда, *улуғ, учун, усул* каби икки бўғинли сўзларда қисқа айтиладиган у унлиси ўрнида, *колмуна, диктатура, куб, сурат* каби сўзларда чўзиқрок айтиладиган у унлиси ўрнида ёзилади;

2) *қовун, совун, овул, мовун, совуқ, товуқ, қирговул, товус, товун, тарвуз, саксовул, тасаввур, қувур* каби сўзларнинг олдинги бўғинларига **о, а**, у унлиларидан бири бўлган ва шу унлидан сўнгги ёпиқ бўғиннинг бошида келган **в** товушидан кейинги у унлиси ўрнида ёзилади; аммо *чивин, тивит, ивит, чивик* каби сўзларда **и** унлисидан кейин келган **в** дан сўнг **и** ёзилади;

3) *улуш, буюк, буюм, юлдуз* каби ҳамда *ютуқ, учқун, турғун, бутун, кумуқ, тузум, уюм, турмуш, туғун, турқум, гумбур-гумбур, гувур-гувур* каби биринчи бўғинида у (**ю**) келган сўзларнинг иккинчи бўғинида, айрилишига мувофиқ у (**ю**) ёзилади. (Қаранг: 50-§.) Шунингдек, *урғу, уйқу, туйғу* каби сўзларнинг иккинчи очиқ бўғинида **қ** ёки **ғ** товушларидан кейин ҳам у ёзилади.

Аммо *тулки, қулғи, тушики* каби биринчи бўғинда у унлиси бўлган, шунингдек, *бўри, ўқи, тўқи, кўмир, бўлим* каби биринчи бўғинда **ў** унлиси келган сўзининг иккинчи бўғинида **и** ёзилади.

**3-§. ў харфи:**

*ўт, ўқ, қўл* каби бир бўғинли сўзларда, *ўтин, кўнгил, кўмир, тўқи, ўқи* каби кўп бўғинли сўзларнинг биринчи бўғинида ёзилади.

**4-§. э харфи:** 1) *элак, эркин, эгар, экран, этақ, экватор, элемент, энергия, эҳтимол, эҳтиром, эҳтиёж, эҳсон, эътиқод, эътироф* каби сўзларнинг бошида ёзилади;

2) *поззия, поэма* каби сўзларнинг ўртасида ўзича алоҳида бўғин ташкил қилганда, *дуэт, дуэл* каби сўзлар ичида бўғин бошида ёзилади.

**5-§. о харфи:** 1) *от, қор, бош, ош, нон* каби бир бўғинли сўзларда, *қарор, савол, анор, баҳор, наво, даво* каби сўзларнинг иккинчи бўғинида, *омон, қозон, бодом, доно, нодон, похол, сомон* каби сўзларнинг хар бир бўғинида ёзилади.

2) *очерк, тонна, орган, опера, нота, область* каби сўзларнинг урғули бўғинларида, *колхоз, совхоз, комсомол, колонна, автомат, обзор, мотор, ботаника* каби сўзларнинг урғусиз бўғинларида **а** га яқин талафуз этиладиган товуш ўрнида, *редактор, директор, прожектор, трактор, трансформатор* каби сўзларнинг сўнгги бўғинида **и** га мойил айтилган товуш ўрнида ёзилади.

**6-§. а харфи:** 1) *тан, фан, ана, мана, дафтар, катта, маҳкам* каби сўзларда юмшоқ **а** унлиси ўрнида, *қалам, галаба, хабар, партия* сингари сўзларда қаттиқ **а** унлиси ўрнида ёзилади;

2) *март, май, зал* каби бўгинли сўзларда, *латин, август, авангард, завод* каби сўзларнинг биринчи бўгинида, хусусан, *в* ундошидан олдин *о* га мойилроқ айтиладиган товуш ўрнида ёзилади;

3) *муомала, музокара, мухокама, муносабат, муболага, мутолаа* каби сўзларнинг учинчи бўгинида *а* ёки *и* тарзида айтиладиган товуш ўрнида ёзилади.

7-§. *диаметр, диаграмма, пионер, идиома, идеология, геометрия, театр, теорема, аэродром, аэропорт, аэропорт, кооператив, координация, қоида, доир, доира, оила, оид, доим, шоир, жамоа, жамоат, маориф, таом, таомил, мудрофаа, матбаа* каби сўзларда унлилар ёнма-ён келади ва шундай ёзилади.

8-§. *е* ҳарфи: 1) *ер, ем, етмиш, елка, объект, разъезд* каби сўзларда сўз ёки бўгин бошида, *етим, елим* каби сўзларда айрим бўгинни ташкил этганда, шунингдек, *правление, страхование* каби сўзларнинг охирида унли товушдан кейин *йэ (й+э)* ўрнида ёзилади;

2) *кел, кет, кеч, бел, тер, беда, меҳмон, меҳнат, чехра, зеҳн, меҳр, истеҳком, телефон, театр, сеанс, адрес, телеграф, делегат* каби сўзларда ундошдан сўнг ёки икки ундош орасида *э* тарзида айтиладиган унли товуш ўрнида ёзилади.

9-§. *ё* ҳарфи: 1) *ёш, ёл, аёл, ниёз, ихтиёр, тайёр, приёмник, подъёмник* каби сўзларда сўз ёки бўгин бошида, *ёқа, ёки* каби сўзларда айрим бўгинни ташкил этганда, *йо (й+о)* ўрнида ёзилади;

2) *счёт, режиссёр, пулемёт, самолёт* каби сўзларда *о* тарзида айтиладиган унли товуш ўрнида ёзилади. Аммо район, майор, Нью-Йорк каби сўзларда бўгин бошида *ё* эмас, *йо* бирикмаси ёзилади.

10-§. *ю* ҳарфи:

1) *юр, юз, юк, юлоуз, уюшма, буюрмоқ, союз, июль* каби сўзларда сўз ёки бўгин бошида, *юрак, ютуқ, юбилей, юрист* каби сўзларда айрим бўгинни ташкил этганда, *йу (й+у)* ўрнида ёзилади;

2) *бюджет, брошюра, эволюция, революция, резолюция* каби сўзларда *у* тарзида айтиладиган унли товуш ўрнида ёзилади.

11-§. *я* ҳарфи:

1) *яги, яхши, жиян, суяк, январь, ноябрь* каби сўзларда сўз ёки бўгин бошида, *ягона, яшил, туя, куя, судья* каби сўзларда айрим бўгинни ташкил этганда, *йа (й+а)* ўрнида ёзилади.

2) *отряд, разряд, октябрь, сентябрь, князь* каби сўзларда *а* тарзида айтиладиган унли товуш ўрнида ёзилади.

12-§. *б* ҳарфи: 1) *китоб, мактаб, жавоб, тиртиб, олиб, ёзиб, чиқиб, келиб, минглаб* каби сўзларнинг охирида *б* товуши жарангсизланиб *н* тарзида айтилса ҳам, аслига мувофик *б* билан ёзилади;

2) *бундай, буюм, бурун, бўйин* каби баъзи сўзлар бошида *б* товуши *м* тарзида айтилса ҳам, *б* ёзилади.

13-§. *товуқ, қовоқ, чивик, чивин* каби сўзларда икки унли орасида *в* товуши баъзан *б* тарзида айтилса ҳам, *в* шаклида ёзилади.

14-§. *фан, фасл, фарқ, улфат, сафар, фабрика, физика, фронт, саф, ҳарф, шариф, телеграф, телефон, физкультура, фотография, патефон* каби сўзларда *ф* товуши одатда *п* тарзида айtilса ҳам, *ф* ёзилади.

15-§. *одоб, озод, савод, даромад, завод, шогирд, доклард, авлод* каби сўзларнинг охирида *д* товуши жарангсизланиб *т* айtilса ҳам, *д* ёзилади.

16-§. *ж* ҳарфи: 1) *жон, жун, жаҳон, жимжима, жонажон, мажлис* каби сўзларда портловчи товуш ўрнида ёзилади;

2) *журнал, жюри, прожектор, гижда, мужда, ажоар* каби сўзларда сирқашувчи товуш ўрнида ёзилади.

17-§. *ц* ҳарфи:

*цех, цирк, циркуль, цензура, цемент, цилиндр, центнер, революция, конституция, процент* каби сўзларда ажратилмай айtilадиган *тс* товушлари бирикмаси ўрнида ёзилади.

18-§. Русчада *ш* ҳарфи билан ишлатиладиган айрим сўзлар ўзбек тилида *шч* бирикмаси орқали ёзилади: *мешчан, помешчик, Шчербаков, Шчерин* каби.

19-§. *й* ҳарфи: *йил, йигит, йигирма, йўл, йўнғичка, йўра* каби сўзларда *и* ва *у* унлиларидан олдин сўз бошида *ой, сой, мой, жой, той, қий, кий, чий, катий, натрий, сценарий, санаторий, байрам, қайроқ, лайлак, зийрак, тийрон, тийрак* каби сўзларда сўз ва бўғин охирида, *Низомий, Лутфий, Шакоий, Муқимий* каби адабий тахаллусларнинг охирида, *сийсий, ижтимоий, амбий, жузъий, маънавий, қабилавий* каби сифатларнинг охирида ёзилади.

20-§. Сўз ўртасида келган *н* ундоши ўзидан кейинги лаб товуши *б, п* ва *м* билан келганда *м* тарзида айtilса ҳам, ҳар вақт *н* шаклида ёзилади *шанба, сунбул, манба, ёнбош, танбур, жонбоз, танбеҳ, ватанпарвар, шлангма, сайланма, ёнма-ён, кўнмаслик* каби.

21-§. Сўз ўртасида *н* ундоши билан *к, г, қ, з* товушларидан бири ёнма-ён келганда, *н* товуши *нг* тарзида айtilса ҳам, *н* ёзилади: *кўланка, тўнка, жинглак, анқов, чанқоқ, ёнқоқ, кўнгироқ, кўнғиз, тўнғиз* каби.

22-§. *нг* бирикмаси: 1) *онг, тонг, энг, кўнғил, манглай, танглай, тингламоқ, инграмоқ, жарангламоқ, аранг, таранг, айттинғиз* каби сўзларда ажратилмай бурун товуши ўрнида ёзилади;

2) *конгресс, тангенс, инглиз, танга (пул)* каби сўзларда ажратиб айtilадиган *н* ва *г* ўрнида ёзилади.

23-§. *ҳ* ҳарфи:

*ҳўл, ҳам, ҳамдам, ҳар, ҳандалак, ҳарбий, муҳаббат, маҳкам, суҳбат, раҳбар* каби сўзларда бўғиз товуши ўрнида, *ҳ* ҳарфи эса *хат, хабир, халқ, нахта* каби сўзларда чуқур тил орқа товуши ўрнида ёзилади.

24-§. *дўст, гўшт, мушт, тўрт, Тошкент, артист, дарахт, рост, лишт, наст, баланд, Самарканд, хурсанд, тисанд* каби сўзларда сўз охирида ёнма-ён келган ундошларнинг охиргиси айtilмасам ҳам, ёзувда сақланади.

25-§. *килограм, киловатт, металл, прогресс* каби сўзларнинг охирида ёнма-ён келган ундошлардан бири айtilмасам ҳам, ёзувда сақланади.

Аммо бундай сўзлар охиридаги бир хил ундошлардан кейин худди шу хил ундош билан бошланадиган қўшимча қўшилганда, сўз охирида қатор келган учта ундошдан бири ёзилмайди: *материаллар* эмас, *материаллар*, *килограмми*? эмас, *килограмми*? каби.

**26-§.** 1) *синф, қисм, литр, ҳужм, сабр, метр, аср, ақл, ҳарф, пункт, танк, банк, факт, фаҳм, наир, расм* каби сўзлар охирида икки ва ундан ортик ундош ёнма-ён ёзилади.

Аммо рус тилида охирида *с* ва *к* қатор келган *отпуск, киоск, диск, пропуск* каби сўзлардан кейин, ўзбек адабий талаффузига мувофиқ, бир *а* қўшиб ёзилади; *отпуска* – *отпускам, отпускиси, отпускани*; *киоска* – *киоскадан, киоскаси, киоскачиларнинг* каби;

2) *муҳаббат, лаббай, аппарат, опти, шиддат, содда, катта, етти, арра, парранда, иззат, жизза, тизза, миллат, миллион, ҳамма, ҳиммат, коммунист, грамматика, шинни, тонна, миннатдор, касса, комиссия, қисси, қисси, комиссар, пашиша, якка, ужки, чўққи, диққат* каби сўзларда ёнма-ён келган бир хил ундошлар ёзилади.

**27-§.** *уч* ва *тўрт* сонларига *-ла* қўшимчаси қўшилиб жамловчи сон ясалганда *уч* сони икки *ч* билан *уччала* ва *тўрт* сони икки *т* билан *тўрттала* тарзида айтилади, лекин бу сўзлар бир *ч* ва *т* билан ёзилади: *учала* – *учаламиз, тўртала* – *тўрталамиз* каби. Аммо бир сонига *-та* қўшимчаси қўшилганда, бу сўз айтилишига мувофиқ *битта* шаклида (икки *т* билан) ёзилади.

**28-§.** *стол, икаф, итаб, итурм, план, плакат, правление, трактор, трамвай, трест, справка, стрелка, структура* каби сўзларнинг бошида ва *абстракт, транспорт, институт, инспекция* каби сўзларда сўз ичида ёнма-ён келган икки ва ундан ортик ундош қатор ёзилади.

**29-§.** айриш белгиси (**ъ**): 1) сўз ўртасида *е, ё, ю, я* ҳарфларидан олдин келиб, уларни аввалги ундошдан ажратиш учун ёзилади: *объект, субъект, съёмка, съезд, подъезд, разъезд, адъютант, конъюнктура* каби;

2) *билъакс, бидъат, журъат, санъат, суръат, масъул, қалъа* каби сўзларда *а, у* унлиларини олдинги ундошдан ажратиш учун ёзилади;

3) *даъво, таъна, таъмин, таъриф, таъсир, шеър, феъл, меъмор, эътиқод, эътобор, мўътабар, мўътадил, мўъжиза* каби сўзларда ундош товушдан олдин келган унлини чўзикроқ айтиш учун ёзилади.

Аммо *дарё, оунё, бунёд, ҳаёя, така, афюн* каби сўзларда *Мирюсуф, Матёқуб, Миряҳё* каби киши отларида, *боряпти, келяпти, ёзяпти* каби феъллада ва *жам, нав, тобе, толе, воқе* каби сўзлар охирида айриш белгиси ёзилмайди.

**30-§.** Сўз ва бўғин охирида келган ундошнинг юмшоқ айтилишини билдириш учун юмшатиш белгиси (**ъ**) ёзилади; *январь, апрель, мебель, автомобиль, секретарь, большевик* каби.

Аммо охири юмшатиш белгиси билан тугаган сўзларга ҳар қандай қўшимча қўшилганда, юмшатиш белгиси (**ъ**) ёзилмайди: *артель* – *артелимиз, артелчилик*; *январь* – *январи, январда*; *модель* – *модели, моделчи*; *секретарь*



– секретаримиз, секретарлари, секретарлик; мебель – мебелимиз, мебелга, моделчилик каби. Шунингдек, актуал (масала), коммунал (хўжалик), интернационал (тарбия), индивидуал (масала), социал (ҳаёт), территориал (бўлиниш) каби сифатлар охирида ҳам юмшатиш белгиси ёзилмайди.

### Ўзак-негиз ва қўшимчалар имлоси

**31-§.** *ош – оша, бош – бошла, соғ – соғай, ёш – ёшла* каби сўзларда талаффузга кўра *о* ёки *ё* ёзилади. Аммо *сон, онг, ёш, от* каби бир бўғинли баъзи сўзларга ясовчи қўшинчалар қўшилганда *о* товуши *а* га, *ё* товуши *я* га айланади: *сон – санамоқ, саноқ; онг – англа, англамоқ, англашиладиган; ёш – яша, яшамоқ; от – ата, атамоқ, аталади* каби.

**32-§.** Унли *а* ёки *я* билан тугаган феъл негизларига қ ёки *в* қўшилганда, охирги *а* унлиси *о* га, *я* эса *ё* га айланади ва шундай ёзилади; *тара – тароқ; тарқа – тарқоқ, тарқов; сўра – сўроқ, сўров; чанқа – чанқоқ, чанқов; бўя – бўёқ, бўёв; тая – таёқ, таёв, суя – суёв, суёвчи* каби.

**33-§.** *тани, таши, ўқи, тўқи, қаши* каби феъл ўзакларига *в* қўшилганда, охирги *и* товуши *у* га айланади ва шундай ёзилади: *тани – танув, таши – ташув, ўқи – ўқув, тўқи – тўқув, қаши – қашув* каби (Қаранг: 41-§.)

**34-§.** *боғ, тоғ, ёғ, чўғ, соғ, тўғ, оғ, барғ, тенг, эг, тўғ* каби *г* ёки *з*; *қишлоқ, ўртоқ, ётоқ, ўроқ, чиқ, қоқ, этак, терак, элак, ўрдак, челак, тўк, чўк* каби қ ёки *к* билан тугаган сўзларга *г* товуши билан бошланган қўшимчалар қўшилганда, сўз охири ва қўшимча бошидаги ундошлар айтилишига мувофиқ қуйидагича ёзилади: *боққа, тоққа, ёққа, чўққа, соққан, тўққан, оққан, теккан, эккан, тўккунча, қишлоққача, ўртоққа, ётоққа, ўроққа, чиққан, қоққан, этакка, теракка, элакка, ўрдакка, челакка, тўккин, чўккач, сариққина, кичикқина* каби.

Аммо *г* билан тугаган баъзи сўзлар, киши отлари ва географик номлар *г* билан ёзила беради: *педагог – педагогга, митинг – митингга, Лафарг – Лафаргга, Люксембург – Люксембургга, Оренбург – Оренбургга, Кривой-Рог – Кривой-Роггача* каби.

**35-§.** *қишлоқ, ўртоқ, истак, тилак, станок, график* каби қ ёки *к* ундоши билан тугаган кўп бўғинли сўзларга эгалик қўшимчаси қўшилганда, қ товуши *з*, *к* товуши *г* тарзида айтилади ва шундай ёзилади: *қишлоқи, ўртоқи, истақи, графигидан* каби. Шунингдек, бир бўғинли *ёқ, йўқ, сўзларининг* охиридаги қ товуши *з* га айланади; *ёқ – ёғи* (бир ёғидан), *йўқ – йўғи* (бор-йўғи) каби.

Аммо *тоқ, чек, ўқ, нок, кўк, цирк, шарқ, фарқ, уфқ* каби бир бўғинли; *шитирок, шитифоқ, ташвиқ, фироқ, нифоқ* каби кўп бўғинли баъзи сўзларнинг охиридаги *к, қ* ундошлари эгалик қўшимчалари қўшилганда ҳам ўзгармайди, ўз ҳолича ёзилади: *тоқ – тоқи, фарқ – фарқи, шитирок – шитироқи, шитифоқ – шитифоқи, татбиқ – татбиқи, тасдиқ – тасдиқи* каби.

**36-§.** *огиз, қорин, ўрин, сингил, кўнгил, бурун* каби кейинги ёпик бўғинида *и* ёки *у* унлиси бўлган баъзи бир сўзлар эгалик қўшимчалар билан

турланганда, охирга бугиндаги **и** ёки **у** унлиси айтилмайди ва ёзилмайди: *огиз* – *огзим, огзинг, огзимиз, огзингиз*; *уеил* – *уелим, уелинг, уели, уелимиз, уелингиз*; *бурун* – *бурним, бурнинг, бурни, бурнингиз, бурнимиз* каби.

**37-§.** *улуз, икки, етти, олти, урин* каби кейинги бугинида **и** ёки **у** унлиси бўлган баъзи сўзларга **а** ёки **о** билан бошланган кўшимча кўшилиб, янги сўзлар ясалганда, охирги бугиндаги **и** ёки **у** унлиси айтилмайди ва ёзилмайди: *улуз* – *улгаймоқ, сариқ* – *саргаймоқ, огиз* – *огзаки, урин* – *урнатмоқ, икки* – *иккалов, олти* – *олталов, етти* – *етталов* каби.

**38-§.** *мен, сен* олмошларига **-нинг, -ни, -ники** кўшимчалари кўшилганда, бир **н** ундоши айтилмайди ва шунга мувофиқ ёзилмайди: *менинг* эмас, *менинг, менни* эмас, *мени, сенники* эмас, *сеники* каби.

**39-§.** *у, бу, шу* олмошларига **-да, -дан, -дай, -га, -ча** кўшимчалари кўшилганда, айтилишига мувофиқ, бир **н** орттириб ёзилади: *уга* эмас, *унга, будан* эмас, *бундан, шуга* эмас, *шунга, шудай* эмас, *шундай, шуча* эмас, *шунча* каби.

**40-§.** *исимоқ, ачимоқ, қотмоқ* каби феъллардан сифат ясалганда, баъзан ўзакдаги **с, ч** ва **т** ундоши такрорланади ва шунга мувофиқ ёзилади: *исимоқ* – *иссиқ, ачимоқ* – *аччиқ, қотмоқ* – *қаттиқ* каби. Шунингдек, *фан* сўзига **-ий** кўшиб ясалган сифат ҳам икки **н** билан ёзилади: *фанний*.

**41-§.** *ёз, кел, тер, қузат, келтир* каби ундош билан тугаган феъл ўзак-негизларига **-ув+чи, -ув+чилик, -ув+чан** кўшимчалари кўшилиб, янги сўз ясалганда, бу кўшимчалар **-увчи, -увчилик, -увчан** шаклида **в** билан ёзилади: *ёз* – *ёзувчи, ёзувчилик, кел* – *келувчи, тер* – *терувчи, қузат* – *қузатувчилик, келтир* – *келтирувчи, кул* – *кулувчи* каби. (Қаранг: 33-§.)

**42-§.** Феълларда орттирма нисбат ясовчи **-дир** кўшимчаси жарангсиз ундош товушлар билан тугаган сўзларда, шунингдек, жарангли ундош билан тугаган кўп бугинли сўзларда **-тир** шаклида ёзилади: *еиштирмоқ, тоштирмоқ, бостирмоқ, эктирмоқ, уқтирмоқ, чўмилтирмоқ, севинтирмоқ, кўкартирмоқ, кучайтирмоқ* каби. Аммо *кел* сўздан бошқа жарангли товуш билан тугаган бир бугинли сўзлардан кейин **-дир** шаклида ёзилади: *билдирмоқ, томдирмоқ, тердирмоқ, олдирмоқ, ёздирмоқ, ёндирмоқ, куйдирмоқ, қиздирмоқ* каби.

**43-§.** Ундош **г** билан бошланадиган **-гир, -гин, -гиз, -газ** каби кўшимчалар жарангсиз товушлар билан тугаган сўзларга кўшилганда **-кир, -қир:** *ўткир, чопқир* каби; **-кин, -қин:** *кескин, тоиқин* каби; **-киз, -қиз:** *еткизмоқ, ётқизмоқ* каби; **-каз, -қаз:** *утказмоқ, ютқазмоқ* каби шаклларда ёзилади. Жарангли товушлар билан тугаган сўзлардан кейин **г** ёки **з** билан ёзилади: *сезгир, олгир, қизгин, юргизмоқ, тўлгизмоқ, қўрғазмоқ* каби.

**44-§.** Мақсад равишдоши кўшимчалари, айтилишига мувофиқ, **-гани, -кани, қани** шаклларида **н** билан ёзилади: *ўқигани, ёзгани, эккани, боққани, соққани* каби. Шунингдек, буйруқ майли маъносини кучайтириш учун ишлатиладиган **-гин, -кин, -қин** кўшимчалари ҳам **н** билан ёзилади: *боргин, кўргин, экин, чиққин* каби. Аммо эски услубдаги бадний асарларда бу хил кўшимчалар **л** билан ҳам ёзила беради.

**45-§.** *ўқибман, ўқибсан, ўқибди, ўқибмиз, ўқибсиз, ўқибдилар, борибман, борибсан, борибди, борибмиз, борибсиз, борибдилар* каби феълларда шахс кўшимчаларидан олдин келган **б** ундоши **и** тарзида айтилса ҳам, бу хил феълла ҳар вақт **б** билан йиғилади.

**46-§.** Иш-ҳаракатнинг келаси замонда бажарилишини билдирувчи **-ар** кўшимчаси асосан шу хилда **-ар** шаклида ёзилади: *борар, келар, келтирар* каби. Шу билан бирга, баъзан **-ур** шаклида ҳам ёзилади: *борур, булур, келтирур* каби.

**47-§.** Арабча рақамлардан сўнг **-нчи** кўшимчаси ўрнига фақат чизикча (-) қўйилади: *5-модда, 6-бригада* каби. Аммо йил ва ойларни кўрсатувчи арабча рақамлардан кейин: *1987 йил, 22 сентябрь, иунингдек*, рим рақамларидан сўнг: *XX аср, XV том, X синф* каби чизикча қўйилмайди.

**48-§.** Сифат ва отларни бир-биридан фарқ қилиш учун ишлатиладиган **-ли** ва **-лик** кўшимчалари қуйидаги ўринларда ёзилади: 1) **-ли** кўшимчаси эгаликни билдирганда: *ақлли, мевали, болали, унумли*; феълдан ясалган сифатларда: *етарли, айтарли, қизиқарли, қониқарли* каби;

2) **-лик** кўшимчаси белги отларида: *ёшлик, қаритлик, оналик, болалик, яхшилик, гўзаллик* каби; вақтга муносабатни билдирганда: *беш йиллик, уч йиллик, икки ойлик, ўн ойлик, етти кунлик, шанбалик, яшианбалик* каби; ўринга муносабатни билдирганда (кичик ҳарф билан): *москвалик, лешинградлик, тошкентлик, самарқандлик, маргилонлик, андижонлик, қўқонлик, урганчлик, хивалик, бухоролик, каттақўреонлик* каби; хослик, мўлжал ва ўлчов маъноларини билдирганда: *қўйлақлик (шойи), кўрталик (сатин), беш юз граммлик (тош), йигирма беш сўмлик (пул)* каби.

**49-§.** Фамилияни билдирувчи кўшимчалар ундош билан тугаган киши отларига **-ов, -ова** шаклида: *Содиқов, Содиқова; Каримов, Каримова* каби; унли билан тугаган отларга эса **-ев, -ева** шаклида: *Хайруллаев, Хайруллаева; Алиев, Алиева* каби қўшиб ёзилади.

Киши отлари **й** билан тугаганда, унга унлидан кейин келадиغان фамилия кўшимчалари қўшилиб, от охиридаги **й** тушириб ёзилади: *Турғунбой – Турғунбоев, Турғунбоева; Николай – Николаев, Николаева* каби.

**50-§.** Таркибда **и** унлиси бўлган қуйидаги кўшимчалар, ўзак ва негизларда у ёки **ю** унлиси бўлишидан қатъи назар, ҳар вақт **и** билан ёзилади:

1) от тўпидаги сўзларни ясовчи ва турловчилар: **-чи, -истон, -ги, -ли, -лик, -шиқ, -сиз, -инчи, -нинг, -ни, -им, -инг, -и, -имиз, -ингиз** каби;

2) феъл нисбатларини ясовчи ва феъл тусловчилар: **-ил, -ин, -ини, -ир, -дир, -тир, -гиз, -киз, -гиз, -қиз, -гин, -кин, -гин, -дим, -динг, -дик, -ди, -нгиз** каби.

Аммо қуйидаги каби сўзларнинг биринчи бўғинида **у (ю)** унлисининг шиллишигига қараб, иккинчи бўғинида ҳам **у (ю)** ёзилади: *унутмоқ, тушунмоқ, сугурмоқ, югурмоқ, буюрмоқ, сугурмоқ* каби (Қаранг: 2-§.)

**51-§.** Аслида **б** товуши билан бошланадиган *боз, бон* элементлари довирги талаффузда баъзан *воз, вон* шаклида **в** билан айтилса ҳам, **б** билан

ёзилади: *сарбоз, қозғозбозлик, аризабоз, дорбоз, ишқибоз, каптарбоз, майнабозчилик, масхарабоз, дарвозабон, тарозибон, жонбоз, боғбон* каби.

Аммо *-бачча* элементи, ҳозирги талаффузга мувофиқ ҳар вақт *-вачча* шаклида ёзилади: *аммакивачча, халавачча, амनावачча* каби.

**52-§.** Сўз олдидан келган *бе-, ба-, бар-, бо-, но-* ўзидан кейин келган сўзга ҳар вақт кўшиб ёзилади: *бепул, бечиқим, бехархаша, безуноҳ; бадавлат, бамаслаҳат, баҳамжиҳат, бамисоли; баркамол, барқарор, бартараф; бовуҷуд, боодаб; ноҳақ, ножўя, номангълум, нотўғри, ножинс* каби.

**53-§.** *-банд, -бин, -бон, -бон, -боз, вачча, -ғўй, -дўст, -дўз, -манд, -намо, -нама, -параст, -парвар, -паз, -хўр, -симон, -фуруш, -хона, -шунос, хуш-, сер-, кам-* каби элементлар ўзак-негизларга кўшиб ёзилади: *занжирбанд, дарвозабон, дорбоз, томошабин, каттабин, оммабон, насихатғўй, меҳмондўст, этикдўз, ҳунарманд, камнамо, шартнома, амалпараст, халқпарвар, ошпаз, порахўр, шарсимон, мевафуруш, ишхона, тишунос, хушмуомала, ҳамсуҳбат, сергайрат, камгап* каби.

**54-§.** *-ми, -оқ, -ёқ, -гина, -кина, -қина* каби юкламалар ўзидан олдин келган сўзларга ҳар вақт кўшиб ёзилади: *келдимми?, борми?, йўқми?, ишдами?, мактабингизникими?, келибоқ, кўрибоқ, ўзиёқ, сўзиёқ, менгина, сенгина* каби.

Аммо *-чи, -ди, -а, -я, -ю, -ку, -э* юкламалари чизикча билан ажратиб ёзилади: *сен-чи?, ўзинг-чи?, борасан-да, ўзинг-а?, борасан-а?, ўзи-я?, энди-я?, борди-ю, келди-ю, айтдим-ку, эшитдинг-ку, бор-э, кўй-э* каби. Шунингдек, билан, учун сўзлари кискартирилган ҳолда *-ла, -чун* шаклида ишлатилганда, ўзидан олдин келган сўзлардан чизикча билан ажратиб ёзилади: *сен-ла, қалам-ла, сен-чун, ўзинг-чун* каби.

**55-§.** Бош қисмини такрорлаш йўли билан ясалган кучайтирма сифатлар чизикча билан ёзилади: *қип-қизил, сап-сарик, қоп-қора, ян-япалоқ, юм-юмалоқ, ям-яшил, сопта-соғ, тўпта-тўғри* каби. Аммо *оптоқ* ва *жимжит* сўзлари кўшиб ёзилади.

#### **Кўшма сўзлар ва сўз бирикмалари имлоси**

**56-§.** Кўшма сўзларнинг куйидаги типлари кўшиб ёзилади: 1) бир тушунчани ифодаловчи ва бир бош урғу билан айтиладиган кўшма отлар: *ишибай, томорқа, сихмола, кўзойнак, белбоғ, ойболта, билагузик, гулраёно, гулбеор, эчкелар, бойқуи, бойғули, оққуш, тошбақа, кўкқарға, олатўганоқ, қорашақнақ, гултожсўхурос, қарнайгул, бақатерак, каттақўрғон (узум тури), ўқилон, маккажўхори, оиқозон, кўричак, кўкйўтал, шилипоя, бедапоя, асалари, асаларичилик, қорақўлчилик* каби;

2) иккинчи компонентига сифатдош формаси *-ар* кўшилиб келган кўшма сўзлар: *отбоқар, молбоқар, бешиктереватар, ўринбосар, тезоқар, эрташиар, эрксевар, тинчликсевар* каби;

3) иккинчи қисми турдош отлардан бўлган географик номлар: *Сирдарё, Қорасув, Олтинқўл, Олтиариқ, Қўкбулоқ, Жалақудуқ, Мирзачўл, Каттақўрғон, Яккабоғ, Ҳамзаобод, Янгибозор, Ўртаовул* каби;

4) таркибида *аро, умум, бутун* сўзларидан бири бўлган қўшма сўзлар: *Визро, халқаро, оламаро, районлараро, умумшаҳар, умумхалқ, умуммиллат, дунуниттифоқ* каби.

Аммо *Умум Европа, Бутун Россия* каби иккинчи компоненти атоқли отдан иборат бўлган сўзлар ажратиб ёзилади.

**57-§.** Қўшма сўзларнинг қуйидаги типлари чизикча билан ёзилади:

1) жуфт сўзлар: *қоп-қоп, бир-бир, чопа-чопа, айрим-айрим, бориб-бориб, дон-дон, оз-моз, сал-пал, нон-пон, майда-чуйда, ора-сира, қасир-қусур, тақ-туқ, кўлдан-кўп, юзма-юз, ҳақ-ноҳақ, булар-бўлмас, тун-кун, эрта-кеч, катта-кичик, озми-кўпми, бозор-ўчар, икир-чикир, ажи-бужи, кўча-кўй, куч-қўдрат, аста-секин, маданий-маиший, тиниб-тинчиб; уч-тўрт (3-4), тилгирма-ўттиз (20-30), биласан-оласан, айтасан-қўясан; сигир-бузоқ, қозон-товоқ* каби.

**Э с л а т м а.** Бундай жуфт сўзларда *у (ю)* боғловчиси келганда чизикча қўйилмайди: *еру осмон, ору номус, туну кун, кечаю қудуз, ёшу қари, қўю қузи* каби.

2) *инженер-конструктор, чанглагич-пуркагич, грамм-атом, грамм-молекула, киловатт-соат* каби;

3) амал-унвон билдирувчи *вице-, экс-, унтер-* элементлари билан келган сўзлар: *вице-президент, экс-чемпион, унтер-офицер* каби.

**58-§.** Қуйидаги сўзлар ажратиб ёзилади: 1) таркибида қариндошлик, лақаб, касб ва бошқа хил маънодаги изоҳловчилари бўлган сўзлар: *Карим ака, Сарви хола, Исроил қассоб, Жўра темирчи, Абдуқодир найчи, Шорахлим ҳофиз, Аҳмаджон қўшинайчи, Ислом шоир, Азиз кулол, Тожибой қарнайчи* каби.

2) сифат ва атоқли отлардан тузилган географик номлар: *Юқори Чирчиқ, Ўрта Чирчиқ, Ўрта Осиё, Шимолий Кавказ, Жанубий Украина, Гирбий Европа, Кўҳна Урганч* каби;

3) икки отдан тузилган сифатлар: *дўтор бўйин (от), ҳаво ранг (гилам), бодом қовоқ (қиз), қўй кўз (бола), ёўза пўчоқ (рўмоли)* каби;

4) сифатнинг олдига айрим сўз келтириш йўли билан ясалган қўшма сифатлар: *оч пушти, тўқ қизил, тилим қора, ним пушти, лиқ тўла, жиққа ҳўл, тилим очик* каби;

5) сон ва сифатдан ясалган сифатлар: *уч элементли, уч лампали, бир хонели, икки хонали, олти бурчакли* каби;

6) икки-уч сифатдан ясалган сифатлар: *қизил байроқли, очик юзли, Юқори мартабали, қўш отли, кам ерли, тенг томонли, қизил рангли* каби;

7) изофали сўзлар: *нуқтаи назар, таржимани ҳол, ойнаи жаҳон, дарди бедово, чўли азим, қатъи назар* каби;

8) таркибли сонлар таркибидаги сўзлар: *ўн бир, ўн иккинчи, ўн уч, ўн тўрт, ўн бешинчи, ўн тўққиз, йигирма бир, ўттиз саккиз, бир минг тўққиз юз элттик олти* каби;

9) қаср сонлар таркибидаги сўзлар: *тўртдан бир (1/4), учдан икки (2/3)* каби.

10) равишдош билан бирор феълнинг бирикишидан ясалган кўшма феъллар: *кўра бошлади, ёза бошлади, бора қол, шилай қолади, кўшиб чиқ, кўриб чиқди, айтиб юборди* каби.

Аммо биринчи қисми *а* билан тутаган ва иккинчи қисми *о* билан бошланган феълларда *а* унлиси тушиб қолганда, кўшиб ёзилади: *боролади, келолмайди, ёзолмайди, кўролмайди* каби;

11) *эди, экан, эмиш, эмас* каби феъл+тўлиқсиз феъл типигаги сўзлар: *борган эди, борган экан, борган эмиш, борган эмас* каби;

Аммо бундай феълларнинг иккинчи қисми бошидаги *э* унлиси тушиб қолганда, ҳар иккала қисми кўшиб ёзилади: *борарди, бораркан, борармиш, борганмас* каби;

12) бирикмалли хусусиятини сақлаган сўзлар: *Совет Армияси, қишлоқ хўжалик, байрам олои, май олои, сайлов олди, тил олди, тил орқа, иш ҳақи, иш кунн, сўз боиш, темир йўлчи, тош йўл, осма кўприк* каби;

13) *от, сифат, сон, олмош* ва равишдан олдин келадиган *ҳар, ҳеч, ҳамма, баъзи, гайри, бир* каби қисимлар: *ҳар вақт, ҳар замон, ҳар қачон, ҳар бир, ҳар доим, ҳар сафар, ҳар маҳал, ҳар кун, ҳар он, ҳеч бир, ҳеч қандай, ҳеч ким, ҳеч нарса, ҳеч нима, ҳеч вақт, ҳеч қачон, ҳамма вақт, баъзи бир, гайри табиий, бир йўла* каби. Шунингдек, *у ерда, бу ерда, шу ерда; у ёқдан, бу ёқдан, шу ёқдан* каби бирикмалар.

Аммо *биратўла, бирваракайига* сўзлари, шунингдек, *алла, қай* элементлари билан келган сўзлар кўшиб ёзилади: *аллаким, аллақандай, қайвақт* каби;

14) иккинчи қисми *е, ё, ю, я* билан бошланган сўзлар: *кўп ер, оз ер, кам ерли, муз ёрар, иш ёқмас, қўл ёзма, шер юрак, Умум Европа* каби.

### **Бўгин кўчирилиши**

**59-§.** Ёзувда сўз бир йўлга сиғмай қолганда бошқа йўлга унинг бўгини кўчирилади: *ба-ланд, синг-лим, конс-титущия ёки конститу-ция, транс-форматор ёки трансфор-матор ёхуд трансформа-тор* каби.

Аммо сўзнинг бош ёки охириги бўгини бир унлидан иборат бўлса, бу унли олдинги йўлда қолдирилмайди ёки кейинги йўлга кўчирилмайди. Бу хил бўгинлар олдинги ёки кейинги бўгинга кўшиб кўчирилади: *о-паси эмас, опа-си, мудоофа-а эмас, мудо-фаа, манба-и эмас, ман-баи, конституци-я эмас, конститу-ция* каби.

**60-§.** Ажратилмай айтиладиган бир товушни кўрсатувчи *нг* ва *шч* ҳарфлари ажратилмай кўчирилади: *си-нгил, кў-нгил, сўнг-ра, тонг-ди; ме-ишан, поме-ишчк* каби.

**61-§.** Айириш, юмшатиш белгилари бўлган сўзларнинг бўгинлари кейинги йўлга кўчирилганда, бу белгилар биринчи йўлда қолдирилади: *подъ-езд, разъ-езд, даъ-во, суръ-ат, суль-фат* каби.

**62-§.** Сўзларнинг биринчи ҳарфларидан тузилган *СССР, УССР, РСФСР* каби қисқартма отлар ва *16, 245, 2894, XXXV* каби кўп хонали рақамлар кейинги йўлга бўлиб кўчирилмайди.

### Бош ҳарфларнинг ёзилиши

**63-§.** Ҳар бир абзац, ҳар бир гап ва шеърларнинг ҳар қайси мисраси бош ҳарф билан ёзилади.

**64-§.** Атокли отлар бош ҳарф билан бошланади: *Алишер Навоий, Максим Горький, Ҳамид Олимжон, Москва, Ўзбекистон, Волга, Казбек* каби.

**Эслатма:** Атокли отлардан ясалган илмий тушунча ва сиёсий оқимни кўрсатувчи сўзлар, шунингдек, турдош отга айланган ва жамликни билдирувчи ҳамда аниқловчи вазифасида келган атокли отлар кичик ҳарф билан ёзилади: *марксизм, дарвинизм: ватт, ампер, маузер; чкаловлар, фирҳодлар; навроқий* (чигит), *муслимка* (буғдой), *наполеон* (пирожний), *лейден* (банка) каби. Аммо *Ньютон қонуни, Яблочков лампочкаси, Ильич чироқлари* каби бирикмалар таркибидаги атокли отлар бош ҳарф билан ёзилади.

**65-§.** Планета ва юлдузларнинг номлари бош ҳарф билан бошланади: *Юпитер, Миррих, Марс, Ҳулкар* каби. Аммо *кўёш, ер, ой* сўзлари планета маъносида қўлланилгандагина бош ҳарф билан бошланади.

**66-§.** Иттифоқ, миллий ва автоном республикаларнинг олий давлат ва юкори партия органлари ҳамда ташкилотларнинг отлари таркибидаги ҳар бир сўз бош ҳарф билан бошланади: *СССР Олий Совети, Ўзбекистон ССР Олий Совети, Иттифоқ Совети, Миллатлар Совети, СССР Олий Советининг Президиуми, КПСС Марказий Комитети, Бутуниттифоқ ленинчи Коммунистик Ёшлар Союзи, Касаба Союзларининг Бутуниттифоқ Совети* каби.

Аммо давлат идоралари номларининг биринчи сўзигина бош ҳарф билан бошланади: *Давлат банки, Граждани ҳаво флоти* каби.

**67-§.** Олий давлат мансабини билдирувчи номлар, шунингдек олий фахрий унвоннинг ҳар бир сўзи бош ҳарф билан бошланади: *СССР Министрлар Советининг Раиси, СССР Олий Советининг Раиси, Ўзбекистон ССР Олий Совети Президиумининг Раиси, Олий Бош Қўмондон, СССР Прокурори, Совет Иттифоқи Маршали, Совет Иттифоқи Қаҳрамони, Социалистик Меҳнат Қаҳрамони* каби.

**68-§.** Иттифоқдош ва автоном республикаларнинг номлари таркибидаги ҳар бир сўз бош ҳарф билан бошланади: *Ўзбекистон Совет Социалистик Республикаси, Қорақалпоғистон Автоном Совет Социалистик Республикаси* каби.

Ўлка, автоном область, область ва районларга аталиб қўйилган отлар ҳам бош ҳарф билан бошланади: *Краснодир ўлкаси, Хаккасия автоном области, Тошкент области, Гулистон райони* каби.

**69-§.** Муҳим расмий ҳужжатлар ва йиғилишларининг номларини билдирувчи ҳар бир сўз бош ҳарф билан бошланади: *СССР Конституцияси, Стокгольм Мурожаати, Қрим Конференцияси, Умум Европа Кенгаши, Москва Кенгаши* каби.

**70-§.** Академиялар, институтлар, илмий-текшириш муассасалари, музейлар, трестлар, завод, фабрика, колхоз, совхозлар, жамият, корхона,

шахта, маданият ва истироҳат боғларининг, театр ва кинотеатр, китоб, газета, журнал ва бошқаларнинг нимлари бош ҳарф билан бошланади: “*Ўртоқ фабрикаси*”, “*Қизил тўқимачи*” станцияси, “*Қизил қаҳрамон*” колхози, “*Боёвут*” совхози, “*Ватан*” кинотеатри, СССР Халқлари музейи, Самарқанд Давлат университети, Китоб палатаси, Болалар театри, Ботаника институти, Тил ва адабиёт институти, Лениннинг “*Нима қилмоқ керак?*” асари, Чайковскийнинг “*Пиковая дама*” операси, Ҳамид Олимжоннинг “*Бахтлар водийси*” поэмаси, Ойбекнинг “*Қутлуғ қон*” романи, Абдулла Қаҳҳорнинг “*Шоҳи сўзана*” пьесаси, “*Ўқитувчилар газетаси*”, “*Шарқ юлдузи*” журнали каби.

Бундай отлар олдида аниқловчилари бўлса ҳам, улардаги бош ҳарф ўз ўрнида сакланади: СССР Халқлари музейи, Андижон область Давлат театри каби.

**71-§.** Мухим тарихий воқеа ва байрамларнинг номи бош ҳарф билан бошланади: *Тўққизинчи январь воқеаси, Октябрь социалистик революцияси, Матбуот куни, Конституция куни* каби.

**72-§.** Расмий муносабатларда бир томон иккинчи томонга алоҳида ҳурмат билдирганда сиз, ўзингиз олмошларининг биринчи ҳарфи бош ҳарф билан ёзилади: *Сиз, Ўзингиз* каби.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Rus grafikasiga asoslangan o'zbek alifbosi qachon qabul qilindi?
2. Rus grafikasiga asoslangan o'zbek yozuvining imlo qoidalari qachon tasdiqlandi?
3. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi grafik tavsifi nimalardan iborat?
4. O'zak-negiz va qo'shimchalar imlosida nimalarga e'tibor qaratilgan?
5. Qo'shma so'z va so'z birikmalari imlosi haqida ma'lumot bering.
6. Bo'g'in ko'chirish imlosida nimalarga e'tibor qaratilgan?
7. Bosh harflar imlosi haqida ma'lumot bering.

#### **Adabiyotlar:**

1. Eltazarov J. O'zbekistonda 20-asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixidan (sotsiolingvistik tahlil). – Toshkent, 2006-y
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. – Toshkent, 1999.
3. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2013.
4. Abdullayev Y. Sovg'a. – Toshkent, 1996.
5. Жамолхонов Х., Сапаев Қ. Имло муаммолари. – Toshkent, 2007.
6. Ўзбек орфографиясининг асосий қоидалари. – Toshkent, 1956.
7. Mirtojiev M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2004.



#### 4-Mavzu: Lotin-o'zbek alifbosiga asoslangan yozuvning grafik tavsifi

##### Reja:

- 1 Lotin-o'zbek alifbosi tarkibi
- 2 Alifboning grafik tavsifi
- 3 Har ikki alifbodagi farqli jihatlar

**Tayanch tushunchalar:** lotin yozuvi, alifbo tarkibi, yolashgan unlilar, harflar birikmasi, tutuq belgisi, ayirish va yumshatish belgisi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, 1993-yil 2-sentabrda o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 2-sentabrdagi o'n uchinchi sessiyasida "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi va 31 harf hamda bir tutuq belgisidan iborat alifbo joriy etildi. Oradan ko'p vaqt o'tmay bu alifboning ayrim harflarini zamonaviy texnika vositalarida aks ettirishda qiyinchiliklar mavjudligi hisobga olinib, 1995-yil may oyida alifboga qo'shimcha va o'zgarishlar kiritildi. Unga muvofiq yangi alifbo 26 harf va 3 harflar birikmasidan iborat etib tasdiqlandi. Tutuq belgisi imlo qoidalari doirasida o'rganiladigan bo'ldi.

"Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida mamlakat parlamenti qabul qilgan qarorda bu qonunni bosqichma-bosqich hayotga joriy qilish hamda bu ishni 2000-yil 1-sentabrga qadar to'liq tugallash ko'zda tutilgan edi. Ammo hayot bu qarorga o'z tuzatishini kiritdi, 1999-yilda qonunni to'la kuchga kiritish muhlati 2005-yil, 2004-yilda esa so'nggi muhlat sifatida 2010-yil etib belgilandi.

Mazkur qonun qabul qilinganidan keyin 1995-yilda lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbosiga juz'iy o'zgartirishlar kiritildi. Alfavitdagi harflar miqdorini ixchamlashtirish, bu yozuvdagi nashr-matbaa ishlarini osonlashtirish hamda harflarning shakliyl tarafklarini axborot texnologiyalarida qulay qo'llanishiga erishish uchun sanoqli so'zlar tarkibidagina qo'llanuvchi **C c (u), J j (j - ajdod)** harflari alifbo tarkibidan butunlay chiqarib tashlandi. **Ç ç, Ş ş, Ñ ñ** harflarining shakli **Ch ch, Sh sh, Ng ng** tarzida o'zgartirildi.

Ma'lumki, qadimgi Rimda paydo bo'lib, milloddan oldingi davrlarda o'z takomiliga erishgan lotin alifbosidan hozirgi paytda dunyoning 70 dan ortiq mamlakatlarida foydalanilmoqda. Bu mamlakatlarning 30 dan ortig'i Yevropada, 20 dan ziyodi Osiyoda, qolgan 20 dan ortig'i Afrika hamda Amerika qit'alarida joylashgan. Yangi o'zbek alifbosi umumiy savodxonligimizning oshishiga, imlo qoidalari bilan talaffuz me'yorlari o'rtasida jiddiy farqlar bo'lmasligiga ko'maklashadi, O'zbekistonda va xorijda o'zbek tilini o'rganayotgan chet el fuqarolariga ularning yozuviga shakliyl yaqinligi bilan qo'l keladi, zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan to'g'ridan-to'g'ri bahramand bo'lishimizga yordam beradi. O'zbek xalqining dunyo hamjamiyatiga, jahon kommunikatsiya tizimiga dadil kirib borishiga, yagona yozuv tizimiga o'tayotgan qardosh xalqlar bilan yanada

yaqinlashuviga hamda iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarda olib borilayotgan aloqalarni yanada mustahkamlanishga xizmat qiladi.

Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosida unli va undosh tovushlarni ifodalash uchun, yuqorida aytib o'tilganidek, 26 harf va 3 ta harflar birlashtiriladi. Yangi alifbo tartibi quyidagicha: **Aa, Bb, Dd, Ee, Ff, Gg, Hh, Ii, Jj, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Pp, Qq, Rr, Ss, Tt, Uu, Vv, Xx, Yy, Zz, O'o', G'g', Sh sh, Ch ch, Ng ng.**

Ko'rinadiki, yangi alifbomiz kirill yozuviga asoslangan alifbodan tartib jihatidan ham, tarkib jihatidan ham, sifat jihatidan ham farq qiladi. Yangi alifbodagi **a, k, o, x** kabi harflar kirill alifbosidagi shu tovushlarni ifodalovchi harflarga o'xshaydi. **B, e, r** kabi harflar esa kirill alifbosidagi harflarga o'xshaydi. **M, T** harflarining katta bosma shakli ham ikki alifboda bir-biriga o'xshash bo'lsa, **d** harfining yozma katta shaklida ham har ikki alifboda farq yo'q. Bulardan tashqari, yangi alifbodagi **f, g, h, n, t, i, u, g'** kabi harflarining yo bosma shakli, yoki yozma shaklida o'xshashliklar mavjud. Amaldagi va yangi alifbomizdagi bunday o'xshashliklarning savod chiqaruvchilar uchun qulaylik va ayrim qiyinchiliklari bor. Qulayligi shundaki, o'rganuvchilarga avvaldan tanish harflarni o'zlashtirish oson bo'ladi. Noqulayligi shundaki, shakl va tovush ifodalashda to'liq o'xshash bo'lgan harflardan farqli o'laroq, shaklan o'xshash bo'lib, talaffuzida farqli harflarni o'rganib, to'g'ri talaffuz qilish uchun ma'lum ko'nikma hosil qilish talab etiladi. Yangi alifbodagi **i, j, l, q, s, v, z** harflari hamda **ng, sh, ch** harflar birlashtirilishi ham biror bir g'arb tilidan xabardor kishi uchun unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi.

Yangi (lotin) o'zbek yozuvida o'zbek tilining 6 ta unli fonemasi 6 ta grafema vositasida ifodalanadi: *i, e, u, o', o* kabi. Kirill yozuvidagi **е, ё, ю, я, u** harflarining lotin alifbosiga kiritilmaganligi o'zbek tilida shunday tovushlarning yo'qligi bilan izohlanadi. Shuningdek, yumshatish (**ь**) belgisi so'zlar ham o'zbek tilida mavjud emas. Mavjudlari esa rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlardir. Barcha tillarda boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar shu tilning grammatik qonun-qoidalariga bo'ysundiriladi. Shunga ko'ra, o'zbek tiliga ham boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar uning qonun-qoidalariga bo'ysundirilishi, talaffuz me'yorlariga moslantirilishi yangi imlo qoidalarimizda muhim o'rin tutadi.

Tutuq (**'**) belgisi alifboga kiritilmadi. Chunki u tovush ifodalamaydi. Tutuq belgisi imlo qoidalari doirasida o'rganiladi. U o'zlashgan so'zlardagi unlining cho'ziqroq yo undoshdan ajratib talaffuz etish uchun qo'llaniladi.

O'zbek kirill alifbosidagi ayrim harf va belgilar o'zbek lotin alifbosida quyidagicha aks ettiriladi;

1. **ё, ю, я** harflari o'miga qaysi harflarni yozish ular bajaradigan vazifaga bog'liq:

1) ikki tovushni (**y + unli**) ifodalashga xizmat qilsa, **yu, yu, ya** harflari yoziladi; **ёмфир – yomg'ir, заём – zayom; ютық – yutuq, юрист – yurist; яхши – yaxshi, ядро – yadro** kabi;

2) o'zidan oldin kelgan undoshning yumshoq ekanini ko'rsatishga xizmat qilsa, ikki xil:

a) asosan bir harf: **ë** harfi o'miga **o** harfi, **ю** harfi o'miga **u** harfi, **я** harfi o'miga **a** harfi yoziladi: *стажёр* – *stajor*, *бюджет* – *budget*, *флага* – *flaga* kabi;

b) so'zning talaffuzi keskin o'zgarib ketmashgi uchun qisman **ë** harfi o'miga **yo** harflari, **ю** harfi o'miga **yu** harflari, **я** harfi o'miga **ya** harflari yoziladi: *пленка* – *plyonka*, *бюрократ* – *byurokrat*, *славян* – *slavyan* kabi.

Demak, **ë**, **ю**, **я** harflari o'zidan oldin kelgan undoshning yumshoqligini ko'rsatish uchun xizmat qilsa, o'zbek lotin alifbosida ikki xil aks ettiriladi. Qachon bir harf va qachon ikki harf yozishni qoidalashtirib bo'lmaydi, shu sababli bunday harf qatnashgan so'zning to'g'ri yozilishi "Imlo lug'ati"da aks ettiriladi.

"O'zbek tilining qisqacha imlo lug'ati"ga (O'zFA nashriyoti, 1962) kiritilgan so'zlarning 41 tasida **ë** harfi shunday vazifada kelgan. Ana shu so'zlarning 17 tasida **ë** harfi o'miga **o** harfini yozish yetarli: *dirijor*, *likor*, *schotchik*, *uchot* kabi. Quyidagi singari ayrim so'zlarda esa **ë** harfi o'miga **yo** harflari yoziladi: *актыор*, *dublyor*, *transporyor*, *baksyor*, *montyor*, *partnyor*, *vertolyot*, *pulemyot* kabi<sup>8</sup>.

### 2. Ё belgisi:

1) undosh tovushning yumshoqligini ko'rsatsa, yozilmaydi: *альбом* – *albom*, *апрель* – *aprel* kabi;

2) ayirish belgisi vazifasini bajarsa, ikki xil:

a) **ю**, **я**, **е** harflaridan oldin kelganida tushirilib, harf o'miga **yu**, **ya**, **ye** harflari yoziladi: *интервью* – *intervyu*, *фортепьяно* – *fortepyanо*, *преьера* – *preyera* kabi;

b) **о**, **и** harflaridan oldin kelganida belgi o'miga **y** harfi yoziladi: *навильон* – *ravilyon*, *Ильин* – *Ilyin* kabi.

### 3. Ы belgisi:

1) rus tilidan olingan so'zlarda tashlanib, undan keyin kelgan **е**, **ю** harflari o'miga **ye**, **yu** harflari yoziladi: *разъезд* – *razyezd*, *адъютант* – *adyutant* kabi;

2) arab tilidan olingan so'zlarda bu belgi tutuq belgisiga almashtiriladi: *маъно* – *ma'no*, *санъат* – *san'at* kabi.

4. **ц** harfi o'miga:

1) so'z oxirida, so'z boshida, old qo'shimchadan keyin, undoshdan keyin **s** harfi yoziladi: *кварц* – *kvars*, *целлофан* – *sellofan*, *антициклон* – *antisiklon*, *конструкция* – *konstruksiya* kabi.

2) so'zning ma'noli qismi ichida unlidan keyin **ts** yoziladi: *глицерин* – *glitserin*, *конституция* – *konstitutsiya* kabi.

5. **Щ** harfi o'miga **sh** yoziladi: *община* – *obshina*, *ямщик* – *yamshik* kabi (faqat *мецан* so'zida ikkita **sh** yoziladi: *meshshan*);

6. **Ы** harfi o'miga **i** yoziladi: *вимпел* – *vimpel*, *вишка* – *vishka* kabi.

Imlo qoidalarini yaxshi bilish yozma nutq mazmunini to'g'ri va aniq idrok qilishga yordam beradi.

### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

- 1) Lotin-o'zbek alifbosi tarkibi nechta harfdan iborat?
- 2) Dastlabki va isloh qilingan alifboning farqlari nimada?

<sup>8</sup> Kakhnatullayev Sh. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. – Toshkent, 1999, 16-b.

3. Alifbodagi harflarni grafik tavsiflab bering.
4. Kirill va lotin alifbolaridagi farqli jihatlar nimadan iborat?

#### A d a b i y o t l a r :

1. O'zbek tilining imlo qoidalari. – Toshkent, 1995.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. – Toshkent, 1999.
3. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2013.

#### 5-Mavzu: Orfografiya, uning asosiy prinsiplari, bunday prinsiplarning imlo qoidalarini belgilashdagi ahamiyati

##### Reja:

1. Orfografiya va uning o'rganish obyekti.
2. Fonetik prinsip
3. Fonematik prinsip
4. Morfologik prinsip
5. Tarixiy-an'anaviy prinsip
6. Grafik prinsip
7. Differentsiatsiya prinsipi (simvolik prinsip).
8. Shakliyan'an'anaviy va semantik-uslubiy prinsiplar.

**Tayanch tushunchalar:** Orfografiya, orfoepiya, tamoyil, fonetik tamoyil, morfologik tamoyil, tarixiy-an'anaviy tamoyil, differentsiallash tamoyili, etimologik (grafik yoki shakliy) tamoyil.

Orfografiya so'zi yunon (grek) tilidan olingan bo'lib, "to'g'ri yozish" degan ma'noni anglatadi. Orfografiya atamasi zamonaviy tilshunoslikda ikki ma'noda qo'llaniladi: 1. Yozuvda so'z va so'z qismlarining to'g'ri yozilishini ta'minlaydigan qoidalar tizimi. 2. Tilshunoslikning yozma nutq qoidalarini tizimini organuvchi bo'lim.

O'zbek tilshunosligida orfografiyaning dastlabki tadqiq M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asariga borib taqaladi. M. Koshg'ariydan keyin ulug' shoir va mutafakkir bobomiz A.Navoiy o'zining "Muhokamatul-lug'atayn" asarida bu sohaga oid nodir fikrlarni bayon etgan. Imlo masalalari qadimda qisman husnixat, til va adabiyot darolarida o'rgatilgan bo'lsa-da, bu borada qat'iy qoidalar tizimi, tamoyillar ishlab chiqilmagan. Bu soha bilan ko'proq shoirlar, xattotlar va hujjatlar tayyorlovchi mirzolar yo'l-yo'lakay shug'ullanganlar.

Imlo qoidalariga talab kitoblarini ko'plab nashr etish, gazeta va jumallarning paydo bo'lishi bilan kuchaydi. O'zbek tili orfografiyasi XIX asr oxiri XX asming boshlariga kelib avval arab alifbosi, keyinroq lotin alifbosi va yana keyinroq kirill yozuvi asosidagi o'zbek alifbosi bilan bo'g'liq imlo qoidalarining ishlab chiqilishi bilan takomillashib bordi.

Ma'lumki, tilda mavjud tovushlar bilan alifbodagi harflar miqdor va sifat jihatidan teng emas. Mana shu hol talaffuz va yozuvda o'zgachalik bo'lishiga olib

keladi. Bu esa o'z navbatida orfografiya – imlo qoidalariga katta ehtiyoj tug'diradi. Ma'lum professor X.D. Doniyorov o'z vaqtida o'zbek tili orfografiyasi to'g'risida shunday yozgan edi: "...o'zbek orfografiyasida hali anchagina kamchiliklar va ba'zi chalkashliklar uchraydi. Bularga sabab bir tomondan, o'zbek alfavitida yo'l qo'yilgan kamchiliklar bo'lsa, ikkinchidan, orfografiyaning o'z prinsiplarining, asosan, uning fonetik prinsipining va qo'shma so'zlar imlosining bo'sh qoldirilganligidadir. Orfoepiyaning ishlanmaganligi ham o'z navbatida orfografiyada aks etadi"<sup>9</sup>.

Orfografiya adabiy tilning yozma shakli uchun xos bo'lib, so'zning asosi, unga qo'shiladigan qo'shimchalar, sodda, qo'shma, juft, takroriy so'zlarning qaytarida yozilishi, kichik va bosh harflar, ularning ishlatilish o'rinlari, so'zlarning bo'g'inlarga bo'linishi va ko'chirilishi, qisqartma va ularning yozilish kabi qoidalarini o'rganadi.

Orfografiya orfoepiya bilan ham uzviy bo'g'liqdir. Chunki nutq og'zaki va yozma turlarga bo'linadi. Og'zaki nutq ba'zan yozma nutq bilan mos kelsa, ko'pgina hollarda farq qiladi. Mana shu umumiylik va farqli jihatlarni yaxshi o'zlashtirgan kishi adabiy til imkoniyatlaridan keng foydalanib, yozma nutqida imloviy, uslubiy va ishoraviy xatoliklarga imkon qadar yo'l qo'ymaydi. Masalan: talaffuzda *ayttir* va yozuvda ham shunday, talaffuzda *ishtan*, ammo yozuvda *ishlan*, talaffuzda *kurakka* va yozuvda ham shunday, talaffuzda *borayapman*, ammo yozuvda *boryapman* va h.k. So'zlarning mana shunday talaffuz etilishi va talicha yozilishi tilshunoslikda ma'lum tamoyillar va qoidalar asosida amalga oshiriladi.

Orfografiya prinsiplari imlo qoidalarining tuzilishiga asos bo'lgan tamoyillardir. Orfografiyaning fonetik, fonematik, morfologik, tarixiy-an'anaviy, differentsiatsiya, shakliy-an'anaviy kabi tamoyillariga tayanilgan holda so'zlar va so'z shakllarini to'g'ri yozish qoidalashtiriladi.

**Fonetik prinsip (tamoyil) – so'zlarni asli qanday bo'lishidan qat'i nazar talaffuziga ko'ra yozish tamoyilidir.** Bu tamoyilga asosan so'zning talaffuz etilishida yuz bergan fonetik o'zgarishlar hisobga olinadi. Bunday o'zgarishlarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. **Jo'nalish kelishi** qo'shimchasining **k, q** undoshlari bilan tugagan so'zlarga qo'shilishi bilan bo'ladigan fonetik o'zgarishlar: *eshik-ka, terak-ka, ulpax-ka, kurak-ka, qishloq-qa, qirg'oq-qa, huquq-qa* kabi.

2. **Ayrim otlarga egalik qo'shimchasi** qo'shilishi natijasida yuz beradigan fonetik o'zgarishlar: *og'iz – og'zi, ko'ngil – ko'ngli, burun – burni, shahar – shahri, qorin – qorni, bo'g'iz – bo'g'zi, bo'yin – bo'yini* kabi.

3. **Asosi k, q undoshlari bilan tugagan so'zlarga egalik qo'shimchasi** qo'shilishi bilan yuz beradigan fonetik o'zgarishlar: *bilak – bilagi, yurak – yuragi, qarmoq – qarmog'i, qoshig – qoshig'i, qo'shiq – qo'shig'i* (ammo bu qoidalarga *ork, idrok, ishtirok, ko'rk, ishq, haq, huquq, farq, turq* kabi sozlar bo'ysunmaydi).

<sup>9</sup> Shoahdulatmonov Sh. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism. – T., 1990, 88-b.

4. Ayrim soʻzlardan feʼl yasalganda: *ulgʻ* – *ulgʻay*, *oʻyin* – *oʻyna*, *ong* – *angla* kabi.

5. Unli bilan tugagan sonlarga *-ov*, *-ovlon*, *-ala* qoʻshimchalarini qoʻshganda: *ikki* – *ikkov*, *ikkovlon*, *ikkala*, *olti* – *oltov*, *oltovlon*, *yetti* – *yettov*, *yettovlon* kabi.

6. Asosi *-a*, *-i* bilan tugagan soʻzlarga *-v*, *-q*, *-qi* qoʻshimchalari qoʻshilib soʻz yasalganda: *son* – *sana* – *sanoq*, *boʻya* – *q* – *boʻyoq*, *sayla* – *v*, *saylov*, *tanla* – *v* – *tanlov*, *oʻqi* – *v* – *oʻquv*, *tirna* – *q* – *tirnoq*, *qayna* – *q*, *qaynoq*, *oʻyna* – *qi* – *oʻynoqi* kabi.

7. Ayrim koʻmakchi feʼli soʻz qoʻshilmalari, toʻliqsiz feʼli soʻz qoʻshilmalari talaffuziga koʻra qoʻshib yoziladi: *boroladi* (*bora oladi*), *olaveradi* (*ola beradi*), *borardi* (*borar edi*), *borarkan* (*borar ekan*), *borarmish* (*borar emish*) kabi.

Orfografiyaning fonetik prinsipi yozuv bilan talaffuzni bir-biriga yaqinlashtiradi va imlo qoidalarining oʻzlashtirilishini ham osonlashtiradi.

**Fonematik prinsip** – harflaming (yoki grafemalarning) soʻz tarkibidagi fonemalarga moslab tanlanishidir. Chunonchi, *kitob*, *omad* soʻzlarining oxiridagi **b** va **d** fonemalari jarangsiz **p** (*kitop*) va jarangsiz **t** (*omat*) tarzida talaffuz qilinsa-da, fonemaning asosiy ottenkasiga mos ravishda **b** (*kitob*) va **d** (*omad*) harflari bilan yoziladi.

Oʻzbek tilshunosligida “fonematik prinsip” tushunchasi XX asrning oxirrogʻida qoʻllana boshlandi, bungacha u morfologik prinsip bilan bir hodisa sifatida izohlanib kelingan.<sup>10</sup>

**Morfologik prinsip** – soʻzlarni qanday talaffuz etilishidan qatʼi nazar asliga koʻra, qoidaga binoan yozish tamoyilidir. Bu tamoyilga binoan soʻzlarning talaffuzi bilan yozilishi bir-biriga mos kelmaydi. Masalan: *maktabga* (yozuvda) – *maktapka* (talaffuzda), *aytgan* (yozuvda) – *aytkan* (talaffuzda), *ishga* (yozuvda) – *ishka* (talaffuzda) kabi.

Qoʻshma soʻzlar, juft soʻzlar (*koʻm-koʻk*, *qip-qizil* kabi sifatlar, *har vaqt* kabi) oʻzbek tili orfografiyasining morfologik tamoyiliga binoan yoziladi.

**Tarixiy-anʼanaviy prinsip** – soʻzlarni yoki soʻz shakllarini qadimdan odat boʻlib qolgan shaklda yoki anʼanaga mos shaklda yozish qoidasidir. Sodda qilib aytganda, bu tamoyilga binoan soʻzlar hozirgi holatiga koʻra emas, yozma nutqda anʼanaga aylangan qoidalarga asosan yoziladi:

*Bas, yetar, cholgʻuvchi, bas qil sozingni.*

*Bas, yetar koʻksingga urmagil hanjar...* (A. Oripov)

Bu tamoyilga asosan maqsad ravishdoshi *-gani* oʻmida *-gali*, *-gʻali*, *-qali*, *-kali*, hozirgi-kelasi zamon sifatdoshi *-r*, *-ar* oʻmida *-ur*, chiqish kelishigi *-dan* shakli *-din*, soʻroq yuklamasi *-mi* oʻmida *-mu* shaklida, sifatdoshning *-gan* shakli oʻmida *-gʻon*, qoʻshimchalari qoʻllaniladi.

**Shakliy-anʼanaviy (grafik) prinsip.** Bu tamoyil oʻzlashma soʻzlarning asosiy shakliga (u tilda qanday boʻlsa, oʻzbek tilida ham shunday yozilishi) muvofiq yozilishini nazarda tutadi. Maʼlumki, sof oʻzbekcha soʻz boshida ikki

<sup>10</sup> Жамолхонов Х., Сапиев К. Иллюстрация. – Ташкент, 2017. 172-б.

undosh tovush, soʻz oʻrtasida ikki unli tovush qator qoʻllanmagan. Oʻzlashgan soʻzlarda bunday hol koʻp uchraydi: *shturm, drama, stol, prokuror, traktor, zoologiya, biologiya, fikr, zikr, aql, mashq* kabi.

**Differensiatsiya prinsipi.** Bu prinsip asosida tuzilgan imlo qoidalariga koʻra shakli bir xil boʻlgan (omonim) yoki bir-biriga yaqin boʻlgan (paronim) soʻzlar yozuvda diakritik belgilarni ishlatish orqali farqlanadi: *átlas* (geografiya) – *atlás* (mato), *hózir* (ravish) – *hozir* (sifat), *tana* – *ta'na*, *davo* – *da vo*.

#### **Semantik-uslubiy prinsip:**

a) *semantik prinsip* soʻz yoki soʻz shakllarining imlosini ularning maʼnolariga tayanib belgilaydi. Masalan, *lola, po'lat* (turdosh otlar) – *Lola, Po'lat* (atoqli otlar), *ishchi* (“-chi” – kasb oti yasovchi) + *ish-chi?* (“-chi” – soʻroq yuklamasi), *senda* (“-da” – oʻrin-payt kelishigi affiksi) – *sen-da!* (“-da” – kuchaytiruv va taʼkid yuklamasi) kabi;

b) *uslubiy prinsip* asosida tuzilgan imlo qoidalarini soʻz yoki grammatik shakllarning semantik tarkibidagi uslubiy semalarning nutqdagi faollashuvini yozuvda ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, *ota, ona, vatan, siz, o'zingiz* kabi soʻzlar yoki grammatik shakllar shu soʻzlar (shakllar) orqali ifodalangan shaxslarga yoki tugʻilib oʻsgan yurtga, diyorga alohida *hurmat-e'tibor* bildirilganda bosh harf bilan yoziladi: *Ota, Vatan, Ona, Siz, O'zingiz* kabi. Shuningdek, gap ichida *tinchlik, ozodlik, mehnat, baxt* kabi soʻzlarning baʼzan bosh harf bilan boshlanishi ham uslubiy prinsip talablaridan kelib chiqadi. Masalan, *Yashasin (Ozodlik, Tinchlik* kabi<sup>11</sup>.

Bundan tashqari, baʼzi adabiyotlarda grafik, sintaktik prinsiplar haqida ham maʼlumotlar uchraydi<sup>12</sup>.

Oʻzbek tili orfografiyasida fonetik, fonematik va morfologik tamoyillar yetakchi oʻrin tutadi. Orfografiya tamoyillari, imlo qoidalarini mukammal oʻrganish adabiy tilning imkoniyatlaridan imkon qadar toʻliq foydalanishga, yozma nutqda ham ogʻzaki nutqdagi kabi ravon va toʻgʻri fikr ifodalashga, imloviy, uslubiy, ishoraviy xatolarning oldini olishga yordam beradi.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Orfografiya nimani oʻrganadi?
2. Orfografiyaning qanday tamoyillari mavjud?
3. Qanday turdagi soʻzlar fonetik tamoyillar asosida yoziladi?
4. Morfologik tamoyilning mohiyati nimadan iborat?
5. Qanday soʻzlar, soʻz shakllari va qoʻshimchalar morfologik tamoyil asosida yoziladi?
6. Tarixiy-anaʼnaviy tamoyilning oʻziga xos tomoni nimadan iborat?
7. Qanday qoʻshimchalarni olgan soʻzlar tarixiy-anaʼnaviy tamoyilga koʻra yoziladi?
8. Differensiatsiya tamoyiliga binoan soʻz va qoʻshimchalarning qaysi jihatlari farqlanadi?

<sup>11</sup> Jamolxonov H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent, 2013, 181-b.

<sup>12</sup> Jamolxonov H. Koʻrsatilgan asar. 177-181 b.

9. Shakliy-an'anaviy tamoyilga ko'ra qanday so'zlar yoziladi?

#### Adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2013.
2. Жамолхонов Х., Сапаев Қ. Имло муаммолари. – Toshkent, 2007.
3. Mirtojiev M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2004.
4. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009.
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent, 2006.

6-Mavzu: **Yangi o'zbek yozuvi imlo qoidasining mazmuniy tavsifi**

#### Reja:

1. Imlo qoidasining umumiy tavsifi
2. Harflar imlosi
3. Asos va qo'shimchalar imlosi
4. Qo'shib yozish
5. Chiziqcha bilan yozish
6. Ajratib yozish
7. Bosh harflar imlosi
8. Ko'chirish qoidalari

**Tayanch tushunchalar:** qo'shib yozish, takror so'z, ajratib yozish, ko'makchi fe'l, chiziqcha bilan yozish, kuchaytirma sifat, qo'shma ot, izofali birikma, qo'shma sifat, yuklamalar, qo'shma fe'l, tartib son, murakkab son, arab raqami, juft son, rim raqami, bosh harflar imlosi, ko'chirish qoidalari.

1995-yilning 24-avgustida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-sonli qarori bilan lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvining asosiy imlo qoidalari tasdiqlandi.

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

1995-yil 24-avgust

339-son

Toshkent shahri

#### O'ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARINI TASDIQLASH HAQIDA

O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonunini bajarish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlansin (ilova qilinadi).
2. Respublika vazirliklari, idoralari, mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari, ommaviy axborot vositalari lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosidagi barcha turdagi yozishmalarda, matbuotda, ish yuritishda ushbu



qoidalarni joriy qilish yuzasidan tegishli tadbirlarni ishlab chiqsinlar va amalga oshirsinlar.

3. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Davlat matbuot qo'mitasi uch oy muddat ichida maktablar uchun qo'llanma sifatida o'zbek tilining imlo lug'atini, kishi ismlari va joy nomlari lug'atlarini tayyorlasinlar va nashr qilish choralarini ko'rsinlar.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Mahkamasining ta'lim va fan hamda Ijtimoiy masalalar va madaniyat bo'limlariga yuklansin.

**Vazirlar Mahkamasining Raisi I. Karimov**

Yangi imlo qoidalari quyidagi 7 bo'limni o'z ichiga oladi:

1. Harflar imlosi.

Unlilar imlosi (1-7-qoidalar).

Undoshlar imlosi (8-32-qoidalar).

2. Asos va qo'shimchalar imlosi (33-37-qoidalar).

3. Qo'shib yozish (38-50-qoidalar).

4. Chiziqcha bilan yozish (51-58-qoidalar).

5. Ajratib yozish (57-65-qoidalar).

6. Bosh harflar imlosi (66-74-qoidalar).

7. Ko'chirish qoidalari (75-82-qoidalar).

## **O'ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI**

### **HARFLAR IMLOSI**

#### **Unllar imlosi**

1. **A a** harfi:

1) *aka, alanga, aloqa, og'a; sentabr, noyabr* kabi so'zlarda old qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *bahor, zamon; savol, gavda; vasvasa* kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida, *vaqt, vahm* kabi so'zlarda *a* aytiladi va yoziladi.

2. **O o** harfi:

1) *ona, omon, quyosh, fido, baho xola, lotin; mukofot, mahorat* kabi so'zlarda orqa qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi:

2) *boks, poyezd, tonna, talon; agronom, mikrofon, direktor, termos* kabi o'zlashma so'zlardagi unlini ifodalash uchun yoziladi.

3. **I i** harfi:

1) *ish, iz, qil; xirmon, ilhom, ikki, ixtisos, shoyi, tulki; volida, piramida; bilan, biroq, sira, qishloq, chiroq* kabi so'zlarda old qator unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *o'tin, o'rik, bo'lim* kabi oldingi bo'g'inida **o'** unlisi keladigan so'zlarning keyingi bo'g'inida **i** aytiladi va yoziladi.

4. **Uu** harfi:

1) *uy, kun; buzoq, buloq, Buxoro; butun, uchuq, usul, yulduz, mafkura; ko'zgu, uyqu, aluminiy, yubiley* kabi so'zlarda orqa qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *qovun, sovun, tovush, yovuz, qirg'ovul, chirmovuq* kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida **o** unlisi kelsa, keyingi yopiq bo'g'in boshidagi **v** undoshidan keyin **u** aytiladi va yoziladi.

5. **O' o'** harfi *o't, o'q, o'zbek, o'simlik, do'ppi; bo'tako'z, semizo't, gulko'rpa, noo'rin* kabi so'zlarda orqa qator o'rta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

6. **E e** harfi *ekin, esla, evara, ekran, ekspot; kel, zehn; kecha, behi, ne'mat, she'r* kabi so'zlarda old qator o'rta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

7. Yonma-yon keladigan unililar imlosi:

1) unililar orasiga ba'zan y undoshi qo'shib aytilsa ham, yozilmaydi:

a) **ia:** *material, milliard, radiator; tabiat, shariat* kabi;

b) **io:** *biologiya, million, stadion, radio* kabi;

d) **at:** *mozaika, ukrain, said, maishat* kabi;

e) **oi:** *alkoloid, ellepsoid, shoir, oila* kabi;

f) **ea:** *teatr, okean, laureat* kabi;

2) **ae, oe** unililari so'z ichida kelganda ikkinchi unli **y** aytilsa ham, asliga muvofiq **e** yoziladi: *aerostat, poema* kabi;

Boshqa hollarda yonma-yon kelgan unililar odatda aynan aytiladi va yoziladi: *manfaat, kauchuk, aorta, saodat, burjua, shuaro, inshoot, sanoat, vakuum, muammo, matbuot, tabiiy, rioya* va boshqalar.

### Undoshlar imlosi

8. **B b** harfi:

1) *bobo, bahor, bir, majbur, zarb* kabi so'zlarda jarangli portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi:

2) *kitob, yuzlab, kelib* kabi so'zlar oxirida **p** aytilsa ham, **b** yoziladi;

3) *qibla, tobla* kabi so'zlarda ba'zan **v** aytilsa ham, **b** yoziladi.

9. **P p** harfi *paxta, pichoq, opa, tepa, tup, yop* kabi so'zlarda jarangsiz portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi.

10. **V v** harfi:

1) *ov, suv, kuyov, ovoz, savol; volida, vatan* kabi so'zlarda ovozdor sirg'aluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *avtobus, avtomat* kabi o'zlashma so'zlarda **v** ba'zan **f** aytilsa ham, **v** yoziladi.

11. **F f** harfi:

1) *fan, fe'l, futbol, fizika; asfalt, juft; insof, isrof* kabi so'zlarda jarangsiz sirg'aluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *fasl, fayz, Fotima, fursat* kabi so'zlarda **f** tovushi ba'zan **p** aytilsa ham, asliga muvofiq **f** yoziladi.

12. **M m** harfi *moy, muborak, tomon, ilhom* kabi so'zlarda ovozdor lab-lab burun undoshini ifodalash uchun yoziladi.

13. **D d** harfi:

1) *dala, odat, bunyod, modda, jiddiy* kabi so'zlarda til oldi jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *obod, savod, marvarid; zavod, pud, sud; badqovoq, badxo'r* kabi so'zlarda **t** aytilsa ham, **d** yoziladi.

14. **T t** harfi *tong, tun; butun, o'tin, o'l, kut* kabi so'zlarda til oldi jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

15. **Z z** harfi:

1) *zar, zamon; toza, o'zbek; yoz, g'oz* kabi so'zlarda til oldi jarangli sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *iztirob, izquvar, bo'zchi, tuzsiz* kabi so'zlarda jarangsiz undoshdan oldin **s** aytilsa ham, **z** yoziladi.

16. **S s** harfi *sog', somon, oson, asos, olmos* kabi so'zlarda til oldi jarangsiz sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

17. **Sh sh** harflar birikmasi *shahar, shisha, shodlik; ishq, pishiq; bosh, tosh* kabi so'zlarda til oldi jarangsiz sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

**Sh** harflari ikki tovushni ifodalasa, ular orasiga ' tutuq belgisi qo'yiladi: *Is'hoq, as'hob* kabi.

18. **J j** harfi:

1) *jon, jahon, jiyda, tijorat; rivoj, vaj* kabi so'zlarda til oldi jarangli qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *jurnal, projektor; gijda, ajdar; garaj, tiraj* kabi o'zlashma so'zlarda til oldi jarangli sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

19. **Ch ch** harflar birikmasi *choy, chevar, chiroyli, chaman; achchiq, uchun, bichiqchi; kuch, kech* kabi so'zlarda til oldi jarangsiz qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

20. **R r** harfi *rahmat, rohat, orom, doira, bor, diyor* kabi so'zlarda til oldi ovozdor titroq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

21. **L l** harfi *lola, loyiq, la'l, iloj, mahal* kabi so'zlarda sirg'aluvchi ovozdor yon undoshni ifodalash uchun yoziladi.

22. **N n** harfi:

1) *non, nomus; ona, tana; bilan, tomon* kabi so'zlarda til oldi ovozdor burun undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *shanba, yonbosh, jonbozlik; yonma-yon, ko'rinmaslik* kabi so'zlarda **n** tovushi ba'zan **m** aytilsa ham, **n** yoziladi.

23. **G g** harfi *gul, go'zal; ega, gugurt; teg, eg* kabi so'zlarda til orqa jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

24. **K k** harfi *ko'l, ko'ylak; uka, moki; tok, bilak* kabi so'zlarda til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

25. **Y y** harfi *yo'l, yigit, yetti, yaxshi, yoz, yulduz; tuya, dunyo, tayyor; soy, tuy* kabi so'zlarda til o'rta sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

26. **Ng ng** harflar birikmasi *yangi, ko'ngil, dengiz, singil, keling, bordingiz; tong, ming, teng* kabi so'zlarda til orqa ovozdor burun tovushini ifodalash uchun yoziladi.

27. **Q q** harfi *qizil, qimiz, qirq, haqiqiy, aql* kabi so'zlarda chuqur til orqa jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

28. **G' g'** harfi *g'oz, bag'ir, tog'* kabi so'zlarda chuqur til orqa jarangli sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

29. **X x** harfi *xabar, xo'roz, xohish, xushnud, baxt, axborot, mix* kabi so'zlarda chuqur til orqa jarangsiz sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

30. **H h** harfi *hosil, hamma, bahor; isloh, nikoh* kabi so'zlarda jarangsiz sirg'aluvchi bo'g'iz undoshini ifodalash uchun yoziladi.

31. Yonma-yon keladigan undoshlarning imlosi:

1) *baland, Samarqand, poyezd; do'st, past, artist, g'isht* kabi so'zlarda **d, t** tovushi ba'zan aytilmasa ham yoziladi;

2) *metall, kilogramm, kilovatt, kongress* kabi o'zlashma so'zlar oxirida bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday so'zga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qo'shilsa, so'z oxiridagi bir harf yozilmaydi: *metall+lar = metallar, kilogramm + m i = kilogrammi* kabi.

32. ' – tutuq belgisi:

1) *a'lo, ba'zan, ma'yus, ta'zim; ra'y, ta'b; e'lon, e'tibor, e'tiqod, me'mor, ne'mat, sh'er, fe'l; Nu'mon, shu'la* kabi o'zlashma so'zlarda unidan keyin shu unli tovushning cho'ziqroq aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi; *mo'jiza, mo'tadil, mo'tabar* kabi so'zlarda o' unlisi cho'ziqroq aytilsa ham, tutuq belgisi qo'yilmaydi;

2) *in'om, san'at, qat'iy, mas'ul* kabi o'zlashma so'zlarda unidan oldin shu unli oldingi undosh tovushdan ajratib aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi.

### ASOS VA QO'SHIMCHALAR IMLOSI

33. Qo'shimcha qo'shilishi bilan so'z oxiridagi unli o'zgaradi:

1) **a** unlisi bilan tugagan so'zlarga **-v, -q, -qi** qo'shimchasi qo'shilganda, **a** unlisi **o** aytiladi va shunday yoziladi: *sayla – saylov, sina – sinov, aya – ayovsiz; so'ra – so'roq, bo'ya – bo'yoq; o'yna – o'ynoqi, sayra – sayroqi* kabi;

2) **i** unlisi bilan tugagan ko'pchilik fe'llarga **-v, -q** qo'shimchasi qo'shilganda, bu unli **u** aytiladi va shunday yoziladi: *o'qi – o'quvchi, qazi – qazuvchi, sovi – sovuq* kabi. Lekin **i** unlisi bilan tugagan ayrim fe'llarga **-q** qo'shimchasi qo'shilganda, bu unli **i** aytiladi va shunday yoziladi: *og'ri – og'riq, qavi – qaviq* kabi.

**E s l a t m a:**

1) undosh bilan tugagan barcha fe'llarga **-uv** qo'shiladi: *ol – oluv, yoz – yozuv* kabi;

2) undosh bilan tugab, tarkibida **u** unlisi bor fe'lga **-uq** qo'shiladi: *uz – uzuq, yut – yutuq* kabi. Lekin *nyushiq, burushiq, uchuriq* (shuningdek, *bulduriq*) kabi so'zlarning uchinchi bo'g'ida **i** aytiladi va shunday yoziladi.

34. **k, q** undoshi bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga, shuningdek, *bek, yo'q* kabi ayrim bir bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, **k** undoshi **g** undoshiga, **q** undoshi **g'** undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: *tilak – tilaging, vurak – yuragim, kubok – kubogi, bek – beg, tayoq – tayog'i, qoshig' – qoshig'i, yaxshiroq – yaxshirog'i, yo'q – yo'g'i* kabi. Lekin ko'p bo'g'inli o'zlashma so'zlarga, bir bo'g'inli ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, **k, q** tovushi aslicha aytiladi va yoziladi: *ishtirok – ishtiroki, ocherk – ocherki, erk – erki, huquq – huquqim, ravnaq – ravnaqi, yuq – yuqi* kabi.

35. Quyidagi qo'shimchalar qo'shilishi bilan so'zning tarkibida tovush tushadi yoki ortadi:

1) *o'rin, qorin, burun, o'g'il, bo'yin, ko'ngil kabi ba'zi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, qayir, ayir kabi fe'llarga nisbat shaklini yasovchi -il qo'shimchasi qo'sbilganda, ikki, olti, yetti so'zlariga -ov, -ala qo'shimchalari qo'shilganda, ikkinchi bo'g'indagi unli aytilmaydi va yozilmaydi: o'rin - o'rnim, qorin - qorni, burun - burning, o'g'il - o'g'ling, ko'ngil - ko'ngli; yarim - yarmi; qayir - qayril, ulug' - ulg'ay, sariq - sarg'ay, ikki - ikkov, ikki - ikkala, yetti - yettov kabi;*

2) *u, bu, shu, o'sha olmoshlariga -da, -dan, -day, -dagi, -ga, -gacha, -cha qo'shimchalari qo'shilganda, n tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: unda, bunday, shunda, o'shancha kabi; bu olmoshlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi: buningiz, o'shanisi kabi;*

3) *o, o', u, e unilari bilan tugaydigan so'zlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi:*

a) *ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchalari -m, -ng, -si; -miz, -ngiz, -si (yoki -lari) shaklida tovush orttirilmay qo'shiladi: bobom, bobong, bobosi, bobomiz, bobongiz, bobosi (yoki bobolari); orzum, orzung, orzusi, orzumiz, orzungiz, orzusi kabi;*

b) *parvo, obro', mavqe, muvzu, avzo so'zlariga I, II shaxs egalik qo'shimchalari qo'shilganda bir y tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: parvoyim, parvoying; parvoyimiz, parvoyingiz; oibro yim, obro ying; obro yimiz, obro yingiz kabi; III shaxs egalik qo'shimchasi parvo, avzo, obro', mavqe so'zlariga -yi shaklida, xudo, mavzu so'zlariga esa -si shaklida qo'shiladi: avzoyi, mavzusi kabi (dohiy kabi y uudoshi bilan tugagan so'zga ham III shaxsda -si qo'shiladi: dohiysi kabi);*

4) *men, sen olmoshlariga -ni, -ning, -niki qo'shimchalari qo'shilganda, qo'shimchadagi n tovushi aytilmaydi va yozilmaydi: meni, mening, meniki; seni, sening, seniki kabi.*

36. Quyidagi qo'shimchalarning birinchi tovushi ikki xil aytilsa ham, bir xil yoziladi:

1) *-bon, -boz qo'shimchalari ba'zan -von, -voz aytilsa ham, hamma vaqt -bon, -boz yoziladi: darvozabon, masxaraboz kabi. Lekin -vachcha qo'shimchasi hamma vaqt shunday aytiladi va yoziladi: amakivachcha, xolavachcha kabi;*

2) *o'rin kelishigi va chiqish kelishigi qo'shimchasining, o'tgan zamon yasovchisi va III shaxs ko'rsatkichi -di qo'shimchasining boshidagi undosh ba'zan t aytilsa ham, hamma vaqt d yoziladi; ishda, misdan, ketdi, kelmabdi kabi.*

37. Quyidagi qo'shimchalarning bosh tovushi ikki yoki uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

1) *taqlid so'zlardan fe'l yasovchi -illa (chirilla, taqilla) qo'shimchasi so'z tarkibida v yoki u tovushi bo'lganda -ulla aytiladi va shunday yoziladi: shovulla, lovulla, gurulla kabi;*

2) *nisbat shaklini yasovchi -dir qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zlarga (kel so'zidan boshqa), shuningdek, z undoshi bilan tugagan*

orttirma nisbat yasovchisidan keyin qo'shiladi: *quvdir, egdir, kuldir, yondir; o'tkazdir, tomizdir* kabi. Qolgan barcha hollarda bu qo'shimcha **-tir** aytiladi va shunday yoziladi: *tiktir, kestir, uyaltir, chaqirtir* kabi:

3) jo'nalish kelishigi qo'shimchasi **-ga**, chegara bildiruvchi **-gacha**, ravishdosh shaklini yasovchi **-gach, -guncha, -gani, -gudek**, sifatdosh shaklini yasovchi **-gan**, buyruq maylining ikkinchi shaxs ko'rsatkichi **-gin**, shuningdek, **-gina** qo'shimchasi uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

a) **k** undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalarning bosh tovushi **k** aytiladi va shunday yoziladi: *tokka, yo'lakkacha, ko'nikkach, zerikkuncha, to'kkani, kechikkudek, bukkani, ekin, kichikkina* kabi;

b) **q** undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalarning bosh tovushi **q** aytiladi va shunday yoziladi: *chopiqqa, qishloqqacha, yoqqach, chiqquncha, chiniqqani, qo'raqqudek, achchiqqina* kabi;

v) qolgan barcha hollarda, so'z qanday tovush bilan tugashidan va bu qo'shimchalarning bosh tovushi **k** yoki **q** aytilishidan qat'i nazar, **g** yoziladi: *bargga, pedagogga, bug'ga, sog'ga, og'gan, sig'guncha* kabi.

#### QO'SHIB VOZISH

38. *Xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab* kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *qabulxona, tabriknoma, taklifnoma, bedapoya, ommabop, xushxabar, hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, bug doyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsiyat, suvtalab* kabi.

39. **-(a)r** (inkor shakli **-mas**) qo'shimchasi bilan tugaydigan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *o'rinbosar, otboqar, cho'lquvar, ishyoqmas, qushqo'nmas* kabi.

40. Takror taqlid so'zlarga qo'shimcha qo'shish bilan yasalgan ot va fe'llar qo'shib yoziladi: *pirpirak (pir-pir+ak), bizbizak (biz-biz+a'<), hayhayla (hay-hay+la), gijgijla (gij-gij+la)* kabi.

41. Narsani (predmetni) boshqa biror narsaga nisbatlash (qiyoslash), o'xshatish yo'li bilan bildiruvchi qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *karnaygul, qo'ziqorin, otquloq, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg'iyko'z* kabi.

42. Narsani uning rangi, mazasi, o'zidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *olaqarg'a, qizilishton, achchiqtosh, mingoyoq* kabi.

43. Narsaning biror maqsad, ish uchun mo'ljallanganligini bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, oshrayhon, molqo'ra, nosqovoq, ko'zoynak* kabi.

44. Narsani joyga nisbat berish asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *tog'olcha, cho'lyalpiz, suvilon, qashqargul* kabi.

45. Marosim, afsona kabilarni bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *kiryuvdi, kelintushdi, qoryog'di, Urto'qmoq, Ochildasturxon* kabi.

46. Qaratuvchili birinchi bir so'zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *mingboshi, so'zboshi, olmaqoqi* kabi.

47. Ikkinchi qismi **turdosh** ot bilan yoki **obod** soʻzi bilan ifodalangan joy nomlari qoʻshib yoziladi: *Yangiyoʻl, Toʻrtkoʻl, Mirzachoʻl, Sirdaryo, Kosonsoy, Yangiobod, Xalqobod* kabi. Lekin ikkinchi qismi atoqli ot boʻlgan joy nomlari ajratib yoziladi: *Oʻrta Osiyo, Koʻhna Urganch, Oʻrta Chirchiq* kabi.

48. Rus tilidan aynan oʻzlashtirilgan yoki soʻzma-soʻz tarjima qilish yoʻli bilan hosil qilingan qoʻshma soʻzlar qoʻshib yoziladi: *kinoteatr, radiostansiya, fotoapparat, elektrotexnika, yarimavtomat, bayramoldi, suvosti* kabi.

49. Qisqartmalarning barcha turlari va ularga qoʻshiladigan qoʻshimchalar qoʻshib yoziladi: *SamDU, ToshDUning* kabi. Lekin yonma-yon kelgan ikki qisqartma ajratib yoziladi: *OʻzXDP MK (Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashi)* kabi.

50. Bir tovush ikki va undan ortiq tovush tarzida aytilsa, bunday holat harfni takror yozish bilan koʻrsatiladi: *yoʻoʻq, nima, himm, uff* kabi.

### CHIZIQCHA BILAN YOZISH

51. Juft soʻz va takror soʻz qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *el-yurt, mehr-shafqat, qovun-tarvuz, omon-eson, kecha-kunduz, yozin-qishin, asta-sekin, uch-toʻrt, oʻn-oʻn beshita (10-15 ta), bilinar-bilinmas, bordi-keldi, kuydi-pishdi, don-dun, oz-moz, mayda-chuyda, aldab-suldab, oʻylab-netib, soʻramay-netmay, kiyim-kechak, adi-badi, ikir-chikir, duk-duk, taq-tuq, qop-qop, ming-ming (ming-minglab), bitta-bitta (bitta-bittalab), chopa-chopa, ishlay-ishlay, yaqin-yaqinlargacha, hamma-hammasi, uy-uyiga, ich-ichidan* kabi.

#### E s l a t m a:

1) juft soʻzdan qoʻshimcha yordamida yasalgan soʻzlar ham chiziqcha bilan yoziladi: *baxl-saodatli, xayr-xoʻshlashmoq* kabi;

2) juft soʻz qismlari orasida **-u (-yu)** bogʻlovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qoʻyiladi va juft soʻz qismlari ajratib yoziladi: *doʻst-u dushman (doʻst-dushman), kecha-yu kunduz (kecha-kunduz)* kabi;

3) yetakchi va koʻmakchi feʼl bir xil shaklda boʻlsa, chiziqcha bilan yoziladi: *yozd-ildi, borasan-qoʻyasan, uxlabman-qolibman* kabi.

52. Belgini kuchaytiruvchi *qip-qizil, yam-yashil, dum-dumaloq, kuppa-kunduzi, toʻppa-toʻgʻri, bab-baravar* kabi soʻz shakllari chiziqcha bilan yoziladi (lekin *oppoq* soʻzi qoʻshib yoziladi).

53. Soʻzning **-ma, ba-** yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *koʻchama-koʻcha, uyma-uy, rang-barang, dam-badam* kabi. Lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism qatnashsa, bunday soʻzlar qoʻshib yoziladi: *roʻbaroʻ, darbadar* kabi.

54. Rus tilidan aynan yoki soʻzma-soʻz tarjima qilish yoʻli bilan olingan soʻzlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: *unter-ofitser, kilovatt-soat* kabi.

55. **-chi, -a (-ya), -ku, -u (-yu), -da, -e, -ey (-yey)** yuklamalari chiziqcha bilan yoziladi: *sen-chi, boraylik-chi, sen-a, kutaman-a, bola-ya, mingta-ya, keldi-ku, kelgan-u, yaxshi-yu, yaxshi-da, qoʻy-e, yashang-e, oʻgʻlim-ey, keldi-yey* kabi. Ammo **-mi, -oq (-yoq), -ov (-yov), -gina, (-kina, -qina)** yuklamalari oʻzidan oldin kelgan soʻzga qoʻshib yoziladi: *keldim, keliboq, oʻziyoq, koʻrganov, koʻrdiyov, mengina, qoʻshiqina* kabi.

56. Tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, **-nchi** qo'shimchasi o'niga chiziqcha (-) qo'yiladi: 7- *sinf*, 5- "4" *sinfi*, 3-, 7-, 8- *sinf o'quvchilar*, 60- *yillar*, 1991-*yilning 1-sentabri* kabi. Tartib sonni ko'rsatuvchi rim raqamlaridan keyin chiziqcha yozilmaydi: *XX asr*, *X sinf* kabi.

### AJRATIB YOZISH

57. Qo'shma fe'lining qismlari ajratib yoziladi: *sarf qil*, *ta'sir et*, *tamom bo'l*, *sotib ol*, *olib ket*, *olib chiq*, *miq etma* kabi.

58. Ko'makchi fe'l va to'liqsiz fe'l mustaqil fe'ldan ajratib yoziladi: *aytib ber*, *olib ko'r*, *so'rab qo'y*, *ko'ra qol*, *bera boshla*, *yiqila yozdi*; *ketgan edi*, *ketgan ekan*, *ketgan emish* kabi. Lekin mustaqil fe'l bilan yordamchi fe'l orasida tovush o'zgarishi bo'lsa, bunday qismlar qo'shib yoziladi: *aytaver (ayta ber)*, *boroladi (bora oladi)*, *bilarkan (bilar ekan)* kabi.

59. Ko'makchilar ajratib yoziladi: *shu bilan*, *soat sayin*, *borgan sari*, *bu qadar*, *kun bo'yi* kabi. Lekin *bilan* ko'makchisining **-la** shakli, *uchun* ko'makchisining **-chun** shakli chiziqcha bilan yoziladi: *sen-la*, *sen-chun* kabi.

60. **Hamma**, **har**, **hech**, **bir**, **qay**, **u**, **bu**, **shu**, **o'sha** so'zlari o'zidan keyingi yoki oldingi so'zdan ajratib yoziladi: *humma vaqt*, *har kim*, *hech qaysi*, *qay kuni*, *u yerda*, *shu yoqdan*, *o'sha yoqqa* kabi. Lekin *birpas*, *biroz*, *birato'la*, *birvarakayiga*, *bir muncha*, *buyon* so'zlari qo'shib yoziladi. Shuningdek, **qay** so'zi **yoq**, **yer** so'zlari bilan ishlatilganda, **bir y** tovushi tushsa, bu so'zlar qo'shib yoziladi: *qayoqqa*, *qayerda* kabi.

61. Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan **to'q**, **jiqqa**, **tim**, **liq**, **lang**, **och** kabi so'zlar ajratib yoziladi: *to'q qizil*, *jiqqa ho'l*, *tim gora*, *liq to'la*, *lang ochiq*, *och sariq* kabi.

62. Murakkab son qismlari ajratib yoziladi: *o'n bir*, *besh yuz*, *qirq ming olti yuz bir*, *bir ming yetti yuz sakson beshinchi* kabi.

63. *Yildan yilga*, *tomdan tomga* kabi birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo'nalish kelishigida bo'lgan birikmalar ajratib yoziladi.

64. Belgining ortiq darajasini bildiruvchi *ko'pdan ko'p*, *tekandan tekin*, *yangidan yangi*, *ochiqdan ochiq*, *qizigandan qizidi* kabilar ajratib yoziladi.

65. Izofali birikmalar ajratib yoziladi. Bunda izofa undosh bilan tugagan so'zlarga **i** shaklida, unli bilan tugagan so'zlarga **yi** shaklida qo'shiladi: *dardi bedavo*, *muqtayi nuzar*, *tarjimayi hol* kabi. Lekin izofa yozilmaydigan so'zlar, shuningdek, qismlaridan biri yoki har ikkisi o'zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan so'zlar qo'shib yoziladi: *gulbeor (guli beor)*, *dardisar* kabi.

### BOSH HARFLAR IMLOSI

66. Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Dilbar*, *O'rinova*, *Muhabbat Majidovna*, *Azamat Shuhrat o'g'li*, *Hamza Hakimzoda*, *Muhammadsharif So'fzoda*, *Mannon Otaboy*, *Navoiy*, *Furqat*; *Yelpig'ichxon*, *Salomjon Alikov* kabi.

67. Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi: *Andijon*, *Yangiyo'l* (shaharlar), *Naymancha*, *Buloqboshi* (qishloqlar), *Bodomzor*, *Chig'atoy* (mahallalar), *Zavraq* (dara), *Yarqoq* (yaylov), *Qoratog'*, *Pomir* (tog'lar), *Oqtepa*, *Uchtepa* (tepalar), *Zarafshon*, *Sirdaryo* (daryolar), *Yoyilma* (kanal); *Turkiya*, *Hindiston* (mamlakatlar)



kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: *Shimoliy Kavkaz*, *Murkaziy Qizilqum* kabi.

68. Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Hulkar*, *Qavs*, *Mirrix* (yulduz va sayyoralar nomi), *Tinchlik dengizi* (Oydagi relyef nomi) kabi. *Yer*, *Quyosh*, *oy* turdosh otlari sayyora nomi bo'lib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi: *Yer Quyosh atrofida*, *Oy Yer atrofida ayatlanadi*.

69. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san'at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport mashinolariga qo'yilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi: "*Tong*" (mehmonxona), "*Saodat*" (firma), "*Navro'z*" (xayriya jamg'armasi), "*Kamalak*" (matbaa birlashmasi), "*G'uncha*" (bog'cha), "*Botanika*" (sanatoriy), "*Paxtakor*" (stadion), "*Qulug' qon*" (roman), "*Dilorom*" (opera), "*Tanovar*" (kuy), "*Ozodlik*" (haykal), "*Jasorat*" (yodgoriik), "*Sino*" (sovutgich) kabi.

70. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni*, *Xotira kuni*, *Ramazon hayiti*, *Navro'z bayrami* kabi.

71. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: *O'zbekiston Respublikasi*, *Rossiya Federatsiyasi*, *Misir Arab Respublikasi*, *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti*, *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi*, *O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi*, *Birlashgan Millatlar Tashkiloti*, *Jahon Tinchlik Kengashi* kabi. Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: *Bosh vazirning o'rinbosari*, *Mudofaa vaziri*, *Yozuvchilar uyushmasi*, *O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi* kabi. Yazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: *Sog'liqni saqlash vazirligi*, *Fan va texnika davlat qo'mitasi*, *Fanlar akademiyasi*, *Tilshunoslik instituti* kabi.

72. Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: "*O'zbekiston Qahramoni*" (unvon), "*Oltin Yulduz*" (medal). Boshqa tashkilotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: "*Sog'lom avlod uchun*" (orden), "*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi*" (faxriy unvon), "*Matbaa a'lochisi*" (nishon) kabi.

73. Gapning birinchi so'zi bosh harf bilan boshlanadi: *Yer tagidan Muqaddasga bir qarab oidim* (O. Yoqubov).

E s l a t m a:

1) ko'chirma gapdan keyin kelgan muallif gapining birinchi so'zi (agar u atoqli ot bo'lmasa) kichik harf bilan yoziladi: "*Bu men, – qo'rqibgina javob berdi ko'laga*" (O. Yoqubov);

2) xatboshiga gapning sanaluvchi qismlari chiqarilganda bunday qismlar oldidan chiziq qo'yiladi va ular kichik harf bilan yoziladi: *Ma'muriy huquqbuzariik to'g'risidagi ishni ko'rishga tayyorlash vaqtida tegishli organ (mansabdor shaxs) quyidagi masalalarni:*

– mazkur ishni ko'rib chiqish uning huquq doirasiga kirish -kirmasligini;

– ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi protokol va ishga oid boshqa materiallar to'g'ri tuzilgan-tuzilmaganligini... hal qiladi;

3) gapning qismlari qavsli raqam yoki qavsli harf qo'yib sanalsa, bunday qismlar ham kichik harf bilan yoziladi:

*Hozirgi o'zbek adabiy tilining lug'at boyligi asosan besh manba negizida tarkib topgan: 1) umumturkiy so'zlar, 2) o'zbekcha so'zlar, 3) tojik tilidan kirgan so'zlar, 4) arab tilidan kirgan so'zlar, 5) rus tilidan kirgan so'zlar ("O'zbek tili" darsligidan).*

74. Tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli ot bo'lmagan ba'zi birikmalarning qisqartmalari bosh harf bilan yoziladi: *AQSh (Amerika Qo'shma Shtatlari), BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), AES (atom elektr stansiyasi)* kabi. Qisqartma tarkibida bo'g'inga teng qism bo'lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: *ToshDTU (Toshkent davlat texnika universiteti)* kabi.

#### KO'CHIRISH QOIDALARI

75. Ko'p bo'g'inli so'zning oldingi satrga sig'may qolgan qismi keyingi satrga bo'g'inlab ko'chiriladi: *to'q-son, si-fatli, sifat-li, pax-takor, paxta-kor* kabi. Tutuq belgisi oldingi bo'g'inda qoldiriladi: *va'-da, ma'-rifat, mash'-al, in'-om* kabi.

76. So'zning bosh yoki oxirgi bo'g'ini bir harfdan iborat bo'lsa, ular quyidagicha ko'chiriladi:

1) so'z boshidagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'z o'zi oldingi satrda qoldirilmaydi: *a-badiy* emas, *aba-diy, e-shikdan* emas, *eshik-dan* kabi;

2) so'z oxiridagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi keyingi satrga ko'chirilmaydi: *mudofa-a* emas, *mudo-faa, matba-a* emas, *mat-baa* kabi.

77. O'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko'chiriladi:

1) ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'chiriladi: *dia-gramma, mono-grafiya* kabi;

2) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko'chiriladi: *silin-drik* kabi.

78. Bir tovushni ko'rsatuvchi harflar birikmasi (sh, ch, ng) birgalikda ko'chiriladi: *pe-shayvon, pe-shana, mai-shat, pi-choq, bi-chiq-chi, si-ngil, de-ngiz* kabi.

79. Bosh harflardan yoki bo'g'inga teng qism va bosh harfdan iborat qisqartmalar, shuningdek, ko'p xonali raqamlar satrdan satrga bo'lib ko'chirilmaydi: *AQSh, BMT, ToshDU, 16, 245, 1994, XIX* kabi.

80. Harfdan iborat shartli belgi o'zi tegishli raqamdan ajratib ko'chirilmaydi: *5-"A" sinfi, V-"B" guruhi, 110 gr, 15 ga, 105 m, 25 sm, 90 mm* kabi.

81. Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga ko'chirilmaydi: *"Navro'z-92"* (festival), *"O'qituvchi-91"* (ko'rik tanlov), *"Andijon-9"*, *"Termiz-16"* (g'o'za navlari), *"Boing-767"* (samolyot), *"Foton-774"* (televizor) kabi.

82. *A.J.Jabborov, A.D.Abduvaliyev* kabilarda ismning va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko'chirilmaydi. Shuningdek *v.b* (va *boshqalar*), *sh.k* (*shu kabilar*) singari harfiy qisqartmalar ham oldingi so'zdan ajratib ko'chirilmaydi.

Kirill yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi bo'yicha tuzilgan imlo qoidalari 1956-yil 4-aprelda tasdiqlangan edi. U "O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari" deb nomlangan. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi bo'yicha tayyorlangan qoidalar esa "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" deb ataladi. U 1995-yil 24-avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalari quyidagi bo'limlardan iborat: 1. Ayrim harflar imlosi (1-30-§lar). 2. O'zak-negiz va qo'shimchalar imlosi (31-55-§lar). 3. Qo'shma so'zlar, so'z birikmalari imlosi (56-58-§lar). 4. Bo'g'in ko'chirilishi (59-62-§lar). 5. Bosh harflarning yozilishi (63-72-§lar).

Lotincha o'zbek alifbosiga asoslanuvchi yangi imlo qoidalari quyidagi qismlardan tashkil topgan: 1. Harflar imlo qoidasi. Unlilar imlosi (1-7-bandlar). 2. Undoshlar imlosi (8-32-bandlar). 3. Asos va qo'shimchalar imlosi (33-37-bandlar). 4. Qo'shib yozish (38-50-bandlar). 5. Chiziqcha bilan yozish (51-56-bandlar). 6. Ajratib yozish (57-65-bandlar). 7. Bosh harflar imlosi (66-74-bandlar). 8. Ko'chirish qoidalari (75-82-bandlar).

Kirill yozuviga asoslangan va yangi imlo qoidalarning nomlanishi, bo'limlarining nomlanishida ham farq seziladi. Kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalari 5 bo'limdan iborat bo'lsa, yangi imlo qoidalari 8 bo'limdan tashkil topgan. "O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari" deb nomlanishidan ko'ra "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" deb atalishining o'ziyoq uning qamrovi kengligini ko'rsatadi va masala mohiyatini chuqurroq yoritadi. "Ayrim harflar imlosi" deb atalishining o'ziyoq o'zbek alifbosidagi barcha harflar haqida so'z yuritilmasligini anglatib turibdi. Yangi qoidalarda "Harflar imlosi. Unlilar imlosi. Undoshlar imlosi" deb atalishi maqsadga muvofiqdir. Amaldagi qoidalardagi "O'zak-negiz va qo'shimchalar qoidasi" bo'limi yangisida "Asos va qo'shimchalar imlosi" deb o'zgartirilgan. Shuningdek, amaldagi qoidalarda "Qo'shma so'zlar, so'z birikmalari imlosi" bo'limida qo'shib yoziluvchi, ajratib yoziluvchi va chiziqcha bilan yoziluvchi so'zlar imlosi aralash berilgan edi. Yangi qoidalarda esa bu masalaga yanada aniqlik kiritilgan va ular uch bo'limga ajratilgan: 1. Qo'shib yozish. 2. Chiziqcha bilan yozish. 3. Ajratib yozish. Kirill yozuviga asoslangan qoidalarda "Bo'g'in ko'chirilishi" va "Bosh harflarning yozilishi" bo'limlari yangi qoidalarda o'zaro joy almastirilib, avval "Bosh harflar imlosi", keyin "Ko'chirish qoidalari" berilgan. Endi kirill yozuviga asoslangan qoidalarni pragrafma-paragraf qarab chiqamiz.

Kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalarning dastlabki 3 paragrafini "Ayrim harflar imlosi" bo'limi tashkil etadi. Bo'limning nomlanishidan ham ko'rinib turibdiki, kirillcha o'zbek alifbosidagi barcha harflar imlosini qamrab olish ko'zda tutilmagan. Uning 11 paragrafi unlilar imlosiga bag'ishlangan. Qoidalar *н* harfi bilan boshlangan. *м* harfining yozilishi ikki bandda, *у* harfining yozilishi uchun uch band to'rt xatboshida tavsiflangani holda, *ы* harfining yozilishi

atigi bir bandda bir necha qatordagina bayon etilgan. Bir paragrafda yonma-yon keladigan unlilar tavsiflangan (*идиома, аэроstat, ошпа, оид, доир, шoir* kabi). To'rtinchi paragrafda *е, ё, ю, я* harflarining yozilishi bayon etilgan. Keyin, *б, ф, д, ж, ц, ш, ч, й, н, нг, х* harflari, *ь* va *ъ* belgilari imlosi berilgan. 24-, 25-, 26-, 27-, 28-§lar yonma-yon kelgan undoshlar imlosiga bag'ishlangan. Imlo qoidalarida *в, г, з, к, л, м, п, р, с, т, х, ч, ш, ж, г* harflari va ularning qo'llanishiga doir fikrlar berilmagan.

Yangi imlo qoidalarining "Harflar imlosi" bo'limi ikki qismga ajratilgan. 1. Unlilar imlosi (7 band) 2. Undoshlar imlosi (25 band). Ularda har bir harf alohida bandlarda tasniflangan. Yonma-yon kelgan unlilar, undoshlar hamda tutuq belgisining qo'llanishiga alohida bandlar ajratilgan. Qoidalar ancha ixcham, tartib bilan berilgan. Harflar imlosi haqidagi qoidalar uni o'rganuvchilar uchun ancha qulay va yengil tuzilgan. Bu esa uni o'zlashtirishni osonlashtiradi. Ayniqsa, unda *е, ё, ю, я* harflari, *ь* belgisi bilan bog'liq qoidalaming yo'qligi ham hozirgacha turli-tuman yozib kelingan so'zlaming to'g'ri yozilishini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Yangi imlo qoidalaridagi 25-bandda berilgan lotincha "y harfi *yo'l, yigit, yetti, yaxshi, yoz, yulduz; tuya, dunyo, tayyor, soy, to'y* kabi so'zlarda til o'rta sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi", - degan qoidaning o'zi kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalarining 8-, 9-, 10-, 11-, 19- §larida yozilgan qoidalaming barchasi o'rmini bosadi. Chunki uning birgina o'zi *е, ё, ю, я, й* harflarining yozilishini qoidalashtiradi. Yangi imlo qoidalarida o'zbek tiliga o'zlashgan va hozirgacha "u" harfi va "шч" harflar birikmasi bilan yozib kelingan so'zlar imlosi berilmagan. Kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalarining 17-, 18-§lari uchun shunday so'zlar imlosi haqida edi. Hozir, ayniqsa, u qorishiq undosh tovushining yozuvdagi ifodasida bir oz chalkashliklar mavjud. "u" o'mida *ts* yoki *s* harfi yozilishining sabablari, "шч" o'miga *sh* harflar birikmasi yoki *shch* harflar birikmasi bilan yozilishi borasida bahslar bo'lyapti. Shuningdek, baynalmilal so'zlarda tutuq belgisining ishlatilmasligi sababi ham ko'rsatilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalarining "O'zak-negiz va qo'shimchalar imlosi" bo'limidan yangi imlo qoidalarining "Asos va qo'shimchalar imlosi" bo'limi miqdori va mazmun jihatidan ancha farq qiladi. Kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalari 25 paragraf bo'lsa, yangi imlo qoidalari besh banddangina iborat. Ushbu bandlar 2, 3, ba'zilar 6 bandgacha qo'shimchalar bilan bog'liq bandlardan tashkil topgan. Bu bo'lim bandlari bo'yicha quyidagi farqli holatlar mavjud.

1. Ushbu bo'limdagi 33-qoidaning eslatma qismida shunday deyiladi: "Undosh bilan tugab, tarkibida u unlisi bor fe'lga -uq qo'shiladi: *uz-uzuq, yut-yutuq* kabi. Lekin *uyushiq, burushiq, uchuriq* (shuningdek, *bulduriq*) kabi so'zlaming uchinchi bo'g'inida *i* aytiladi va shunday yoziladi. Kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalarida esa -uq (-iq) qo'shimchasining imlosi qoidalashtirilmagan.

2. Ushbu bo'limdagi 35-qoidaning 3-bandida keltirilgan holatlar ham kirill-o'zbek yozuvining imlo qoidalarida berilmagan. Ma'lumki, o, o', u, e unililari bilan tugaydigan so'zlarga egalik qo'shimchalari 2 xil qo'shiladi va yoziladi:

a) *bobom, bobong, bobosi; bobomiz, bobongiz, bobosi* (yoki *bobolari*); *orzum, orzung, orzusi; orzumiz, orzungiz, orzusi* kabilarda hech qanday tovush orttirilishi kuzatilmaydi;

b) *parvo, obro', mavqe, avzo* kabi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilsa har uchta shaxsda ham y tovushi orttiriladi: *parvoyim, parvoying; parvoyimiz, parvoyingiz; obro yim, obro ying; obro yimiz, obro yingiz, avzoyi*. Ammo *mavzu, vudo* so'zlariga egalik qo'shimchasi qo'shilsa, I va II shaxs shakllarida tovush orttirilsa, III shaxsda qo'shimcha -si shaklida qo'shiladi: *mavzuyim, mavzuying, mavzusi* kabi.

3. Ushbu bo'limdagi 37-qoidaning 1-bandida taqlid so'zlardan fe'l yasovchi -illa qo'shimchasi so'z tarkibida v yoki u tovushi bo'lganda -ulla tarzida aytilishi va yozilishi qoidalashtirilgan: *shovulla, lovulla, gurulla* kabi. Qolgan hollarda esa -illa yoziladi: *taqilla, chiqilla*. Kirill imlo qoidalarida esa bu qo'shimcha -illa shaklida qo'shilishi qoidalashtirilgan: *шовилламоқ, гувилламоқ* kabi. Ammo *шовул, овул, қуёул* kabilarda esa v tovushidan keyin u yozilishi qoidalashtirilgan (2-paragraf). Ko'rinadiki, bu xil holatlar kirill imlo qoidasi asosida 2 xil yoziladi. Bu qoidalar lotin imlo qoidalarida bir xillashtirildi.

4. Ma'lumki, lotin imlo qoidalariga ko'ra, nisbat shaklini yasovchi -dir qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zlarga (*kel* so'zidan boshqa), shuningdek z undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchidan keyin qo'shiladi: *quvdir, egdir, kuldir, yondir; o'tkazdir, tomizdir*. -tir qo'shimchasi esa bir bo'g'inli jarangsiz undosh bilan va ko'p bo'g'inli z dan boshqa tovushlar bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi: *tiktir, ektir; uyaltir, chaqirtir* kabi. (37-qoidaning 2-band). Kirill imlo qoidasida esa orttirma daraja yasovchi -dir qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga -tir shaklida qo'shilishi aytilgan, aslida esa jarangli z dan so'ng -tir emas, -dir qo'shiladi. Qiyos qiling: *cho'miltirmoq, sevintirmoq*, ammo *tomizdirmoq, oqizdirmoq* kabi. Bu kabi holatlar lotin imlo qoidalarida yanada aniqlashtirildi.

5. Kirill imlo qoidasida g' yoki q bilan tugagan so'zlarga g bilan boshlangan qo'shimchalar qo'shilganda, so'z oxiri va qo'shimcha boshidagi undoshlar, aytilishiga mos holda, ya'ni -qa shaklida yozilishi qoidalashtirilgan: *bog - boqqa, tog - toqqa, chug - chugqa, qushloq - qushloqqa, taroq - taroqqa*. Lotin imlo qoidalarida esa bunday so'zlar talaffuziga ko'ra emas, morfemalarning asl holiga mos ravishda yozilishi qoidalashtirilgan, ya'ni so'z k tovushi bilan tugasa, -ka, so'z q tovushi bilan tugasa, -qa, boshqa hollarning barchasida -ga qo'shimchasi qo'shilishi keltirib o'tilgan: *bog'ga, tog'ga, sog'ga, og'gan, sig'guncha* kabi (37-qoidaning "v" bandi).

Yangi imlo qoidalaridagi "Qo'shib yozish" bo'limida berilgan 13 band yangi qoidalardir. Bular hozirgacha goh qo'shib, goh ajratib yozib kelingan so'zlarni yagona qoida ostida qo'shib yozishni qonuniylashtirgan. Ushbu bo'lim bo'yicha quyidagi farqli holatlar mavjud:

1. Kirill imlo qoidalarida ikki otdan tuzilgan qo'shma sifatning ajratib yozilishi aytilgan: *dutor bo'yin* (ot+ot =qo'shma sifat), *havo rang* (ot+ot =qo'shma sifat), *bodom qovoq* (ot+ot =qo'shma sifat), *qo'y ko'z* (ot+ot =qo'shma sifat) kabi (58-paragraf, 3-qoida). Qo'shma sifatlar imlosiga oid bu qoida amalda o'zini oqlagani yo'q: *orombaxsh*, *bug'doyrang*, *ilhombaxsh* so'zlari "ot+ot =qo'shma sifat" qolipida tuzilgan bo'lishiga qaramay, deyarli barcha imlo lug'atlarida qo'shib yozilgan, *devsifat*, *odamsifat* so'zlari esa (ular ham "ot+ot =qo'shma sifat" qolipida shakllangan) lug'atlarda har xil berilmoqda. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi "qoidalarida"da bu tipdagi qo'shma sifatning imlosi bir qadar tartibga solingan: "qoidalar"ning 38-bandida *xona*, *noma*, *baxsh*, *rang*, *mijoz*, *sifat* kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma ot va qo'shma sifatning qo'shib yozilishi qayd etilgan: *qabulxona*, *tabriknoma*, *orombaxsh*, *kamquvvat*, *bug'doyrang*, *sovuqmijoz*, *devsifat*, *sivtalab* kabi (qarang: 38-qoida). Shu qoida talablaridan kelib chiqqan holda, *havorang*, *jigarrang*, *bodomqovoq*, *qo'yko'z* kabi qo'shma sifatning komponentlari ham lotin-o'zbek yozuvida qo'shib yozilishi kerak. Qiyos qiling: *хаво ранг* (kirill-o'zbek yozuvida) – *havorang* (lotin-o'zbek yozuvida), *бодом қовоқ* (kirill-o'zbek yozuvida) – *bodomqovoq* (lotin-o'zbek yozuvida), *қўй қўз* (kirill-o'zbek yozuvida) – *qo'yko'z* (lotin-o'zbek yozuvida), *жугар ранг* (kirill o'zbek yozuvida) – *jigarrang* (lotin-o'zbek yozuvida) kabi.

2. Lotin imlo qoidalarining 46-qoidasida qaratuvchili birikmaning bir so'zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo'shma otlar qo'shib yozilishi qoidalashtirilgan: *minghoshi*, *so'zboshi*, *olmaqoqi*. Kirill imlo qoidalariga ko'ra *ming boshi*, *o'n boshi*, *so'z boshi* kabilar "birikmalik xususiyatini saqlagan so'zlar (?)" sifatida ajratib yoziladi (qarang: 58-paragraf, 12-qoida).

3. 1956-yilgi "qoidalar"da ikkinchi komponenti "yo"lashgan tovush bilan boshlangan *шер юрак*, *муз ёрап*, *иш ёқмас*, *қўл ёзма* tipidagi so'zlarning ajratib yozilishi aytilgan (qarang: 58-paragraf, 14-qoida). Lotin grafikasidagi yangi yozuvda bunday so'zlar qo'shib yoziladi: *sheryurak*, *muzyorar*, *ishyoqmas* kabi (qarang: 39-qoida).

Yangi imlo qoidalaridagi "Chiziqcha bilan yozish" bo'limidagi 15-band kirill yozuviga asoslangan qoidalarning 47-, 54- va 58-paragraflaridagi qoidalarga mos keladi. Yangi imlo qoidalarida chiziqcha bilan yoziladigan so'zlarning alohida ajratib berilishi undan foydalanishni osonlashtiradi va qulaylashtiradi. Shuningdek, bu bo'limga 3 ta yangi qoida ham kiritilgan bo'lib, ular 52-, 53- va 54-bandlardir.

Lotin imlo qoidalaridagi ushbu bo'limning 51-qoidasida juft so'z qismlari orasida -u (yu) bog'lovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qo'yilishi qoidalashtirilgan: *do'st-u dushman*, *kecha-yu kunduz* kabi. Kirill imlo qoidalarida esa bu so'zlar chiziqchasiz yozilishi qoidalashtirilgan: *еру осмон*, *ору номус*, *туну кун*, *кечаю кундуз*, *ёшү қари*, *қўю қўзи* kabi (57-paragraf, eslatma). Bu yozuvda -yu yuklamasi chiziqcha bilan, -u (yu) bog'lovchisi esa so'zga qo'shib yozilgan: *борди-ю*, *келди-ю* (57-paragraf), *еру осмон*, *ору номус*, *туну кун*, *кечаю кундуз*. Lotin imlo qoidalarida esa -u (yu) bog'lovchi yoki yuklamaligidan

qat'i nazar chiziqcha bilan yoziladi. Demak, yangi imlo qoidalarida bu holat bir xillashirilgan.

Lotin imlo qoidalarining 56-qoidasiga ko'ra tartib sonlar arab raqamlari bilan ifodalansa, -nchi qo'shimchasi o'rniga chiziqcha qo'yilishi qoidalashtirilgan: *1991-yilning 1-sentabri, 60-yillar* kabi. Kirill imlo qoidasida esa yil va oylarni (chislojami) ko'rsatuvchi arabcha raqamdan so'ng chiziqcha yozilmaydi, deyilgan: *1956 йил 22 сентябрь* kabi (47-paragraf).

Yangi imlo qoidalaridagi "Ajratib yozish" bo'limi 57-65-qoidalarni qamrab oladi, kirill imlo qoidalarida esa ajratib yozishga 58-paragraf ajratilgan. Bu bo'limda quyidagi farqlar mavjud:

1. Lotin imlo qoidalaridagi 63-qoidada *yildan yilga, tomdan tomga* kabi so'zlar ajratib yozilishi aytilgan. Bunday birliklar kirill imlo qoidalarida chiqizcha bilan yozilishi qoidalashtirilgan (57-paragraf): *йилдан-йилга*.

2. Lotin imlo qoidalaridagi 64-qoidada *ko'pdan ko'p, tekindan tekin* kabi so'zlar ajratib yozilishi aytilgan. Bunday birliklar kirill imlo qoidalarida chiqizcha bilan yozilishi qoidalashtirilgan (57-paragraf): *күндан-күн*.

3. Lotin imlo qoidalaridagi 65-qoidada *izofali birikmalar* ajratib yozilishi, bunda izofa undosh bilan tugagan so'zlarga i shaklida, unli bilan tugagan so'zlarga yi shaklida qo'shilishi aytilgan: *dardi bedavo, nuqtayi nazar*. Bunday birliklar kirill imlo qoidalarida ajratib yozilishi hamda и shaklida qo'shilishi qoidalashtirilgan (58-paragraf 7-qoida): *дарди бедаво, нуқтаи назар, таржумаи хол* kabi.

Bundan tashqari, lotin imlo qoidalarida *biroz* so'zi qo'shib yozilishi qoidalashtirilgan (60-qoida), ammo kirill imlo qoidasiga ko'ra bu so'z ajratib yoziladi: *бир оз* kabi.

Yangi imlo qoidalarining oltinchi bo'limi "Bosh harflar imlosi" deb nomlanib, 9 banddan iborat. Kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalarining oxirgi bo'limi "Bosh harflarning yozilishi" deb nomlangan hamda u 10 paragrafdan iborat edi. Yangi imlo qoidalarida berilgan 73-bandning uchta eslatmasi va 74-band kirill yozuviga asoslangan qoidalarda o'z aksini topmagan edi.

Yangi imlo qoidalarida "Ko'chirish qoidalarini" yakunlovchi bo'lim bo'lib, u 8 bandni qamrab olgan. Kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalarida "Bo'g'in ko'chirilishi" bo'limi 4 paragrafdan iborat edi. Kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalaridagi mavjud paragraflar yangi imlo qoidalarining 75-, 76-, 78-, 79-bandlarida anchayin aniqlashtirilgan holda berilgan. Ayirish va yumshtish belgisi so'zlarning bo'g'inga ko'chirilishi haqidagi 61-paragraf tushirib qoldirilgan. Yangi imlo qoidalarining 77-, 80-, 81- va 82-bandlarida ko'chirib yozish borasida ko'p uchraydigan qoidalar keltirilganki, bu ham umumiy savodxonligimizning ko'tarilishiga xizmat qiladi.

Lotin imlo qoidalarining 77-bandida: "O'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasida kelgan ikki yoki uch undosh quyidagicha ko'chiriladi:

1) ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'chiriladi: *diagramma, mono-grafiya* kabi;

2) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko'chiriladi: *silin-drik* kabi". Bu kabi qoidalar kirill imlo qoidalarida mavjud emas.

Qisqasi, yangi imlo qoidalarini hozirgi o'zbek tilining yozuvdagi mukammal va bexato aks etishini ta'minlash uchun ziyolilarimiz orasida ellik yildan ortiq davr mobaynida davom etib kelayotgan alifbo va imlo bo'yicha bahs-munozaralarning natijasi sifatida maydonga kelgan. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, yangi qoidalarimizda ham vaqt va hayot sinovlaridan o'tishi, to'ldirilishi lozim bo'lgan ayrim o'rinlar ham yo'q emas.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Lotin grafikasiga asoslangan o'zbek alifbosi qachon qabul qilindi?
2. Lotin grafikasiga asoslangan o'zbek yozuvining imlo qoidalarini qachon tasdiqlandi?
3. Asos va qo'shimchalar imlosida nimalarga e'tibor qaratilgan?
4. Qo'shib va ajratib yozish imlosi haqida ma'lumot bering.
5. Bo'g'in ko'chirish imlosida nimalarga e'tibor qaratilgan?
6. Chiziqcha bilan yozish qoidalarida nimalarga e'tibor qaratilgan?
7. Bosh harflar imlosi haqida ma'lumot bering.

#### **Adabiyotlar:**

1. Jamolxonov H., Sapayev Q. Imlo muammolari. – Toshkent, 2008.
2. Rahmatullayev Sh O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. – Toshkent, 1999.
3. Eltazarov J. O'zbekistonda 20-asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixidan (sotsiolingvistik tahlil). – Toshkent, 2006.
4. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini. – Toshkent, 1995.

#### **7-Mavzu: Punktatsiya va uning prinsiplari**

**Tayanch tushunchalar:** punktatsiya, tinish belgilari, grafika, orfografiya, sintaksis, intonatsiya, punktogramma, logik-grammatik tamoyil, uslubiy tamoyil, farqlovchi (differensial) tamoyil

#### **Reja:**

1. Punktatsiya haqida ma'lumot
2. O'zbek punktatsiyasining tarixiy taraqqiyoti
3. Punktatsiya va tilshunoslik bo'limlari
4. Punktatsiya prinsiplari

"Punktatsiya" so'zi lotincha "*punctum*", yani "*nuqta*", "*o'rin, joy*" tushunchalarini anglatadi.

"Punktatsiya" tilshunoslikning tinish belgilari haqidagi bo'limi bo'lib, unda tinish belgilari (punktogramma)ning qo'llanish qoidalarini o'rganiladi. Punktatsiya



tilshunoslikda nutq oqimidagi intonatsion-prosodik to'xtamlarni, yozuvda ifodalangan shartli belgilar yig'indisini (**tinish belgilarini**) anglatadi.

Punktuatsiya yozuv tizimining grafika va orfografiya bilan bir qatorda tanilgan uchinchi komponentidir.

Tilshunoslikda punktuatsiya termini quyidagi ma'nolarni anglatadi: 1) tilshunoslikning bir bo'limi, u tinish belgilari tizimini, ularning ishlatilish qonun-qoidalarini o'rganadi; 2) punktuatsiya qoidalarini yig'indisi; 3) tinish belgilari.

Tinish belgilari **punktogramma** deb ham yuritiladi. Punktogramma muayyan yozuv tizimi (**grafika**)ning uzviy qismi bo'lib, yozma nutqning ayrim yozuv belgilari (masalan, raqamlar, harflar, diakritik va transkripsion belgilar kabi) bilan ifodalash mumkin bo'lmagan tomonlarini aniq belgilashda muhim ahamiyatga egadir.

Tinish belgilari yozma nutqni to'g'ri, ifodali, mantiqiy bayon qilishda, uni ochamlashda, gap qismlarining o'zaro logik-grammatik munosabatlarini ko'rsatishda muhim grafik vosita sifatida ishlatiladi. Punktuatsiya, bir tomondan, yozuvchiga o'z yozma nutqini aniq, to'g'ri va ifodali bayon etish imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan, o'quvchiga muayyan matndagi fikrni yozuvchi bayon etganidek, yozuvchining maqsadiga muvofiq tushuna olish imkoniyatini yaratadi.

Demak, tinish belgilari "Yozma nutqning tushunilishini osonlashtirish uchun qo'llaniladi" (Boduen de Kurtene) va uni oydinlashtiradi, aniqlik kiritadi. Tinish belgilarining o'rinni qo'llanmasligi ma'lum bir sintaktik qurilmaning ham mazmun, ham tuzilish jihatidan o'zgarib ketishiga olib keladi. Masalan, ushbu gapda tinish belgisini o'zgartirish orqali ikki xil mazmuni farqlash mumkin:

1. *Afandi podshoga qarab: Siz ahmoq, odam emassiz, – dedi.*

2. *Afandi podshoga qarab: Siz ahmoq odam emassiz, – dedi*

Birinchi holatda **ahmoq** so'zidan keyin vergul qo'yilsa, gap podshoning aqlliligi haqida emas, balki uning ham ahmoq, ham yomon odamligi haqida boradi. Ikkinchi holatda esa podshoning ahmoq odam emasligi, aqlliligi haqida gap boradi. Demak, ushbu gapda talaffuzda ohang, yozuvda tinish belgisi orqali ikki xil ma'no anglashilmoqda.

Yoki quyidagi gapda ham tinish belgilari bilan bog'liq turli holatlarni aniqlash mumkin: *Ey tabib, qo'y, boqma dardim bedavolardan biri* (Muqimiy) gapida uch holat bor:

a) **qo'y** so'zidan keyin vergul o'qilmasa, "tabib" "qo'yboqar"ga aylanadi;

b) "**dardim**"dan keyin vergul qo'yilsa, "dardim" "boqma"ga bog'lanadi – kesim+to'ldiruvchi (boqma dardimni) munosabati tug'iladi;

d) "**boqma**"dan keyin vergul qo'yilsa, "ega+kesim" (dardim bedavolardan biri) munosabati ifodalanadi.

Tinish belgilari yozuvning keyingi bosqichlarida shakllana boshlagan. Qadimgi yozuvlar piktografik (rasm yozuv), logografik (so'z yozuv) shakllarida bo'lganligi sababli tinish belgilariga ehtiyoj sezilmagan.

O'rta Osiyoning qadimgi yozuvlarida ham (oromiy, turkiy runik kabi) ajratuvchi belgilar saqlangan, ancha faol qo'llanilgan, ularni shartli ravishda qadimgi yozuvlarga xos "punktuatsion" belgilar deyish mumkin.

O'rta Osiyoda arab yozuvi qo'llanila boshlangandan keyin bunday maxsus belgilar ishlatilmagan. Demak, XIX asrning 2-yarmigacha arab grafikasidagi o'zbek yozuvida tinish belgilari bo'lmagan.

O'zbek punktuatsiya tarixi, asosan, XIX asrning 2-yarmidan keyin boshlanganki, buning obyektiv va subyektiv tarixiy sabablari bor:

1. XIX asrning 2-yarmida O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan istilo qilinishi O'rta Osiyo xalqlari madaniyatining, jumladan, o'zbek xalqi madaniyatining rivojlanishida omil bo'ldi. Rossiya va u orqali boshqa Yevropa xalqlari bilan bo'lgan turli madaniy aloqalar yozuvda ham o'z ifodasini topadi.

2. XIX asrning 2-yarmida O'rta Osiyoda poligrafyaning vujudga kelishi: bosmaxonalar, nashriyotlarning paydo bo'lishi, kitob, gazeta, jumallarning nashr etilishi, o'zbek adabiy tilining matbuot tili darajasiga ko'tarilishi yozuv madaniyatini, savodxonlikni – tinish belgilari qo'llash ilmini shakllantirdi. Bunda 1917-yildan mintazam ravishda ikki tilda (ruscha va o'zbekcha) nashr etilgan "Turkiston viloyatining gazetisi" ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

3. Bu davrda tarjima mahallilik ishlari juda ravojlandi. Rus tilidan o'zbek tiliga qilingan tarjima matnlarda, tabiiyki, tinish belgilari o'zbekcha nusxaga ham o'tdi.

4. Turkiy tillar, turkiy yozuvlar tadqiq qilina boshlandi: ilmiy asarlar, grammatik qo'llanmalar paydo bo'ldi. Turkologlar tomonidan tahlil qilingan o'zbekcha matnlarda ham tinish belgilari qo'llanila boshlandi.

Bu holat keyinchalik o'zbek yozuvida an'anaga aylandi. Shunday qilib, XX asr boshlarida o'zbek punktuatsiyasi shakllanib yetdi.

O'zbek punktuatsiyasi taraqqiyotining muhim davrlari:

**I. XIX asrning 2-yarmidan 1917-yilga qadar bo'lgan davr.** Bu davr o'zbek yozuvida tinish belgilarining qo'llana boshlashi, ulami qo'llashning odat tusiga kirishi hamda o'zbek punktuatsiyasining shakllanishi bilan xarakterlanadi.

**II. 1917-yildan keyingi davr o'zbek punktuatsiyasi.** Bu davrda tinish belgilarining qo'llanishi muayyan tartibga solinadi, o'zbek punktuatsiyasi grafikaning alohida bir bo'limi sifatida o'rganila boshlanadi.

Xususan, 1920-yillardan keyin barcha turkiy tillar bilan birga, o'zbek grafikasining rivojida, xususan, orfografik va punktuatsion qoidalarning ishlanishida o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbek tiliga ko'pgina tinish belgilari (so'roq, undov, qo'shtirnoq, ko'p nuqta kabi) kiritirildi.

Punktatsiya tilshunoslikning **grafika** sohasi bilan zich bog'langan. Ma'lumki, grafika muayyan tilning yozuv tizimini, yozuvda ishlatiladigan barcha belgilar yig'indisini o'rganuvchi soha. Tinish belgilari punktuatsiyaning o'rganish birligi bo'lsa-da, yozuv birligi sifatida grafikaning ham tarkibiy qismidir. Grafika tinish belgilaridan tashqari, harf, raqam, diakritik va transkripsion belgi kabilarni ham o'z ichiga oladi.

Demak, punktogrammalar (tinish belgilari) muayyan yozuv tizimining yordamchi, ayni paytda, zarur qismi bo'lgan shartli belgilar yig'indisidir.

Punktatsiya **orfografiya** bilan aloqador. Bu ikki bo'lim yozuvning ikki komponenti sifatida to'g'ri yozish va to'g'ri fikr ifodalash qonun-qoidalarini o'rganadi. Orfografiya so'zlarning to'g'ri yozilishini o'rgansa, punktuatsiya gap

urlari, gap qismlari orasida tinish belgilarining to'g'ri ishlatilishini o'rganadi. Masalan, so'roq, undov, nuqta kabi tinish belgilaridan so'ng gapning bosh harf bilan, ikki nuqta, nuqtali vergullardan keyin gapning ko'pincha kichik harf bilan yozilish holatlari punktuatsiya bilan orfografiyaning aloqadorligini ko'rsatuvchi omildir. Bundan tashqari, savodxonlikni oshirishda orfografiya qanchalik ahamiyatga ega bo'lsa, punktuatsiya ham shuncha ahamiyatga egadir. Orfografiya ham, punktuatsiya ham grafik vositalar yig'indisi bo'lib, yozuvni to'g'ri ifodalash haqidagi ta'limotdir.

Puntuatsiya **sintaksis** bilan uzviy aloqador. Punktuatsion qoidalar sintaktik qonuniyatlar, me'yorlar asosida talqin qilinadi. Punktuatsiya qoidalarini sintaktik qonuniyatlarga bog'lamasdan o'rganish mumkin emas. Punktuatsiya qoidalarini aniqlashda mazkur tilning barcha sintaktik, uslubiy xususiyatlari hisobga olinadi. Tinish belgilarining ishlatilishini gap qurilishi, uning grammatik-logik shakllanishi boshqaradi. Masalan, *Turg'un ukam vrach bo'ldi* gapida:

1) *Turg'un* undalma bo'lsa, undan keyin vergul qo'yiladi: *Turg'un, ukam vrach bo'ldi*;

2) *Turg'un, ukam* so'zlari uyushiq bolak bo'lsa, *Turg'un* so'zidan keyin vergul qo'yiladi: *Turg'un, ukam vrach bo'ldi*;

3) *ukam* ajratilgan bo'lak bolsa, har ikki tomondan vergul bilan ajratiladi: *Turg'un, ukam, vrach bo'ldi*;

4) *Turg'un ukam* izohlovchi izohlanmish munosabatida bo'lsa, hech qanday tinish belgisi qo'yilmaydi: *Turg'un ukam vrach bo'ldi*.

Demak, gapning sintaktik va logik strukturasi bog'liq holda tinish belgilari ishlatiladi.

Puntuatsiya **sintaktik fonetika**, **gap ohangi** bilan uzviy bog'langan. Ohang (intonatsiya) ovoznin rang-barang tovlanishi: tinch boshlanishi, ko'tarilishi (kulminatsiyasi), pasayishi, susayishi, tugallanishi; tempi: tez va sekinligi, osoyishtaligi; sifati: cho'ziq, qisqaligi, kuchli va kuchsizligi; davriy va davomliligi, takrorlanishi kabilarda ko'rinadi.

Ohang juda murakkab bo'lib, urg'u, pauza, melodika kabilar uning komponentlari hisoblanadi. Ohang gap mazmun-mundarijasining ajralmas qismi: usiz gap shakllanmaydi, gapning kommunikativ (aloqa-aralashuv) vazifasini ohang boshqaradi. Ohangning o'zgarishi gapning mazmun va tuzilish jihatidan o'zgarib ketishiga sabab bo'ladi: mazmun farqlaydi, gap qayta shakllanadi. Quyidagi gaplarning ohangini qiyoslaylik:

*Mustaqil O'zbekiston – kelajagi porloq davlatdir.*

*Mustaqil O'zbekiston – kelajagi porloq davlatdir?*

*Mustaqil O'zbekiston – kelajagi porloq davlatdir!*

*Mustaqil O'zbekiston – kelajagi porloq davlatdir!...*

Bu gaplarning birinchisida xabar ohangi, ikkinchisida so'roq, uchinchi va to'rtinchi gaplarda esa his-hayajon, sevinch, mamnunlik ma'nolari ifodalangandir. Gaplardagi tire ishorasi esa ta'kid ma'nosini kuchaytiradi. Bunday mazmuniy munosabatlar og'zaki nutqda intonatsiya yordamida ifodalanadi, yozma nutqda esa

punktuatsion belgilar yordamida ko'rsatiladi. Ko'rinadiki, yozma matndagi ma'noni (maqsadni) tinish belgilari vositasida aniq tasavvur qilish mumkin<sup>13</sup>.

Punktuatsiya bilan ohang qanchalik yaqin bo'lmasin, ular o'ziga xosligi, qimmatini jihatidan har xil baholanadi: ohang (gap ohangi) – birlamchi, material tushuncha; punktogrammalar (tinish belgilari) – hosila; ohangning mahsuli, uni aks ettiruvchi shartli simvoldir.

O'zbek tilida ham punktogrammalarni qo'llashning o'z asoslari va shartlari mavjud. Tinish belgilarining qo'llanishida:

1. Gap mazmuni e'tiborga olinadi. Ifodalanmoqchi bo'lgan mazmun tugallangan bo'lsa, nuqta, undov yoki so'roq belgisi, uch nuqta qo'yiladi:

Gaplar orasidagi mazmuniy munosabatlarni ifodalashda ikki nuqta, tire, vergul yoki nuqtali vergul orqali ifodalanadi. Tugallanmagan yoki izohtalab tushunchalar ko'p nuqta yoki qavslar orqali ifodalanadi.

2. Gapning grammatik qurilishi ham tinish belgilarining ishlatilishini belgilab beradi. Masalan, ega bilan kesim orasida tire qo'yilishi yoki qo'yilmasligi ma'lum grammatik qoidalar asosida belgilanadi.

3. Gap ohangi asosida tinish belgilari qo'yiladi. Undov, so'roq belgisi, ko'p nuqta va nuqta, tire tugallangan ohang bilan, vergul kichik to'xtam bilan, *nuqtali vergul, ikki nuqta, tire esa izoh* ohangi bilan talaffuz qilinadi.

Ma'lumki, yozma nutqda muayyan bir tinish belgisining qo'llanish qoidalari ma'lum bir tamoyilga asoslanadi. O'zbek tilidagi tinish belgilarining qo'llanish tamoyillari tilshunos olimlar Sh. Shoabdurahmonov, G. Abdurahmonov, K. Nazarov, B. Egamberdiyevlar tomonidan asoslab berilgan.<sup>14</sup>

#### Hozirgi o'zbek tilida tinish belgilarining qo'llanish tamoyillari:

1. **Logik-grammatik tamoyil.** Bu tamoyil nutq mazmuni, tuzilishi, intonatsiyasini o'z ichiga oladi. Bu tamoyilga ko'ra tinish belgilari nutqning logik-grammatik jihati bilan bog'liq tarzda ishlatiladi. Masalan, xabar mazmunini anglatgan gapning oxirida nuqta, so'roq mazmunini anglatgan gaplarning oxirida so'roq, emotsiya (hayajon) ifodalangan gaplar oxirida undov belgilari ko'proq nutq mazmuniga asoslanib qo'yilgan bo'ladi; kiritma qurilmalarning asosiy gap bilan zich bog'langanlari qavs, sayoz, bo'sh bog'langanlari tire bilan ajratilish holatlari ko'proq nutq tuzilishiga asoslanadi: "*Dod!*" *degan ovoz eshitildi.* (O.) *Qalandarov jon-jahdi bilan baqirdi: Yo'qol!!!* gaplarining birinchisidagi qo'shtimoq nutq tuzilishiga, ikkinchisidagi undov belgilari ohangga asoslanib qo'yilgan.

2. **Uslubiy tamoyil.** Bu prinsipga ko'ra tinish belgilari nutq parchasining uslubiga bog'liq holda qo'llanadi. Uslubiy tamoyil keng ma'noda bo'lib, yozuvchining individual uslubini ham o'z ichiga oladi.

Til taraqqiyoti, til uslublarning rivojlanishi nutqning ajralmas qismi bo'lgan punktuatsiyaning taraqqiyotiga, uning qo'llanish doirasining kengayishi yoki

<sup>13</sup> Nazarov K., Egamberdiyev B. O'zbek tili ishora-imlo qoidalari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996, 6-b.

<sup>14</sup> Qarang: Shoabdurahmonov Sh. Punktatsiya qoidalari. – Toshkent, 1953; Shu muallif. O'zbek tilida punktuatsiya. – Toshkent, 1955; Nazarov K. Tinish belgilari va yozma nutq. – Toshkent: Fan, 1974; Nazarov K., Egamberdiyev B. O'zbek tili ishora-imlo qoidalari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996; Abdurahmonov G. Punktatsiyaning o'rgatish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1968.

o'rganishiga sabab bo'ladi. Masalan, badiiy asarlarda (dialogik nutqlarda) ixchamlilik uchun personajlarning nutqlari tire bilan ajratiladi. Dramatik asarlarda esa nutq egalari nomi keltirilganligidan, borligidan ularni tire bilan ajratishga ehtiyoj bo'lmaydi yoki qo'shtimoq havola (sitata)larda qo'yilib, badiiy asarlardagi ko'chirma gaplarda qo'llanilmaydi. Nutqning individual uslub shaklida tinish belgilari, ko'pincha, yozuvchining sub'yektiv maqsadi, emotsional fikr ifodalash, uning ta'sirchanligini oshirish uchun qo'llaniladi. Masalan, *Yoz. Quyosh hamma vaqni qizdiradi. (O.) Yoz! Pishiqchilik, to'kinchilik fasli!* (U.) gaplarida "yoz" so'zi orqali ikki yozuvchi ikki xil maqsadni ifodalash uchun foydalangan. Bu maqsadlar tinish belgilari (nuqta, undov belgisi) orqali ifodalangan. *G'ovur bo'lib ketdi: Aotim-qizlar zveno, brigadani udda qilolmaydimi!* (A.Q.) gapida ritorik so'roq bilan fikrning kuchli (emotsional) va davomli ekanligi ifodalangan. Bu maqsadlar undov belgisi va ko'p nuqta orqali ifodalangan. Lekin bundan har bir yozuvchi tinish belgilaridan o'z bilganicha, o'z istagicha foydalana beradi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Tinish belgilarining individual uslub talabiga ko'ra qo'llanilishi ham uslubiy tamoyilning umumiy me'yoriga bo'ysinadi.

**3. Farqlovchi (differensial) tamoyil.** Bu tamoyilga ko'ra tinish belgilari yozuv texnikasi (shakli)ni farqlash uchun qo'llanadi. Boshqacha aytganda, tinish belgilarining yozuv shakllariga bog'liq holda odatdagidan farqli ishlatilishi farqlovchi tamoyil asosida yuz beradi. Ilmiy uslubda, jumla ichida so'zlarni qisqartirishda iqtibos – sitalarning manbasini ko'rsatishda, havolalarda, kitob muqovalarida nashriyot nomi va nashr vaqtini ko'rsatishda tinish belgilari mazkur tamoyilga asosan ishlatiladi. Masalan, kitob muqovasida tire (*Toshkent – 2011* kabi), havolalarda vergul (*G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 1985* kabi) qo'yiladi. Yozma nutqni ixchamlashtirishda, tinish belgilarining qo'sha qo'llanishini belgilashda bu tamoyil muhim ahamiyatga ega.

Ba'zan muallif va uning asari, matbuot nomlari qisqartirilib, unda tinish belgisidan foydalaniladi: *Navoiy – N.; Oybek – O.; Abdulla Qahhor – A.Q.*

Ko'p hollarda farmon va qarorlarda tire har bir gap oldidan qo'yilib, numerativlik vazifasini ham bajaradi, bunda ham farqlovchi tamoyilga asoslaniladi.

Umuman, hozirgi o'zbek tilida tinish belgilari uch tamoyil – logik-grammatik, uslubiy va farqlovchi tamoyillar asosida qo'llaniladi. Bulardan logik-grammatik tamoyil yetakchi bo'lib, keyingi ikki tamoyil shunga asoslanadi – yordamchi tamoyil.

## TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Punktatsiya termini qanday ma'nolarda qo'llaniladi?
2. Punktatsiyaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Punktatsiya qaysi sohalar bilan aloqada bo'ladi?
4. Tinish belgilarining yozma nutqdagi ahamiyati nimalarda ko'rinadi?
5. Punktatsiya taraqqiyoti nechta bosqichga bo'lib o'rganiladi?
6. Punktatsiya tamoyillari qaysilar?

7. Logik-grammatik tamoyil asosida qaysi tinish belgilari ishlatiladi?
8. Uslubiy tamoyil mezonlari nimadan iborat?
9. Farqlovchi (differensial) tamoyil nima asosida ish ko'radi?

### A d a b i y o t l a r :

1. Nazarov K. Egamberdiyev B. O'zbek tili ishora-imlo qoidalari. – T.: O'qituvchi, 1996.
2. Mahmudov N., Madvaliyev A., Mahkamov N. Puntuatsiya – fikrni yozma mukammal ifodalash vositasi // O'zbek tili va adabiyoti. 2015, №1, 57-79-betlar.
3. Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006, 210-b.
4. Nazarov K. Tinish belgilari va yozma nutq. – Toshkent: Fan, 1974, 7-b.

### 8-Mavzu: Tinish belgilarining tasnifi

**Tayanch tushunchalar:** tinish belgilari, tasnif, qo'llanish o'rni, qo'llanish usuli, tuzilishi, vazifasi, yakka holda qo'llanuvchi, qo'sh holda qo'llanuvchi, bir elementli, ko'p elementli, chegaralovchi, ayiruvchi, murakkab vazifali tinish belgilari.

#### **Reja:**

1. Hozirgi o'zbek adabiy tilida tinish belgilari
2. Tinish belgilari Fitrat talqinida
3. Tinish belgilarining qo'llanish o'miga ko'ra tasnifi
4. Tinish belgilarining qo'llanish usuliga ko'ra tasnifi
5. Tinish belgilarining tuzilish jihatidan tasnifi
6. Tinish belgilarining vazifasiga ko'ra tasnifi

Hozirgi o'zbek tilida tinish belgilari, ularning nomlanishi va shakli quyidagicha:

№	Nomi	Shakli
1.	<b>Nuqta</b>	.
2.	<b>So'roq belgisi</b>	?
3.	<b>Undov belgisi</b>	!
4.	<b>Nuqtali vergul</b>	;
5.	<b>Ko'p nuqta</b>	...
6.	<b>Vergul</b>	,
7.	<b>Ikki nuqta</b>	:
8.	<b>Tire</b>	–

9.	Qavs	()    {}
10.	Qo'shtirnoq	«» «»

Tinish belgilari quyidagi vazifalarni ado etishi lozim:

- a) ijtimoiy-sotsial vazifa bajarishi;
- b) vazifasi gapning semantik-grammatik jihati bilan bog'liq bo'lishi;
- v) qo'llanishi grammatik qonuniyatga asoslanishi;
- d) o'z grafik shakliga, qo'llanish tizimiga ega bo'lishi lozim.<sup>15</sup>

XX asrning boshlarida Turkistonda o'zbek tilshunosligini rivojlantirish, maktablar uchun darsliklar yaratish, izchil ta'limni yo'lga qo'yish dolzarb masalalardan biriga aylangan va bu holat o'zbek ma'rifatparvarlari tomonidan anglab yetilgan edi. Xuddi shu sharoitda birinchilardan bo'lib tilshunos olim Ashurali Zohiriy ona tili darsligi va turli o'quv kitoblarini yaratdi. Ayniqsa, olim maktablarda ona tilida to'g'ri yozishni o'rgatish uchun zarur darsliklar yo'qligini inobatga olgan holda o'zbek tilida birinchi bor "Imlo" darsligini yaratib (1916-yil), o'zbek punktuatsiyasiga tamal toshini qo'ydi. Boshlang'ich maktablarning to'rtinchi sinflari uchun mo'ljallangan bu darslik o'zbek adabiy tili qonun-qoidalarini belgilashda, tilning taraqqiyot yo'nalishlarini aniqlashda tilshunoslar uchun tayanch qo'llanma vazifani o'tadi. Fitrat A.Zohiriyning o'zbek imlosi va tili ustida ish olib borgan ilk tadqiqotchi sifatida e'tirof etgan.

A.Zohiriyning "Imlo"si o'zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi bo'yicha dastlabki ilmiy-metodik qo'llanmadir. Uning 3-qismi tinish belgilarining qo'llanishi qoidalariga bag'ishlangan bo'lib, "Xatlar orasida riyoysi lozim ishorat va vaqf alomatlari" deb sarlavha qo'yilgan.<sup>16</sup> Muallif bu bo'limda tinish belgilarining yozuvda qo'llanishi va qanday holatlarda qo'yilishi haqida mulohaza yuritadi.

O'zbek tilshunosligida tinish belgilari dastlab Abdurauf Fitratning "Nahv" asarida o'rganiladi va "tinish belgilari" deb nomlanadi<sup>17</sup>. Fitrat tinish belgilarini shunday ta'riflaydi: "So'zlamni to'plab bir-biriga baylab gap tuzishda "o'y" qulay anglashilsin deb turli belgilar ishlatiladi. Bunlarning hammasig'a birdan "turish belgilari" yo sodacha "turishlar" deyiladi. Turish belgilaridan qaysi birtasini gapning qaysi bo'lagidan so'ng qo'yilishi to'g'risida har birining o'z o'rnida ma'lumot berilgusidir. Bunda hammasini bir qatordan ko'rib o'tishimiz kerak:

1- "Nuqta» (.)dir. Bunga kelgach o'qug'uchining to'xtashi lozim.

2- "Bir tinish belgisi» (;)dir. Bunga kelgach o'qug'uchi to'xtamaydir; biroq gapdagi so'zlarning munosabatlari uzilmasin uchun bir nafas tolsh (bir tinish) vaqti turib o'tadir.

3- "Yarim tinish belgisi» (:)dir. Bunga kelgach o'qug'uchi yarim tinish vaqti turib o'tadir.

<sup>15</sup> Nazarov K. Tinish belgilari va yozma nutq. – Toshkent: Fan, 1974, 7-b.

<sup>16</sup> Bu haqda qar.: Tog'ayev T. Ashurali Zohiriy va uning tilshunoslik merosi: Filol. fan. nom. ... dias. – Toshkent, 2005, 46-b.

<sup>17</sup> Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006, 177-b.

- 4- So'rash belgisi (?)dir.
- 5- Undash belgisi (!)dir.
- 6- Qo'sh nuqta (:)dir.
- 7- Timoqlar («»)dir.
- 8- Yoylar ( )dir.
- 9- To'rtkul (to'rtburchak) yoylari [ ]dir.
- 10- Ulkan yoylar { }dir.
- 11- Chiziq (-) dir.
- 12- Nuqtalar (...)dir".

Hozirgi o'zbek tilida tinish belgilari to'rt jihatdan – qo'llanish o'rimi, ishlatilish usuli, tuzilishi va vazifasi jihatidan tasnif qilinadi.

**Qo'llanish o'rmiga ko'ra** tinish belgilari uch guruhga ajratiladi:

1. Gap oxirida qo'llanuvchi tinish belgilari.
2. Gap ichida qo'llanuvchi tinish belgilari.
3. Aralash holda qo'llanuvchi tinish belgilari.

Gap oxirida qo'llanuvchi tinish belgilari: nuqta (.), so'roq belgisi (?), undov belgisi (!). Bu belgilar quyidagi holatlarga ishora qiladi: a) gapning (fikring) tugallanganligiga; b) gapda qanday mazmun-ma'no ifodalanganiga; d) gapning tugallanish chegarasiga, keyingi gapdan ajralishiga. Ular ba'zan gap oxiridan boshqa o'rinlarda ham ishlatiladi. Bunday paytda bu belgilar boshqa vazifa bajaradi, maqsad ham har xil bo'ladi.

Nuqta, so'roq va undov belgilari ba'zan gap o'rtasida ham ishlatiladi. Biroq bunda ular yuqoridagi asosiy funksiyani bajarmay, boshqa maqsad (vazifa) uchun qo'llaniladi. Masalan, *Z.M.Bobur – o'zbek adabiyotida memuar asar muallifidir* gapida nuqta gap o'rtasida kelib, so'zning qisqarganligini ko'rsatish uchun ishlatilgan. Bu o'rinda u sintaktik vazifa bajarmaydi. Agar gapdagi qisqartirilgan so'zlarni to'liq yozsak, nuqtani ishlatishga hech qanday ehtiyoj qolmaydi. Ko'rinadiki, nuqtaning gap o'rtasida qo'llanishi yordamchi, qo'shimcha mohiyatga ega bo'lib, uning bunday qo'llanishi yozuvchining maqsadi bilan bog'liq. So'roq va undov belgilarining ham gap o'rtasida qo'llanishi yuqoridagi kabi o'zgacha xususiyatga ega bo'ladi.

Oxiriga nuqta, so'roq va undov belgilari qo'yilgan gaplar bir tarkibli va ikki tarkibli, to'liq va to'liqsiz, tasdiq va inkor, sodda va qo'shma, ko'chirma va o'zlashtirma gap shakllarida bo'ladi.

Tinsh belgilarining gap oxirida qo'llanishi shu gapning mazmuniga ham ishoradir: nuqta xabar-darak mazmunli gaplarga, so'roq belgisi so'roq mazmunli gaplarga, undov belgisi esa buyruq, tashviq, emotsiya ifodalovchi gaplarga ishora qiladi.

Vergul gap boshida yoki gap oxirida qo'llanmaydi, doim gap ichida ishlatiladi. Shuning uchun u gap o'rtasida qo'llanuvchi tinsh belgisi sanaladi. O'rin jihatidan aralash qo'llanuvchi tinsh belgilariga ikki nuqta, nuqtali vergul, qo'shtimoq, qavs, tire, ko'p nuqta kiradi. Bular gapning boshida, o'rtasida va oxirida ham qo'llanadi. Ular o'z ichida quyidagicha guruhlanadi:

- a) gap boshida va o'rtasida qo'llanuvchilar: tire;



- b) gap oxirida va o'rtasida qo'llanuvchilar: ikki nuqta, nuqtali vergul;  
v) gap boshida, o'rtasida va oxirida qo'llanuvchilar: qo'shtirmoq, qavs, ko'p nuqta.

Aralash holda qo'llanuvchi tinish belgilarining vazifasi joyga nisbatan ham har xildir. Masalan, tire gap boshida kelganda gaplarni bir-biridan ajratish uchun, gap o'rtasida kelganda esa gap yoki gap bo'laklarining turli sintaktik munosabatini ko'rsatish uchun qo'llanadi. Ko'p nuqta gap oxirida kelganda fikrning davomi borligini, gap o'rtasida kelganda fikrning uzilganligi yoki har xil emotsional holatni, gap boshida kelganda esa mazkur gapning qisqartirilganligini bildiradi.

#### **Tinish belgilari qo'llanish usuliga ko'ra tasnifi.**

**Qo'llanish usuliga ko'ra** tinish belgilari quyidagicha guruhlanadi:

- 1 *Yakka holda qo'llanuvchilar.* Bunga faqat ikki nuqta kiradi
- 2 *Yakka va qo'sh holda qo'llanuvchilar.* Bu tinish belgilari yakka holda (alohida-alohida, mustaqil) qo'llanishi bilan birga, qo'sh holatda ham qo'llana oladi.

Tinish belgilari qo'sh qo'llanganda ikki va undan ortiq tinish belgisi bir o'rinda ketma-ket (birgalikda) ishlatiladi. Bular qo'sh qo'llanganda: a) o'z shaklini to'liq saqlaydi (so'roq+undov tipida: ?!); b) o'z shaklini o'zgartiradi (qo'shtirmoq va qavs kabi); d) bir tinish belgisi ikkinchisining hisobiga qisqaradi (vergul va ko'p nuqta qo'sh qo'llanganda, vergul qisqaradi); g) bir belgining o'zi (mas., undov belgisi) takrorlanadi.

**Tinish belgilarining tuzilish jihatidan tasnifi.** Tinish belgilari tuzilish jihatidan ikkiga ajraladi:

1. Bir elementli tinish belgilari: vergul, nuqta, tire.
2. Ko'p elementli tinish belgilari:

a) ikki elementli tinish belgilari: ikki nuqta, nuqtali vergul, so'roq, undov va qavs;

b) uch elementli tinish belgilari: ko'p nuqta;

d) to'rt elementli tinish belgilari: qo'shtirmoq. Buni o'z mohiyatiga ko'ra "juft elementli" yoki "qo'sh elementli" tinish belgisi deb ham yuritish mumkin.

Bir elementli tinish belgilari tarkibi jihatidan qismlarga ajralmaydi. Ular shartli bir belgidan (bir grafik shakldan) iborat bo'ladi. Ularni o'z mohiyatiga ko'ra sodda tinish belgilari deb yuritiladi.

Ko'p elementli tinish belgilari birdan ortiq tinish belgilarining birikuvidan tashkil topadi. Bularni qo'shma yoki tarkibli tinish belgilari deyiladi.

Ko'p elementli tinish belgilari tarixan ikki va undan ortiq shartli belgidan (shakldan) tashkil topgan bo'lib, hozirgi kunda bir grafik belgi sifatida qaraladi. Masalan: ikki nuqta nuqtaning vertikal usuldagi kombinatsiyasi asosida (ikkita nuqtaning birikuvu zaminida) vujudga kelgan, ya'ni [;]; ko'p nuqta nuqtaning gorizontaal usuldagi kombinatsiyasi asosida (uchta nuqtaning birikuvu zaminida) paydo bo'lgan, ya'ni [...]; nuqtali vergul nuqta va vergulning qo'shiluvi asosida tug'ilgan, ya'ni [;]. Bunda vergul va nuqta ustma-ust qo'yilgan. Qavs ham ikki elementdan iborat bo'lib, uning birinchisi "ochiluvchi qavs", ikkinchisi

“yopiluvchi qavs” deb yuritiladi. “Yopiluvchi qavs” ba’zan “yarim qavs” ham deyiladi va numerativlarni bildiruvchi raqam hamda harflardan so’ng qo’llanadi.

So’roq, undov va qo’shtimoqlarning tarkibi yanada murakkabroq. So’roq belgisi ham, undov belgisi ham ikki elementdan iborat. Ma’lumki, “undov belgisi lotincha lo – undov so’zidan kelib chiqqan bo’lib, unga nuqta (.) ning qo’shilishidan hosil bo’lgan”<sup>18</sup>.

**Tinish belgilarining vazifasiga ko’ra tasnifi.** Tinish belgilari, o’z vazifasiga ko’ra, uch guruhga bo’linadi:

1. Chegaralovchi tinish belgilari. Bular yozma matndagi ayrim qismlarning leksik-semantik farqlanishi va ajralishini, grammatik-uslubiy chegaralanishini ularning boshlanish va tugallanish nuqtasini hamda o’rinlashuv doirasini ko’rsatadi. Bunga qo’shtimoq, qavs (qo’sh qavs) kabi tinish belgilari kiradi.

2. Ayiruvchi tinish belgilari. Bular yozma matnlarni yoki ularning qismlarini bir-biridan ajratish va muayyan qismning tugallanishini ko’rsatish uchun xizmat qiladi: bunday ajratish logik-grammatik jihatdan bo’ladi. Bularga nuqta, so’roq, undov, nuqtali vergul kiradi.

3. Murakkab vazifali tinish belgilari. Bular yozma matn qismlarini o’rni bilan ham ajratish, ham chegaralash, ba’zan ham birlashtirish vazifalarini bajaradi.

a) “ajratish + birlashtirish” vazifasini bajaruvchilar (*ikki nuqta*); b) “ajratish + chegaralash + birlashtirish” vazifasini bajaruvchilar (*vergul, tire*); d) fikrning bo’linishi, qisqarishni va turli emotsiyalarni bildiruvchilar (*ko’p nuqta*)<sup>19</sup>.

“O’zbek tili va adabiyoti” jurnalida tilshunos olimlar prof. N.Mahmudov, katta ilmiy xodimlar A.Madvaliyev, N.Mahkamov tomonidan chiqarilgan “O’zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari”da tinish belgilari 2 turga ajratilgan holda yoritiladi:

1. Tinish belgilarining gap oxirida qo’llanilishi bo’limida nuqta, so’roq, undov va ko’p nuqta belgilarining qo’llanish holatlari misollar asosida izohlanadi.

2. Tinish belgilarining gap ichida qo’llanilishi bo’limida esa vergul, nuqtali vergul, tire, ikki nuqta, qavs, qo’shtimoq kabi belgilarining ishlatilish holatlariga to’xtalindi<sup>20</sup>.

### **Tekshirish uchun savollar**

1. O’zbek tilida tinish belgilari qanday tasniflanadi?
2. Tinish belgilari qo’llanish o’rniga ko’ra necha guruhga bo’linadi?
3. Tinish belgilari qo’llanish usuliga ko’ra necha guruhga bo’linadi?
4. Tinish belgilarining tuzilish jihatdan nechta turi bor?
5. Tinish belgilari vazifasiga ko’ra necha hil?

<sup>18</sup> Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova A. Hozirgi o’zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm ziyo, 2015, 95-120-betlar.

<sup>19</sup> Tinish belgilari haqidagi ma’lumotlarning berilishida N.Mahmudov, A.Madvaliyev, N.Mahkamovlarning “Punktuatsiya – fikrni yozma mukammal ifodalash vositasi” maqolasiga asoslanildi. Qarang: Mahmudov N., Madvaliyev A., Mahkamov N. Punktuatsiya – fikrni yozma mukammal ifodalash vositasi // O’zbek tili va adabiyoti. 2015, №1, 57-79 betlar.

<sup>20</sup> Mahmudov N., Madvaliyev A., Mahkamov N. Punktuatsiya – fikrni yozma mukammal ifodalash vositasi // O’zbek tili va adabiyoti. 2015, №1, 57-b.

## Adabiyotlar

1. Nazarov K. O'zbek tili punktuatsiyasi. – Toshkent, 1976.
2. Nazarov K. Egamberdiyev B. O'zbek tili ishora-imlo qoidalari. – T.: O'qituvchi, 1996
3. Mahmudov N., Madvaliyev A., Mahkamov N. Punktuatsiya – fikmi yozma mukammal ifodalash vositasi // O'zbek tili va adabiyoti. 2015, №1, 57-79 betlar.
4. Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006, 210-b.
5. Tog'ayev T. Ashurali Zohiriy va uning tilshunoslik merosi: Filol. fan. nom. ... diss. – Toshkent, 2005, 46-b.

### 9-Mavzu: Tinish belgilarining qo'llanish holatlari (nuqta, vergul, so'roq, undov belgilari)

**Tayanch tushunchalar:** nuqta, vergul, so'roq, undov, darak gap, buyruq gap, so'roq gap, remarka, numerativ, sarlavha, raqamlar, bosh harflar, matematik ishora.

#### Reja:

1. Nuqta belgisi va qo'llanish holatlari
2. Vergul belgisi va qo'llanish holatlari
3. So'roq belgisi va qo'llanish holatlari
4. Undov belgisi va qo'llanish holatlari

#### 1. Nuqta belgisi va qo'llanish holatlari

Nuqta – eng qadimgi va eng ko'p qo'llanuvchi tinish belgilaridan biri. Nuqta yozuv belgisi sifatida arabcha matnlarda Abdul Malik xalifaligi (hijriy I asr) davrlaridan qo'llana boshlagan. Lekin qadimgi yozuvlardagi nuqta tom ma'nodagi tinish belgisi sifatida emas, umuman, yozuv belgisi sifatida qo'llangan va turli vazifalarni bajarib, turli xil maqsadlarda ishlatilgan. “Nuqtaning yozuv belgisi sifatida ishlatilishi qadimgi arab manbalariga borib taqaladi. U o'zbek tilida tinish belgisi sifatida XIX asming ikkinchi yarmidan boshlab ishlatila boshlangan”.<sup>21</sup>

Nuqtaning asosiy vazifasi xabar ma'nosini anglatuvchi muayyan bir fikrning (gapning) tugallanganligini ko'rsatishdir.

Nuqta gap oxirida qo'llaniluvchi, yakka va qo'sh qo'llanuvchi, bir elementli, ayiruvchi tinish belgisidir. Uning qo'llanishi asosan mantiqiy-grammatik prinsippga asoslanadi.

Ba'zan nuqta shartli qisqartmalardan so'ng ham ishlatiladi. Bunda uslubiy yoki farqlash tamoyillariga asoslaniladi. Nuqtaning shartli qisqartmalardan so'ng qo'llanishi uning qo'shimcha (yordamchi) vazifasidir. Qiyoslang: *Alisher Navoiy - ulug' shoir! A.Navoiy – ulug' shoir!*

Nuqta Abdurauf Fitrat tomonidan quyidagicha tavsiflanadi: “(.) nuqta → to'qtash belgisidir. Gaplarning oxirlariga qo'yiladi. To'qtash belgisi qaysi gapning oxiriga kelsa shul gapda o'ying tamom bo'lg'anini, o'zidan keyingi gap

<sup>21</sup> Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova A. Hozirgi o'zbek adabiy tili – Toshkent: Ilm ziyo, 2015, 96-b.

bilan hech baylanishi qolmag'anini bildiradir. Shuning uchun bunga kelgach o'quvchining to'qtashi, undan keyingi gapni yangidan boshlashi lozimdir: *Uyqusi o'chib ketkanligidan endi ko'ziga uyqu kelmay o'z boshig'a, o'z davriga munosib bo'lg'an xayollar ichiga ko'mildi (Cho'lpon)*<sup>22</sup>.

Hozirgi o'zbek tilida nuqta quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. Tugallangan **darak** gaplarning oxiriga nuqta qo'yiladi: *Xuftonda ayollar davra qurib gulxan yoqdi. (T.Murod) Ayollar nag'malarga hamohang chapak chaldi. (T.Murod)*

2. Darak mazmunidagi gaplar tuzilishi jihatidan qanday bo'lishidan (sodda, qo'shma, to'liqsiz, atov, ilova va sh.k.) qat'i nazar, ularning har qanday tipi oxiriga nuqta qo'yiladi: *Ayol go'dak isini birinchi farzandi tug'ilganidayoq his etadi. Oshkoralik shunday daraxtki, uning mevasini eng avval chinqiroq maymunlar yeydi. To'qqizinchi asr. Muhammad al-Xorazmiy algebra faniga asos soldi. (O'Hoshimov)*

3. Agar alohida emotsionallikka ega bo'lmasa, **buyruq** gaplar oxiriga nuqta qo'yiladi: *Qo'lingdan kelmaydigan ishga va'da berma. Qo'lingdan keladigan ishga ham va'da berma. Dono nodondan o'zini bir pog'ona quyi tutsa, hayron bo'lmang. (O'Hoshimov)*

4. Gaplar sarlavha vazifasida qo'llanganda, darak (va nominativ) mazmunida bo'lishiga qaramasdan, ularning oxiriga nuqta qo'yilmaydi: *Mustaqillik o'zlikni tanimoqdir (B.Qosimov); Ular xalqning yuragida yashaydi (B.Qosimov)*. Ammo sarlavda ikki gap (qism)dan iborat bo'lsa, mazmun shuni talab qilsa, birinchi qismdan keyin nuqta qo'yiladi: *Mantiq fanining bahs mavzusi va maqsad-vazifalari. Mantiq qonunlari ("Mantiq" o'quv qo'llanmasi). Estetik ong va estetik faoliyatning mohiyati handa o'ziga xos xususiyatlari. Asosiy estetik kategoriyalar (tushunchalar) ("Mantiq" o'quv qo'llanmasi)*

5. Muayyan tasnif tarkibidagi tartibni bildiruvchi raqamlardan keyin nuqta qo'yilgan bo'lsa, bu raqamlar bilan ko'rsatilgan gaplardan keyin ham nuqta qo'yiladi: *Mazmuniy-sintaktik munosabatlarni umumlashtirgan holda quyidagi turlarga ajratish mumkin:*

1. Subordinativ munosabat.

2. Koordinativ munosabat.

3. Kopulyativ munosabat.

4. Introduktiv munosabat. ("Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligi).

Ammo mazkur tartibni bildiruvchi raqamlar (yoki harflar) qavs bilan ajratilgan bo'lsa, ular bilan ko'rsatilgan gaplarning so'nggisidan boshqalari oxiriga nuqta emas, balki nuqtali vergul (ba'zan vergul) qo'yiladi: *Shunday qilib, mavjud adabiyotlarda sintaksisning to'rita o'rganish obyekti ko'rsatiladi va o'z navbatida, sintaksis ham o'rganish obyektiga ko'ra to'rita ajratiladi: 1) so'z birikmasi sintaksisi; 2) gap sintaksisi; 3) qo'shma gap sintaksisi; 4) main sintaksisi. (N.Mahmudov, A.Nurmonov)*

*Bundan tashquri, mavjud qo'llanmalarda nuqtaning qo'llanilishidagi*

<sup>22</sup> Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006, 210-b.

quyidagi holatlar ham sanaladi:

1. Ismi, otasining ismi (ba'zan familiya ham) qisqartirilganda, ularning birinchi harfidan so'ng: *A.Qodiriy, A.Oripov, A.Cho'lpon* kabi.

2. Nashriyot ishlarida, lug'at va ma'lumotnomalarda shartli ravishda qisqartirilgan ayrim so'zlarning birinchi harfi yoki bo'g'inidan so'ng: *va sh.k.* (va shu kabilar); *s.t.* (so'zlashuv tilida); *G'.G'.* (G'afur G'ulom); *Nav.* (Navoiy); *Toshk.* (Toshkent); "*O'qituvchi*" *nashr.*; 1995-y.

3. Qo'shma gapning birinchi qismidan so'ng kuchli to'xtam bo'lsa, mantiqan biri ikkinchisiga bog'lanmagan qo'shma gaplar orasida ham nuqta ishlatiladi. Bunday hollarda ikkinchi gap **ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun** bog'lovchilari bilan boshlanishi mumkin: *O'z uyida bir nonxo'r ortishi maxdumga, albatta, yoqmas edi. Biroq onasining ra'yini qaytarishdan ham o'jiz edi. Maxdumdan arazlab Marg'ilon ketishga majbur bo'ldi. Biroq ketar chog'ida ham Anvarni unutmad.* (A.Qodiriy). *O'tgan qishda, senga emas, mollarga ichim achidi. Shuning uchun pichan berdim. Bola yolg'iz, jo'ralarsiz mana shu sodda, bayov narsalar qurshovida yashardi. avtolavkagina hamma narsani unutish-ga, ko'ringanda chopishga majbur qila olardi. Shuning uchun ko'chma do'konni ko'rgan zahoti hamma narsani unutib, o'zini o'sha tomonga otardi.* (Ch.Aytmatov) *Bobosi avtoda'kondan holaga yangi va yaltiroq portfel olib beradi. Chunki u bu yil kuzda maktabga borishi kerak edi.* (Ch.Aytmatov)

4. Ba'zi bir hollarda yil, oy, kunni ifodalovchi raqamlardan so'ng ham nuqta qo'yilishi kuzatiladi: 21.03.2015.

5. Qavs ichidagi remarkadan so'ng nuqta qo'yiladi. Masalan:

*Dezdemona. Duo o'qiy hech bo'lmas!*

*Otello. Vaqt o'tdi, kech. (Uni bo'g'adi.)* (Shekspir, "Otello")

6. Sahna asarlarida qahramonning ismini anglatuvchi so'zdan so'ng nuqta qo'yiladi. Masalan:

*Otello. Ko'p shifobaxsh yoshlar oqar. Barisin ayting... (O'ziga o'zi xanjar uradi.)* (Shekspir, "Otello")

Remarka qahramonni anglatuvchi so'zdan keyin kelsa, uni biror jihatdan tavsiflasha yoki biror harakatini bildirsa, qahramonni anglatuvchi so'zdan keyin emas, remarkadan so'ng qavs yopilgach, nuqta ishlatiladi: *Farmon (g'azab bilan). Ota-onangiz axloq, odob degan narsalarni o'rgatmaganmi?* (S.Ahmad)

7. Yozma nutqda davomiyligni bildiruvchi *va hokazo, va boshqalar* kabi iboralar qisqartirilsa, har bir harfdan keyin nuqta qo'yiladi: *va h.k., va h., va b., va sh.k.*

8. Hisob-kitob ishlarida nuqta belgisidan ko'paytiruv alomati sifatida ham foydalaniladi.  $2 \cdot 2 = 4$  (ikki karra ikki to'rt).

Ba'zan nuqta murakkab sonlarni (raqamlarni) sinflarga bo'lib ko'rsatish uchun ham ishlatiladi. Bunda murakkab (ko'p xonali) sonlarni o'qish osonlashadi, metodik izchillik, qulaylik vujudga keladi: 4.400.000 tonna.

## 2. Vergul belgisi va qo'llanish holatlari

Vergul o'zbek yozuvida XX asr boshlaridan qo'llana boshladi. "Turkiston viloyatining gazetasi" sahifalarida 1901-yildan, Toshkentda nashr etilgan "Taraqqiy" gazetasida esa 1906-yildan boshlab ishlatilgani ma'lum. Vergul eng qadimgi tinish belgilaridan bo'lib, o'zining uzoq tarixiga ega: u G'arbiy Yevropa yozuvlarida XV asrdan tinish belgisi sifatida qo'llana boshlagan<sup>23</sup>.

Vergul eng ko'p qo'llanuvchi va eng ko'p vazifali tinish belgilaridan hisoblanadi.

A. Fitrat vergul haqida shunday fikr bildiradi: (,) **yarim tinish belgisidir**. Gapning qaysi bo'lagi birdan ortiq bo'lsa, gapning uyushqon bo'laklaridan birtasi juda uzun bo'lsa, gap orasida "kirish so'z" bo'lsa, gapda undash so'zi bo'lsa, mana shularni boshqalaridan ajratmoq uchun "," belgisi qo'yiladi, bunga kelgach o'quchining yarim nafas olg'ancha turib o'tishi lozim:

*Qop-qora tuban tim-tin yerlarni  
Qo'ydi-da, oldin ko'klarga oshdi.*

(Elbek)

*O'tajon, men kechalari uy poylash uchun kelin bo'lib keldimmi?*

(Cho'lpon)

*O'ng, so'l uni tepkan, uni urg'an,  
Inson-da yotib uyqug'a toldi.  
So'lg'un, qora, turg'un dema ko'rdim,  
Mungli kechaning mungli chog'inda... (Fitrat)<sup>24</sup>*

Vergul gap ichida qo'llaniluvchi, yakka va qo'sh qo'llanuvchi, bir elementli, murakkab vazifali tinish belgisidir. Uning qo'llanishi asosan mantiqiy-grammatik prinsipga asoslanadi.

Vergulning qo'llanish holatlarini quyudagicha guruhlash mumkin:

1. Sodda gapda vergulning ishlatilishi.
2. Qo'shma gapda vergulning ishlatilishi.

Sodda gapda quyidagi hollarda vergul ishlatiladi:

**1. Gapda bog'lovchisiz, tenglanish intonatsiyasi bilan bog'langan uyushiq bo'laklar bir-biridan vergul bilan ajratiladi:** *Bakovul oldida turli-tuman ro'mol, gilam, kalish, choponlar bo'ldi.* (T. Murod) *Umuman, odamlar hayotlarida bo'lgan xatolar, gunohlarini tan olmaslikka moyil.* (O.M.)

**2. Zidlovchi teng bog'lovchilar vositasida bog'langan uyushiq bo'laklar ishtirok etgan gaplarda mazkur bog'lovchilardan oldin vergul qo'yiladi:** *Yovvoyi quvrayning yaproqlari, gullari va changlarida odamning boshini aylantiradigan, chekkanda hushini eltadigan va xayolini ko'klarda sayr qildiradigan, lekin me'yorida ortsa, ruhni ezadigan, qiynaydigan va oxir-oqibat jinni qilib qo'yadigan moddalar bo'ladi.* (Ch. Aytmatov) *Bo'rilarini uchratgani, ko'kyol bo'ri o'qday uchib boshidan oshib o'tgani, ammo unga ziyon yetkizmagani esiga tushdi.* (Ch. Aytmatov)

<sup>23</sup> Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm ziyo. 2015, 97-b.

<sup>24</sup> Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV jild. – Toshkent: Ma'naviyat. 2006. 211-b.

3. Takror qo'llanuvchi teng bog'lovchi yoki bog'lovchi vazifasidagi birliklar (biriktiruvchi, ayiruvchi, inkor) vositasida bog'langan uyushiq bo'laklar vergul bilan ajratiladi: *Zulflarini toblab-toblab... Ham iboli, ham ginali kulib-kulib... qo'shig aytadi!* (T.Murod) *Emishki, yo kuyov, yo kelin birinchi bo'lib birovi oyog'ini bossa, ana shu ro'zg'orda umr bo'yi o'ktam bo'ladi!* (T.Murod). *Quvonchli damlarda esa xohlasam ham na onamni, na otamni tushimda ko'rolaman* (O'.Hoshimov).

4. Murojaat obyektini ifodalovchi undalmalar gapning boshida kelganda, undan keyin, gap o'rtasida kelganda, har ikki tomonidan, gap oxirida kelganda esa undan oldin vergul qo'yiladi: *Ashurboy, qo'ylarni ushlab, og'ilxonaga qamang!* (T.Murod) *Endi o'ylab o'tirasizmi, Polvonboy, magarkim, yuzingizga oyoq qo'ydimi, endi o'ylash yo'q!* (M.M.Do'st.) *Bunga nima deysan, ey inson!* (O'.Hoshimov).

5. Undovlar gapning boshida kelganda, undan keyin, gap o'rtasida kelganda, har ikki tomonidan, gap oxirida kelganda esa undan oldin vergul qo'yiladi: *E, bo'ldi-e, charchab qoldilaringiz!* (T.Murod) *E, balli, gap bunday bo'пти-da!* *Qani, yuringlar.* (T.Murod) *Shu tobda bir g'aram bedaning ustiga chiqib cho'zilsang bormi, oh, buning gashtiga nima yetsin!* (M.Mansur) *Vaqt-soati yetganga o'xshayapti, uf-f.* (X.Do'stmuhammad).

Ammo gapda undalmalardan oldin kelgan undovlar odatda undash, murojaatni kuchli darajada ifodalash uchun xizmat qiladi, shuning uchun undalmalar oldidan kelgan undovlardan so'ng odatda vergul qo'yilmaydi: *Sen o'zingni o'yla, ey sho'rlik!* (Ch.Aytmatov) *Buddiylar aytganlariday, balki sen, ey ko'kko'z bo'ri, uni odam qiyofasidagi o'z egaching, deb tan olarsan? Nima, shunday bo'lishi mumkin emasmi?* (Ch.Aytmatov)

6. Kirish so'z va kirish birikmalar (so'zlovchining bayon qilinaotgan fikrga munosabatini ifodalaydi) gapning boshida kelganda, undan keyin, gap o'rtasida kelganda, har ikki tomonidan, gap oxirida kelganda esa undan oldin vergul qo'yiladi: *To'g'ri, biz bu ablahning zimmasiga bir nima vazifa yuklagan edik.* (O.) *Juvonning toqati toq bo'ldi, shekilli, dumalayotgan o'g'lini yerdan yulqib ko'tardi.* (O'.Hoshimov). *O'fiobni ona deyishlari, ehtimol, shundandir.* (O'.Hoshimov) *Hali hech kim bilmaydi, menimcha.* (A.Namozov) *Ularning fikricha, Akbarning shuhrati va obro'si davlat manfaatlariga xizmat qiladi.* (P.Qodirov) *Ma'lumotlarga ko'ra, o'smirlar olamidagi jinoyatning 70 foizi aynan shu badmastlik oqibati ekan.* (T.Malik)

7. Kirish gaplar (so'zlovchining bayon qilinaotgan fikrga munosabatini ifodalaydi) ham asosiy gapning boshida kelganda, undan keyin, o'rtasida kelganda, har ikki tomonidan, oxirida kelganda esa undan oldin vergul qo'yiladi: *Bizda, mana, serjant Orziqulov biladi, bir kallada ming xil tashvish.* (T.Murod) *Inga Fyodorovna, esingizda bo'lsa kerak, Sizning yurtinigza borishdan murod – maqola yozish edi.* (Ch.Aytmatov) *Shunday kilib desangiz, o'zim ham bilmagan holda shu orzular tufayli men yo'qlik dag'dag'asiga qarshi ustivor turaman.* (Ch.Aytmatov) *Chorva ham, o'zingiz bilasiz, haminqadar.* (S.Ahmad) *Bir parcha qog'ozga yozilgan jo'ngina xat har qanday odamning*

boshiga yetardi, men sizga aytsam. (A.Muxtor) Sizni dog'da qoldirmaydi, ishonavering! (U.Uteuliyev).

8. Gapda qani, nima, xo'sh kabi so'zlar gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmagan holda turli modal ma'no nozikliklarini ifodalashga xizmat qilib, asosiy gapning boshida kelganda, undan keyin, o'rtasida kelganda, har ikki tomonidan, oxirida kelganda esa undan oldin vergul qo'yiladi: *Qani, polvon bova, davraga chiqing!* (T.Murod) *Xo'sh, u yerda nima rohat ko'rding.* (O.) *Nima, men go'daknidim?* (Sh.Xolmirzayev) *Men qachon nonu tuz ko'tarib yovuzlarga peshvoz chiqqan ekanman, qani, ay!* (A.Muxtor) *Xo'sh, nima qilish kerak endi?* (Sh.Xolmirzayev) *Suvi bir xil, yeri bir xil, lekin ikkita baravarini topib ber, qani?* (A.A'zam)

Ba'zan mazkur so'zlar yonma-yon kelsa, ular ham bir-biridan vergul bilan ajratiladi: *Ko'rganimni aytdim, deysiz. Nimani ko'rdingiz? Xo'sh, qani?* (T.Murod) *Qani, xo'sh, masalan, choynakning qopqog'ini ruscha nima deydi?* (A.Qahhor).

9. Salomlashish-xayrlashish, tabrik, minnatdorlik, tashakkur, uzrxohlik, ma'qullash, rag'batlantirish kabi muomala odatlarini bildiradigan so'z va qoliplashgan birikmalar gap boshida kelsa, undan keyin, o'rtasida kelsa, har ikki tomonidan, oxirida kelganda esa undan oldin vergul qo'yiladi: *Salom, Amirqul aka, hormang!* (O'.Umarbekov) *Xayr, siz bilan kechqurun ko'rishamiz.* (T.Malik) *Uzr, tajribasizlik qilibman.* (A.Meliboyev) *Og'ayni, tegib ketgan bo'lsa, uzr, kechiring.* (A.Obidjon) *Rahmat, do'stlar, buning hojati yo'q.* (P.Qodirov) *Marhamat, keling, o'rtoq Abdurahmonov!* (Sh.Xolmirzayev) *Xudoga shukur, qo'shnilarim tillo odamlar.* (T.Malik) *Shukur, sog', ba'zi ishlar bilan bo'lib kelolmadi.* (A.Qodiriy) *Men esam, shukur, yuzdan o'idim.* (A.Abdullayev).

10. Gapda tasdiq (*ha, xo'p, mayli*) va inkor (*yo'q*) ni bildiradigan so'zlar alohida gap yoki gap bo'lagi vazifasida qo'llanmagan va boshqa gap bo'lagi bilan grammatik aloqaga kirishmagan hollarda ular vergul bilan ajratiladi: *Anavi qo'y yetaklab kelayotgan kuyovi Qurbonnikin? Ha, shuyakan!* (T.Murod) *Xo'p, xo'p, Polvonboy, bizniki tig'iz emas,-dedi Nazar Maxsum.* (M.M.Do'st.) *Mayli, yaxshi o'qish bo'lsa bora qolsin.* (O'.Umarbekov) *Yo'q, u ertaga uchrashuvga bormaydi.* (O.Yoqubov) *Sen-ku, mayli, o'zimiznikisan.* (U.Hamdani).

Tasdiq bildiruvchi so'zlar yonma-yon qo'llanganda, ular vergul bilan ajratiladi: *Ha, mayli, bir piyola choy ichsak ichibmiz-da.* (U.Hamdani) *Xo'p, mayli, agar Otani sizning makoningizga olib borsam, yaxshi kuta olasizmi?* (O.Yoqubov).

11. Gapda takrorlangan so'zlar orasiga vergul qo'yiladi: *Oh, siz qadrdonlarim! – deb irg'ishlardi Petruxa qo'llarini keng cho'llarga yozib ko'rsatib,– Qara, ana yana, ana, ana!* (Ch.Aytmatov) *Kelib, mana, Farhodning uyqusini buzishibdi, uzr, uzr.* (E.A'zam) *Rahmat, rahmat, o'zlari ko'raversinlar.* (E.A'zam) *Bas, bas! Buyog'ini eshiting, opa.* (Sh.Xolmirzayev)

12. Muayyan ikkinchi darajali bo'lakni mazmun va mantiq jihatidan odatdagiga qaraganda kuchli, ta'sirli, emotsional qilib berish, uning ma'nosini izohlash, aniqlashtirish maqsadi bilan mazkur bo'lak gapda ajratiladi va bunday ajratilgan bo'laklarning har ikki tomoniga odatda vergul



**qo'yiladi (ba'zan ifoda maqsadiga muvofiq tire ham qo'llanadi):** *Enaxonning onasi, o'zi pakana va uning ustiga bukchaygan kampir, o'yin qilgan bo'lib, hammani kuldirdi.* (Cho'lpon) *Onam uvushgan oyoqlarini uqalagancha orqaga, bola yig'layotgan tomonga qarab ketdi.* (O'.Hoshimov) *Qayerdadir, yaqin joyda, daryo shovullaydi.* (O'.Hoshimov) *Haligi yigit, qo'lida tuguni bor edi-ku, sariarosh, eriaga ta'tilga chiqar ekan.* (A.G'ulomov) *Nasihatimni, otangning so'zini, esingda tut.* (A.G'ulomov) *Kechqurun, yotar paytda, kampir ikkovini yoniga chaqirib, o'z fikrini aytdi.* (Cho'lpon).

**13. Gapda -(i)b va -gach qo'shimchasi bilan yasalgan ravishdoshlar o'ziga tobe boshqa so'zlar bilan kengayib kelganda, ulardan keyin vergul qo'yiladi:**

Yerga tushib, davraga kirguncha vaqt o'tdi. (T.Murod) *Qaysi bir yil olis bir qishloqdan o'gay akasi kelib, uch-to'rt kun qo'nib ketgan edi.* (Cho'lpon) *Siz, axir, men bilan bir shapaloq yerni talushib, shu to'g'rida nari-beri bo'lishib, shu tufayli shaharga kelib qolgan edingiz...* (Cho'lpon). *So'fining baqirishidan so'ng biroz shoshib turgach, ular yugurganacha uyga kirdilar.* (Cho'lpon) *Hech natija bo'lmagach, uni bo'shatishga qaror qilindi.* (T.Sodiqova). *Maydonga to'rtta nazoratchi kirib kelgach, gazetchilar shaqirlatib suratga tushira boshlashdi.* (N.Eshonqul).

**Ammo -(i)b qo'shimchasi bilan yasalgan ravishdoshlar o'ziga tobe boshqa so'zlar bilan kengaymagan bo'lsa, ravishdoshlar odatdagi ravishlar bilan bir xil ma'naviy-grammatik maqomda bo'ladi va shuning uchun ulardan keyin vergul qo'yilmaydi:** *Bo'ri cholga qarab kulib qo'ydi. Tomog'ini qirdi.* (T.Murod) *Divanda g'ujanak bo'lib uxlab yotar edi.* (O.Yoqubov) *Kotiba ko'zlarini pipiratib chiqib ketdi.* (A.Namozov).

Shuningdek, -(i)b qo'shimchasi bilan yasalgan ravishdoshli qurilmalar tilda idiomatik, frazeologik iboralarga aylanib qolgan bo'lsa, ulardan keyin vergul qo'yilmaydi: *Bugun... yeng shimarib ishlab o'tirsam, qo'ng'iroq bo'lib qoldi.* (A.Meliboyev) *Og'zingga qarab gapir, men Vatan uchun jang qilib edim!* (T.Murod) *Ammo ko'zingga qarab ishla.* (T.Murod) *Zun o'tmay qo'lini yuvib chiqdi.* (O'.Hoshimov).

**14. Gapda -gan qo'shimchasi bilan yasalgan va o'rin-payt kelishigining qo'shimchasini olgan sifatdoshlar o'ziga tobe so'zlar bilan kengayib kelganda, ulardan keyin vergul qo'yiladi:** *Men ko'pincha eski gruzin ko'shiqlarini eshitganda, o'zimni shunday yo'qotib qo'yaman.* (Ch.Aytmatov) *Uzoqdan poezdning chirog'i tushganda, shu sepilgan narsa xuddi yonayoigandek, yo'l, shpallar, relslar alanga ichida qolgandek tuyuladi.* (Ch.Aytmatov) *Ular dabdurustdan o'rinlaridan turishganda, tag'in xijolat hissi ezdi meni.* (Sh.Xolmirzayev) *Qosimjon mashinada xotinini bir aylantirmoqchi bo'lib turganda, eshik taqillab qoldi.* (S.Ahmad)

**Ammo gapda -gan qo'shimchasi bilan yasalgan va o'rin-payt kelishigi qo'shimchasini olgan sifatdoshlar o'ziga tobe so'zlar bilan kengayib kelmagan bo'lsa, ulardan keyin vergul qo'yilmaydi:** *Tisarilayotganda o'zini birdan orqaga ololmadi.* (T.Murod)

Shuningdek, *-gan* qo'shimchasi bilan yasalgan va o'rin-payt kelishigi qo'shimchasini olgan sifatdoshli qunilmalar tilda idiomatik, frazeologik iboralarga aylanib dolgan bo'lsa, ulardan keyin vergul qo'yilmaydi: *Ko'pam hovliqaver manglar, kelinni kelganda ko'r, sepini yoyganda ko'r.* (S.Ahmad) *U kun bo'yi saroydagi do'kondan chiqmas, uyga qosh qorayganda qaytardi.* (T.Malik) *Noinsofning kech kirganda uxlashini qarang!* (Cho'lpon) *Bir yilgacha marosimlarni o'tkazaman deb, qoqqanda qozig'im, osganda xurmacham qolmaydi.* (S.Ahmad).

Qo'shma gapda vergul quyidagi hollarda ning ishlatiladi:

1. **Bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap tarkibidagi gaplar o'rtasida alohida mazmuniy munosabatlar mavjud bo'lmay, bu gaplar bir paytda yoki ketma-ket sodir bo'lgan (bo'ladigan, bo'layotgan) voqea-hodisalarni ifodalasa, odatda ular o'rtasiga vergul qo'yiladi:** *Ko'klamning sayroqi qushlari tabiat ko'rinishlarini kaylamoqdalar, ko'm-ko'k ko'katlar silkinib, qushlarni olqishlamoqdalar.* (Oybek) *Botirlari kanal qazadi, shoirlari g'azal yozadi.* (H.Olimjon) *Sohibqironning bug'doyrang yuzi xiyol qoraydi, ko'zlari katta-katta ochildi.* (M.Ali) *Avval ular bizga yetib olishsin, keyin birga jo'namiz.* (X.To'xtaboyev) *Sidiqjon to'xtadi, orqasidan kimdir kelayotgan edi.* (A.Qahhor).

2. **Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi gaplar o'zaro ammo, lekin, biroq kabi zidlovchi bog'lovchilar bilan bog'langanda, bu bog'lovchilardan oldin vergul qo'yiladi:** *Kishnash ko'rdim, kishnashlar ko'rdim, ammo ushbu oqshomdagidayini ko'rmadim.* (T.Murod) *Endi ko'pkariniyam kitob qilayotgan emish. Yozishga yozdi, lekin tekshirtmadi, chora ko'rdirmadi.* (T.Murod) *Havo aytarli sovuq emas, biroq kuchsiz izg'irin badanni junjiktiradi.* (T.Malik)

3. **Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi gaplar o'zaro -u (-yu), -da yuklamalari vositasida bog'langanda, bu yuklamalardan keyin vergul qo'yiladi:** *Zardam qaynadi. Men nima g'amda-yu, chol nima g'amda!* (T.Murod) *Zum o'lmay qo'lini yuvib chiqdi-da, mehmonlarni kutib olish uchun shoshildi.* (O'.Hoshimov) *Lo'li yigit Hikatilloning kaftini chap qo'liga olib, o'ng qo'li bilan sharaqlatib urdi-da, poyezdga qarab yugurib ketdi.* (O.Yoqubov). Bu holat mazkur yuklamalardan keyin zidlovchi bog'lovchilar qo'llanganda ham saqlanadi: *Bu holat shuv etib o'tib ketdi-yu, lekin kayfiyatimni buzdi.* (A.A'zam) *Soqchilar yaqinlashayotgan qora sharpani ko'rishdi-yu, ammo uxlab qolganlarini o'zlari ham sezishmadi.* (T.Malik).

4. **Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi gaplar o'zaro takrorlangan ayiruvchi bog'lovchilar (yo..., yo...; goh..., goh...; dam..., dam... kabi) bilan bog'langanda, takrorlanayotgan bog'lovchidan oldin vergul qo'yiladi:** *Kurashni asl zo'r polvonlarga chiqargan-da! Yo yiqitadi, yo yiqiladi! Cho'zib o'tirmaydi!* (T.Murod) *Goh katta shaharlarga borib qolaman, goh daryolarda suzaman.* (O'.Hoshimov).

5. **Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi gaplar o'zaro takrorlangan inkor bog'lovchisi (na..., na...) bilan bog'langanda, takrorlanayotgan bog'lovchidan oldin vergul qo'yiladi:** *Bor. o'zimizning kiyimdan kiyib chiq. Buningni na yoqasi bor, na yengi bor, qayeridan ushlab bo'ladi?* (T.Murod)

6. Ergashgan qo'shma gaplarda ergash gap bosh gap bilan *chunki, negaki, shuning uchun, go'yo* kabi bog'lovchilar yoki bog'lovchi vositalar bilan bog'lansa, ulardan oldin vergul qo'yiladi: *Men ularni to'g'ri yo'lga solmoqchiman, shuning uchun bu yerla "yo'ldan urish" degan gap ketmaydi.* (Ch.Aytmatov) *Yuragim toshib ketyapti, chunki faqat seni o'ylayman.* (Ch.Aytmatov) *Tamara sahnada qushday uchadi, go'yo go'zal tovus o'ynab uchadi.* (G'.G'ulom).

7. Ergash gap bosh gapga *-ki* yordamida bog'lansa, undan keyin vergul qo'yiladi: *Shuni mamuniyat bilan ta'kidlaymanki, mening kasb tanlashimga otamning do'mbirasi sababchi bo'lgan.* (M.M.Do'st). *Men sizga nima gunoh qilib edimki, meni munchalik xor-u zor qilasiz?* (T.Murod) *Qanday otasanki, o'z farzandingni bilmaysan?* (T.Murod)

8. Ergash gap bosh gapga deb vositasida bog'lansa, undan keyin vergul qo'yiladi: *Tishimni tishimga qo'yaman deb, tilimni tishlab oldim.* (T.Murod) *Vatan uchun jangga bor deb, qurol berdim qo'lingga.* (H.Olimjon) *Yubkaga mos tushsin deb, qora amirkon yo'g'on poshnalik tuflisini ham berdi.* (O'.Umarbekov).

9. Kesimi shart maylidagi fe'l (*-sa* qo'shimchasini olgan) bilan ifodalangan ergash gapli qo'shma gaplarda mazkur kesimdan keyin vergul qo'yiladi: *Polvonlar sovuq qotsa, ana shu cho'qqa isinadi.* (T.Murod) *Dunyoda qanday yaxshilik va xayriyatlik bo'lsa, hammasini shu birgina qizi uchun istar va orzu qilardi.* (Cho'lpon)

10. Darak, buyruq gap xarakteridagi ko'chirma gapni muallif gapidan ajratishda vergul qo'yiladi. Masalan: – *Astrobodda bag'oyat nomaqbul harakat ro'yo bermish, – dedi Husayn Bayqaro shikoyatlanib.* (O.)

### 3. So'roq belgisi va qo'llanish holatlari

So'roq belgisining kelib chiqishini lotincha *questio* – so'roq so'ziga olib borib taqaydilar. So'roq ma'nosida mazkur so'zning birinchi harfi "Q" ishlatila boshlagan, keyinchalik uning shakli hozirgi holatga (?) kelib qolgan, o'zbekcha matnlarda 1885-yildan boshlab uchraydi. 1900-yildan so'ng muntazam ishlatila boshlangan<sup>25</sup>.

So'roq belgisi gap oxirida qo'llanuvchi asosiy belgilardan hisoblanadi. Uni Fitrat shunday ta'riflaydi: (?) *so'rash belgisidir.* So'rash gaplaridan keyin qo'yiladi: *Ona uchun bu ish mumkinmi? Sen bularning holini bilmaysanmi? O'z quchog'ingdag'i hollardan xabarsizmisan?*<sup>26</sup>

Hozirgi o'zbek adabiy tilida so'roq belgisining qo'llanishi quyidagicha:

1. So'roq mazmunidagi gaplar qanday vositalar yordamida shakllangan bo'lishidan (so'roq olmoshlari, so'roq-taajjub yuklamalari, so'roq intonatsiyasi va sh.k.) qat'iy nazar, ularning har qanday ko'rinishi oxiriga so'roq belgisi qo'yiladi: *Rashk do'stimizmi yoki dushmanimizmi?* (T.Malik)

3. So'roq mazmuni ifodalangan sodda gaplarning ham, qo'shma gaplarning ham oxiriga so'roq belgisi qo'yiladi: *Sen... bu yerda nima qilib yuribsan?*

<sup>25</sup> Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm ziyo, 2015, 100-b.

<sup>26</sup> Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006, 211-b.

(O.Yoqubov) *Esingizdami, bir marta ikkalamiz yalpiz tergan edik?* (O'.Umarbekov). *U qanday qo'llarkim, uzarlar, hidlarlar, yancharlar?* (She'rdan)

Ammo gapda kuchli emotsionallik, his-hayajon mavjud bo'lganda, so'roq belgisidan keyin undov belgisi ham qo'yiladi: *Qachon jilovlab qo'yiladi bu ig'vogar, g'alamislar-a?! Qachon bartaraf bo'ladi bu anonimchilar-a?!* (T.Murod) *O'tgan bozor kuni yegan anoringni o'ynashing olib kelganmidi?!* (A.Qahhor) *Asqarali tog'a, bas endi, shu choyni ichaymi-yo'qmi?!* (T.Malik). *O'g'lingiz ot olmoqchi edi bu pulga, sizda insof degan narsa bormi?!* (T.Malik).

4. Qo'shma gaplar (bog'lovchisiz bog'langan, bog'lovchili bog'langan, ergashgan) komponentlarining har ikkisida ham so'roq mazmuni ifodalanishi mumkin, ammo so'roq belgisi faqat yaxlit qo'shma gapning oxiriga qo'yiladi: *Nega yerda uchrashdilar bu ikki malak, Nega suubat qurmadilar fazolar aro?* (E.Vohidov) *O'rniiga kim ekan – bilsak buladimi?* (E.A'zam) *Biz, rahbarlarga ishonasizmi yo mana shunga o'xshagan podachiga ishonasizmi?* (T.Murod) *Bu o'zingning fikringmi yo biror ko'rsatma bormi?* (T.Malik) *Rang-ro'yingga nima bo'ldi, tuzuknisan o'zi?* (E.A'zam). *Endi bularni kim oladi, kim kiyadi?* (T.Murod)

5. Qo'shma gaplar (bog'lovchisiz bog'langan, bog'lovchili bog'langan, ergashgap) komponentlarining faqat bittasida so'roq mazmuni ifodalanishi mumkin, ammo so'roq mazmunini ifodalagan komponentning oldin yoki keyin turishidan qat'i nazar, so'roq belgisi yaxlit qo'shma gapning oxiriga qo'yiladi: *Otasi ham hayron: kimga tortgan bu qiz?* (O'.Hoshimov) *Avval menga ayting, shu qishloq qizidan olim chiqadimi?* (S.Ahmad) *Shu ahvolda o'lib-netib ketsang, shuncha bola chirqillab qolishini o'yladingmi?* (S.Ahmad) *Darhaqiqat, tuyaning ustiga g'am yukini ortsa, nega kofirlar ozod bo'ladi?* (S.Ahmad) *Esingizdami, bir maria ikkalamiz yalpiz tergan edik?* (O'.Umarbekov) *Jalil ota karaxt tortib qoldi: qayoqdan paydo bo'ldi bu dard?* (Sh.Xolmirzayev) *Qanday donishmand odamsizki, qalbimni darhol bildingiz?* (Sh.Xolmirzayev) *Tushuntirib ayting, o'zi nima gap?* (T.Murod)

6. Ritorik so'roq gaplar oxiriga, asosan, so'roq belgisi qo'yiladi: *Biron orzusi bo'lmagan, biron narsaga intilmagan odamning mushukdan nima farqi bor?* (A.Qahhor). *Biron orzusi bo'lmagan, biron narsaga intilmagan odamning mushukdan nima farqi bor?* (A.Qahhor).

Ammo gapda kuchli emotsionallik, his-hayajon mavjud bo'lganda, so'roq belgisidan keyin undov belgisi ham qo'yiladi: *Xalqini sevgan qaysi farzand Vatanini ozod ko'rishni xohlamaydi?!* (E.A'zam) *Oymomo opaning anavi beldastadan boshqa nimasi bor?!* (T.Murod)

7. So'roq mazmunidagi gaplar sarlavha vazifasida qo'llanganda, ulardan keyin so'roq belgisi qo'yiladi: *Toshpo'lat ujang nima deydi?* (A.Qodiriy) *Men nechum sevaman O'zbekistonni?* (A.Oripov) *Unutmaysizmi?* (Abdulla Qodiriy. "O'tkan kunlar" boblaridan biri) *Bizda kim ko'p yig'laydir?* (Abdulla Qodiriy. "O'tkan kunlar" boblaridan biri) *Taniyanmi shu jaji qizmi?* (Abdulla Qodiriy. "Mehrobdan chayon" boblaridan biri) *Nega yerga qaraysan, Ra'no?* (Abdulla Qodiriy. "Mehrobdan chayon" boblaridan biri) *Saylovmi, bosqinchilikmi?* (Abdulla

Qodiriy maqolasi nomi) *Nima qayoqqa ketadir?* (Abdulla Qodiriy maqolasi nomi).  
*Shirvon xola nima deydi?* (Abdulla Qodiriy maqolasi nomi)

*Kim edigu kim bo'ldik? Ertaga kim bo'lishimiz, qanday yangi marralarni egallashimiz kerak?* (I.Karimov)

8. O'zganing fikr-mulohazasiga shubha yoki e'tiroz-norozilikni ifodalash uchun ba'zan matnda mazkur fikr-mulohaza bayon qilingan iqtibosdan keyin qavsga olingan so'roq belgisi qo'yiladi: *Nasriy ifoda bo'lsa: "Bu Zarafshon daryosi tepalikda joylashgani uchun (?) "Ko'hak" deb nom berdilar... Shu tepalikdan pastga qarab qo'yilgani uchun ham (?) Zarafshonni Ko'hak daryosi deydilar" (104-bet). Samarqand Afrikada yoinki Amerika qit'asida emas, shundaygina ikki qadam joyda, ko'pchiligimiz ko'rganmiz: va Zarafshonning qayerdan, qanday oqishini bilamiz. Hech zamonda daryo tepalikdan pastga qarab oqqanmi?* (N.Komilov. "Tarjimami yo talqin?" maqolasi).

9. *Kim? nima? qanday? qanaqa? qaysi?* kabi so'roq olmoshlaridan so'ng.

*Rang-tusni bildiruvchi sifatlar qanday? qanaqa? qaysi? so'roqlariga javob bo'ladi.*

#### 4. Undov belgisi va qo'llanish holatlari

Undov belgisi o'zbek tiliga rus tilidan o'tgan. Mutaxassislarning fikricha, u lotincha lo – undov so'zidan kelib chiqqan bo'lib, unga nuqta (.) ning qo'shilishidan hosil bo'lgan<sup>27</sup>.

Undov belgisi gap oxirida qo'llanuvchi tinish belgilariga kiradi. Undov belgisi, o'z tuzilishiga ko'ra ikki elementli tinish belgisidir. Undov belgisi badiiy asarlarda (ayniqsa, poeziyada, lirik asarlarda) ko'p qo'llanadi: yozma nutqdagi turli tuyg'ular, holatlar, har xil emotsionalliklarni ifodalashda undov belgisining roli katta. Hozirgi o'zbek tilida undov belgisi takroriy, oddiy va murakkab qo'sha (birgalikda) qo'llanish xususiyatiga ega: undov belgisi bir o'rinda uch martagacha takroriy qo'sha qo'llana oladi. Masalan:

*Seni unutilmas yuragim aslo,*

*Ey, O'rti Osiyo, O'rti Osiyo!!!*

Undov belgisi boshqa tinish belgilari bilan (vergul va ikki nuqtadan tashqari) birgalikda ham qo'llanadi.

Fitrat undov belgisini (!) undash belgisi deb yuritadi: "Undashli gaplaridan keyin qo'yiladi:

*Sharif, sen kel! Karim, sen ket!*

Qayg'uli gaplardan keyin qo'yiladi:

*Esiz, seni ko'rmadim!*

Hayronliq bildirgan gaplardan keyin ham qo'yiladi:

*Voy, Sharifjon kelibdir! Bu juda qiziq bir ish!*

«So'rashli gap» qizg'inliq yo hayronliq bilan aytilsa so'rash belgisidan keyin undash yana belgisi qo'yiladi:

*Nechun meni o'ldiralar?! Menim gunohim nima?!<sup>28</sup>*

<sup>27</sup> Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm ziyo, 2015, 100-b.

<sup>28</sup> Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006, 211-b.

### Undov belgisining qo'llanish holatlari:

1. Undov gaplar oxiriga undov belgisi qo'yiladi: *"Birodarlar, mashina deganlari temir! Joni yo'q! Joni yo'q temir odamga el bo'lmaydi!"*

2. Tarkibida emotsionallikni kuchaytiradigan qanday, qanchalik, qanaqa, naqadar, muncha, bunchalik kabi so'zlar mavjud bo'lgan gaplar oxiriga undov belgisi qo'yiladi: *Mana, farg'onacha kurash. Buyam o'zimizniki! Demak, ikkita kurashimiz bor ekan! Qanday yaxshi! Boylik, boylik!*

*"Eh-he-e-e! – dedi ichida. – Buncha ko'p qog'oz!"*

*Shunday ekan, bir sodiq bandangni bunchalar xo'rlama-da, ey, xudo! Bir sodiq bandangni bunchalar oyoq osti qilma-da, ey, xudo! U naqadar murakkab va naqadar ulug'!* (O'.Umarbekov) *Bu yo'l naqadar ulug, sehrli va muqaddasdir!* (U.Hamdani)

3. Emotsionallik darajasi kuchli bo'lgan ritorik so'roq gaplar oxiriga ba'zan undov belgisi qo'yiladi: *Ona o'z bolasiga yomonlikni ravo ko'radimi!* (A.Qahhor). *Qiladigan kasbingiz tappi yopish bo'lsa, nafaqangizni oshirib bo'ladimi!* (T.Murod) *Izidan o'g'il qoldirib, otasi uchun motam tuttirmagan erkak, erkak bo'ptimi! Orqasidan qiz qoldirib, enasi uchun qora kiydirib, aza ochdirmagan ayol, ayol bo'ptimi!* (T.Murod)

4. Buyruq, talab, undash emotsional shaklda buyruq maylidagi fe'l yoki boshqa vositalar orqali ifodalangan buyruq gaplar oxiriga undov belgisi qo'yiladi: *Shukur qiling! Sevining! Mundoq bir kuling! Kulimsirang! Iljayning!* (Cho'lpon) *Otingni bog'lab, buyoqqa yur!* (T.Murod) *Qo'lingizni oling, birodar! – dedim.* (T.Murod)

5. His-hayajon intonatsiyasi bilan talaffuz qilingan nominativ gaplar oxiriga undov belgisi qo'yiladi: *Shunday go'zalga musht ko'tarish!* (O.Yoqubov) *Ammo bu og'riq, bu xo'rliklarga chidamoq!* (E.A'zam).

6. Murojaat obyektini ko'rsatuvchi, ya'ni vokativ gaplar odatda emotsionallikka ega bo'ladi va ular oxiriga undov belgisi qo'yiladi: *Ona tilim! Mehring bu qadar o'rtaguvchi ekan joninga.* (E.Vohidov) *Do'stlar! Siz ham Matmusa hikmatin unutmanglar.* (E.Vohidov) *Enaxon! Jonim o'rtog'im! Bormisiz?* (Cho'lpon).

7. Emfatik urg'u olgan so'zni emotsionallikni kuchaytirish maqsadida takrorlash holatlari mavjud bo'lgan gaplar oxiriga undov belgisi qo'yiladi: *Ha, ot surmoq darkor, ot surmoq!* (O.Yoqubov) *Yonib yasha to tanda jon bor, Quyosh bo'lg'in, azizim, quyosh!* (E.Vohidov) *Zebixonni qarang. Zebixonni!* (Cho'lpon). *Qoch yo'ldan, qoch! Men Momoqizga yolvorgani ketgapman! – dedi.* (T.Murod) *Tarlanni yo'qlab qarayin dedim. Boshimni ko'tarayin dedim. Bo'lmadi, bo'lmadi!* (T.Murod)

8. Emotsionallikni kuchaytirish maqsadida bo'laklari inversiv holatda (odatdagi tartibdan farqli) qo'llangan gaplar oxiriga undov belgisi qo'yiladi: *O'lganim yaxshi mening! – dedi u. – Ko'ngildagidek bir siylay olmasam mehmonlarimni!* (Cho'lpon) *Yetar endi!* (Ch.Aytmatov) *Bo'ldi endi! Ishmi ish!* (Ch.Aytmatov)

9. Undovlar alohida gap vazifasida kelganda, undan keyin undov belgisi qo'yiladi: *Oh! U yoqda xo'rladilar, bu yoqda kaltakladilar.* (R.Haydarova) *Hoy! Ovqatlarimgan darak bormi?* (O'.Umarbekov) *Obbo! Yana kutarkanmiz-da!*

(O' Umarbekov) *Kisht! Kisht-ye, qirilibgina ketgur!..* (Sh. Boshbekov). *Hay-hay! Qarang, ana qarang! – deya ko'zlarini katta-katta ochdi Mamat bobo.* (T. Murod)

10. Tarkibida his-hayajon undovlari mavjud bo'lgan gaplarda emotsionallik yorqin ifodalanadi va bunday gaplar oxiriga undov belgisi qo'yiladi: *O ayol qalbi! Dunyoda mavjud barcha fojialar sel bo'lib yopirilsa chidar-u, ammo erining xiyonatiga sira-sira chiday olmas!* (T. Malik) *Ey Odam farzandlari! U o'limni va hayotni sizlarning qaysi birlaringiz amalda yaxshiroq ekanliklaringizni sinash uchun yaratgandir.* (T. Malik) – *O-o-o, haloling bo'l-e, kuyov-e, haloling bo'l-e!..* (T. Murod)

11. Salomlashish-xayrlashish, tabrik, minnatdorlik, tashakkur, uzrxohlik, ma'qullash, rag'batlantirish kabi muomala odatlarini bildiradigan gaplarda dam ko'pincha emotsionallik yorqin ifodalanadi va ularning oxiriga undov belgisi qo'yiladi: *Men ketdim! Xayr!* (O' Hoshimov) *Xayriyat!* (*Bu kimsasiz orolda biittagina insofli tirik odam bor ekan!*) (T. Malik) *O'farin, ofarin!* – *deya, boshini sarak-sarak qildi Mamat bobo.* (T. Murod) *Ha, Momoqizning oldiga, ha!* – *dedi.* (T. Murod)

12. Gapda emotsionallik darajasining behad ortiq ekanligini ko'rsatish uchun ba'zan gap oxiriga birdan ortiq (uchtagacha) undov belgisi qo'yilishi mumkin: *Ha-a-a!! Sen hali meni uyingdan haydayapsanmi?! Meni-ya?!* (T. Murod)

*Ha-a-a!!! Meni-ya?! O'z otangni-ya?!.* (T. Murod)

*Boshimda haq nikohlik egam turibdi-ku!!!* (T. Murod)

13. Undov gaplar sarlavha vazifasida qo'llanganda ham ularning oxiriga undov belgisi qo'yiladi: *Qulug' bo'lsin!* (A. Qodiriy, "O'tkan kunlar" boblaridan biri). *Xayr endi, Ra'no!* (A. Qodiriy, "Mehrobdan chayon" boblaridan biri). *Og'zingga qarab gapir!* (Abdulla Qodiriy maqolasi nomi). *Bozor surishtirmaydir!* (Abdulla Qodiriy maqolasi nomi)

14. O'zganing fikr-mulohazasiga muallifning o'ta ma'qullash, alohida ta'kidlash, rozilik yoki kinoya-achchiqlanish, ajablanish munosabatini ifodalash uchun ba'zan matnda mazkur fikr-mulohaza bayon qilingan iqtibosdan keyin qavsga olingan undov belgisi qo'yiladi: *Iqtisodiy yuksalish natijasida turmush darajasi sezilarli ravishda yaxshilangan – onalar o'limi 2 barobar, bolalar o'limi 3 barobar kamaygan, odamlarning o'rtacha umr ko'rishi 61 yoshdan 73 (!) yoshga, jumladan, ayollarning o'rtacha umr ko'rishi 75 (!) yoshga yetgan.* (A. Brohimov. "Umrimiz boqiydir, boqiy!" maqolasi) *Lekin bu fikrlarga kelguncha she'rning markaziy qismidagi vaqtning yangi tufli kiyib o'tishiyu lirik qahramonning eti (!) eski tufillardek teshilib ketishi nimani anglatadi, harchand tirishmay, idrok etolmadim.* (B. Nazarov. "Yigirma yoshdagi shoirlarimiz" maqolasi).

15. Undalmalar kuchli to'xtam bilan aytilsa, undan so'ng undov belgisi qo'yiladi: *Odamning azal tartibot qurilmasini ostin-ustun qilishni o'ylagan. Bevosh tentak! Qoyil-e! Yo'q, bunday odamni sira tirik qoldirish mumkin emas.* (Ch. Aytmatov)

## TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Nuqta o'zbek yozuvida qachondan boshlab qo'llanila boshlagan?
2. Nuqta asosan qaysi o'rinlarda qo'llaniladi?
3. Matematika fanida nuqtaning vazifasi nima?

4. Nuqta qaysi o'rinlarda uslubiy vosita sifatida qo'llaniladi?
5. Vergul o'zbek yozuvida qachondan boshlab qo'llanila boshlagan?
6. Vergul sodda gaplarda asosan qaysi o'rinlarda qo'llaniladi?
7. Vergul qo'shma gaplarda qaysi o'rinlarda qo'llaniladi?
8. Kirishlar, undov so'zlar qanday holatda vergul bilan ajratiladi?
9. So'roq belgisi o'zbek yozuvida qachondan boshlab qo'llanila boshlagan?
10. So'roq belgisi asosan qaysi o'rinlarda qo'llaniladi?
11. Undov belgisi o'zbek yozuvida qachondan boshlab qo'llanila boshlagan?
12. So'roq va undov belgilari qanday hosil qilingan?
13. Undov belgisi qaysi o'rinlarda qo'llaniladi?

#### **Adabiyotlar:**

1. Nazarov K. Egamberdiyev B. O'zbek tili ishora-imlo qoidalari. –T.:O'qituvchi, 1996.
2. Mahmudov N., Madvaliyev A., Mahkamov N. Punktatsiya – fikrni yozma mukammal ifodalash vositasi // O'zbek tili va adabiyoti. 2015, №1, 57-79 betlar.
3. Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006, 210-b.
4. Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm ziyo, 2015, 95-120-betlar.

#### **10-Mavzu: Tinish belgilarining qo'llanish holatlari (nuqtali vergul, ikki nuqta, ko'p nuqta belgilari)**

**Tayanch tushunchalar:** nuqtali vergul, ikki nuqta, ko'p nuqta, kirishlar, remarkalar, sitatalar, bog'lovchisiz qo'shma gap, uyushiq bo'laklar, numerativlar, mazmunan tugallanmagan gaplar, matn qisqarishi.

#### **Reja:**

1. Nuqtali vergulning qo'llanish holatlari
2. Ikki nuqtaning qo'llanish holatlari
3. Ko'p nuqta belgisining qo'llanish holatlari

Nuqtali vergulning o'zbek yozuvida qo'llana boshlashi XIX asrning oxirlariga to'g'ri keladi. U o'zbekcha matnlarda 1885-yillardan boshlab qo'llangan<sup>29</sup>.

Nuqtali vergul (;) bir tinish belgisidir. Bir-birlariga baylanishli bo'lg'anlari uchun nuqta bilan ajralishlari istanilmagan gaplar orasig'a qo'yiladir: *Ota ko'ngli bolada; bola ko'ngli dalada. Mulla bilganing o'qur; tovuq ko'rganin cho'qur. Yaxshi otg'a bir qamchi; yomon otg'a ming qamchi*<sup>30</sup>.

<sup>29</sup> Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm ziyo, 2015, 115-b.

<sup>30</sup> Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006, 211-b.



Nuqtali vergul, yozma nutqda qo'llanish o'miga ko'ra aralash holda ishlatiladigan tinish belgilari guruhiga kiradi. Nuqtali vergul, gapning tugallanish chegarasini ko'rsatish bilan birga, uning ma'no jihatdan keyingi gapga yaqin emasligini ham bildiradi: ma'nosi o'zaro uzviy bog'liq bo'lmagan, ya'ni hodisani turli tomondan izohlovchi gaplarning chegarasini ko'rsatadi.

Nuqtali vergul ikki elementli tinish belgilaridan sanaladi: unda nuqta va vergul vertikal holatda (;) joylashadi. Shuning uchun ham uning nomi nuqtali verguldir. Yozma matnlarda nuqtali vergul boshqa tinish belgilariga nisbatan kam qo'llanadi.

Hozirgi o'zbek tilida nuqtali vergul quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

1. Gapda uyushiq bo'laklar me'yoridan ortiq ko'p bo'lganda, ularni muayyan bir tarzda guruhlab berish zaruriyati tug'iladi va ayni shu guruhlarning har biri nuqtali vergul bilan ajratiladi: *Demak, bu daraxt ro'dapo boyar choponlarini-yu xipcha kamzul, yasama sochlarni; qora frak va silindrlar-u, charm kurka va budyonovkalarni; shalviragan ishtonlaru torpocha shimlarni ko'rgan.* (R.Hamzatov). *Gerb rangli tasvirda bo'lib, Humo qushi kamushrangda; quyosh, boshog'lar, paxta chanog'i va "O'zbekiston" degan yozuv tillarangda; g'o'za shoxlari va barglari, vodiylar yashil rangda; tog'lar havorangda; chanoqdagi paxta, daryolar. yarimoy va yulduz oq rangda beriladi.*

2. Muayyan tasnif tarkibidagi tartibni bildiruvchi raqamlar (yoki harflar) qavs bilan ajratilgan bo'lsa, ular bilan ko'rsatilgan so'z, so'z birikmasi va gaplar oxiriga (eng so'nggisidan tashqari) nuqtali vergul (ba'zan vergul) qo'yiladi: *Nutq ham til va yozuv kabi ikki xil shaklga ega: a) og'zaki nutq; b) yozma nutq.* («Hozirgi o'zbek adabiy tili» darsligi) *Affiksal morfemalar ma'nosi va jazifasiga ko'ra ikki turli bo'ladi: 1) so'z yasovchi qo'shimchalar; 2) shakl yasovchi qo'shimchalar.* (Q.Sapayev)

3. Bog'lovchisiz yoki murakkab qo'shma gap tarkibidagi gaplar mazmunan sezilarli mustaqil bo'lib, bir-biriga mazmunan bevosita yaqin bo'lmaganda, odatda ular orasiga nuqtali vergul qo'yiladi: *Hamidanning boshi og'irlashib ketdi; ikki marta sekin, og'zini ochmasdan esnadi.* (A.Qahhor) *Faqat pashsha g'ing'illaydi, bemor inqillaydi; har zamon yaqsin-yiroqdan gadoy tovushi eshtiladi.* (A.Qahhor) *U otasi singari baland bo'yli, keng yag'rini; otda ko'p yurgani uchun oyog'ini kerib tashlaydi, ovda ko'p bo'lganidan fikrini qo'l harakati bilan ham tushuntirib gapiradi.* (Sh.Xolmirzayev) *Chet yoqalariga barra qo'zi terisi yopishtirib tikilgan, yoqasi ochiq pochapo'stin kiygan bo'lsa, o'ziga, po'stini keng ko'kragiga yarashib turgan bo'lsa, o'ziga; sog'lom, baquvvat, o'ktam, ko'zlari tiniq, tami misday bo'lsa, o'ziga; Bozorboydan besh yosh katta bo'lsa, o'ziga; uning bular bilan necha pullik ishi bor. axir.* (Ch.Aytmatov)

4. Bog'lovchisiz yoki murakkab qo'shma gap tarkibidagi gaplar bir nechta bo'lsa, ularning mazmunan bir-biriga yaqinlari vergul bilan ajratilib, qolgan muayyan bir yoki bir nechta nuqtali vergul bilan ajratiladi: *Dunyoda boshqa bunday baxtiyor odam yo'q, bo'lmagan ham; omadim bor ekan, men xuddi nog'orasini chertib o'yinga tushayotgan yovvoyi odamga o'xshayman.* (Ch.Aytmatov) *Cho'ponning ishi qaynagan palla: mol haydaydi, ko'ch-ko'ronini*

tashiydi va hammasidan og'irrog'i, qo'ylarning junini qirqadi; bularning hammasi qo'shilib, bosh qashigani qo'l tegmay qoladi. (Ch.Aytmatov) Vaholanki, ketaman deb, ariza berib ko'r-chi, darrov senga miliisiyani to'g'rilashadi, pasportni olib qo'yishadi, hech qanday hujjat-pujjat berishmaydi; bor, akasi, ishingni qil, ketishga ruxsat yo'q, deyishadi. (Ch.Aytmatov)

5. Bog'lovchisiz yoki murakkab qo'shma gap tarkibidagi gaplarda ifodalangan voqea-hodisalarni solishtirish, qiyoslash mazmuni aniq ifodalanganda, ular orasiga nuqtali vergul qo'yiladi: *Ba'zilar ularning juda-juda inoq yashashlarini aytisharmish; ba'zilar esa aksincha, gap tarqatisharkanki, osmondan tushib, yerdan chiqqandek ko'payishib ketgan odamlarning bir-birlarini ko'rishga ko'zlari, otishga o'qlari yo'q deyisharkan.* (Sh.Bo'tayev) *Ana, Ildam ham hozir-u nozir: mana, Suyginoy – onasining ko'zlariga tik va sadoqat bilan boqadi; ularning yonida Toshchaynar, nari borib-beri kelib turibdi.* (Ch.Aytmatov) *Ozgina yolg'on ham ulug' gunohdir; ozgina zahar ham halok qiluvchidir.* (A.Navoiy)

6. Bir qancha gaplar uyushganday bo'lib, yaxlit bir bog'lovchisiz qo'shma gapni tashkil etganda, ular orasiga nuqtali vergul qo'yiladi: *Razzoq so'fining sovuq yuzlari uning ko'zlaridan yiroqlashganlar; nasihat yo'li bilan minglarcha marta aytilgan va ta'kidlangan so'zlar unutilgan; sovuq sufilarning "harom" degan da'volari sinib, parcha-parcha bo'lgan; "nomahramlik" safsatalari ot oyoqlari ostida yanchilgan; to'rt devorning bu tutqun qizi o'ziga o'xshagan tutqunlardan boshqa hech bir guvoh va tilchi bo'lmagan shu keng dalaning quloch yetmas bag'rida yillardan beri tug'ilib kelgan alamlarini kuyga aylantirib, cheksiz bo'shliqlarga yoyib yuborgan edi.* (Cho'lpon). *Kamdan-kam uchraydigan qilg'ilik bilan qo'lga tushgan; jazo bataloni kazarmalarida bor-yo'g'i erkaklar bilan yotgan; xizmat mavqeidan foydalanib, ularni shunga majbur qilgan, xolos.* (Ch.Aytmatov)

## 2. Ikki nuqtaning qo'llanish holatlari

Ikki nuqta o'zbek yozuvida XIX asming oxiri va XX asming boshlaridan e'tiboran ishlatila boshlangan.

Ikki nuqta (:) qo'sh nuqta. Bu sharh, izoh belgisidir. Undan keyin kelaturg'an gap bundan burung'i gapning izoh ham sharhi bo'ladi: *Bu kun uch kishi bilan ko'rishdim: Sharif, Karim, Ahmad<sup>31</sup>.*

Ikki nuqta – ikki elementli tinish belgi. U nuqtaning vertikal holatdagi kombinatsiyasi asosida shakllangan, shuning uchun ketma-ket emas, ustma-ust qo'yiladi, ya'ni (:) shaklida. Ikki nuqta o'zbek tilshunosligida "bayon belgisi", "bayon alomati" deb ham yuritiladi.

Ikki nuqta aralash qo'llanuvchi tinish belgilar jumlasiga kiradi.

Ikki nuqtaning boshqa tinish belgilari bilan qo'sha qo'llanishi kam uchraydi. U nuqta, so'roq, undov, nuqtali vergul, ko'p nuqta va vergul bilan birgalikda qo'llanmaydi.

<sup>31</sup> Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006, 212-b.

Ikki nuqtaning qo'llanish holatlari:

1. Muayyan fikr-mulohaza, hukm, ilmiy ta'rif, qoida kabilarni ifodalovchi gaplardan keyin ayni fikr-mulohaza, hukm, ta'rif, qoidalarning to'g'riligini asoslash uchun keltirilgan birdan ortiq dalilni faktlarni ta'kidlab ko'rsatish maqsadida ikki nuqta qo'yiladi: *U (gap) ega va kesimdan yoki ega-kesim va ikkinchi darajali bo'laklardan iborat bo'ladi: Saida kuldi. Qalandarovning ko'zlari olayib ketdi. (A.Q.) Tong: havo salqin, yumshoq shamol mayingina esib turibdi. (A.G'ulomov).*

Ba'zan bunday hollarda mazkur gaplardan keyin masalan, misol, dalil, chunonchi kabi so'zlar qo'llanishi mumkin, bunda ikki nuqta ayni so'zlardan keyin qo'yiladi: *U (gap) ega va kesimdan yoki ega-kesim va ikkinchi darajali bo'laklardan iborat bo'ladi. Masalan: Saida kuldi. Qalandarovning ko'zlari olayib ketdi. (A.Q.) Tong. Havo salqin. Yumshoq shamol mayingina esib turibdi. (A.G'ulomov).*

2. Tasniflash qoliplari aks etgan gaplarda tasnif asosini ifodalovchi gapdan keyin tasniflangan birliklarni ta'kidlash uchun ikki nuqta qo'yiladi: *So'zlar tuzilishi jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi: 1) sodda so'zlar; 2) qo'shma so'zlar; 3) juft so'zlar; 4) takroriy so'zlar; 5) qisqartma so'zlar. (Q.Sapayev)*

3. Uyushiq bo'lakli gaplarda umumlashtiruvchi so'z bu bo'laklardan oldin kelsa, umumlashtiruvchi so'zdan keyin ikki nuqta qo'yiladi: *Bu sirmi faqat uch kishi: Abdulla, o'zi va Samad bilardi. (O'.Umarbekov) Ichkaridagilar: chaqaloqning otanonasi, opa-akalari, Shavkatning ikkita sherigi ham qulab tushgan tom tagida qolib ketdi... (Sh.Boshbekov) Qish bo'yi allaqaysi go'r ostlarida junjib chiqq'an qush zotlari: chumchuqlar, chittaklar, to'rg'aylar, sa'valar va boshqa allaqancha qush turkumlari o'z to'plari bilan vijir-vijir, chugur-chugur sayrab kuladirlar. (A.Qodiriy).*

4. Ba'zan uyushiq bo'laklarni alohida ta'kidlash maqsadi bilan ular gapdan tashqariga chiqariladi, bunday hollarda bevosita umumlashtiruvchi so'zdan keyin emas, balki asosiy gapdan keyin ikki nuqta qo'yiladi: *Lekin undan qimmatli narsalar ham bor: obru, vijdon, aql, madaniyat. (O'.Umarbekov) Bu doston hali kuylanmadi. Dostonni uch odam bildi: Momoqiz, Nasim, o'zi bildi. (T.Murod) To'ylovchi ayollar sochqilar sochdi: yong'oq, pista, mayiz... (T.Murod) Muxbir so'ramish, kotib aytmish o'sha bandayi mo'minlar ko'z o'ngidan bir-bir o'ldi: Xolliyev, Saidov, To'rayeva... (T.Murod)*

Gapda umumlashtiruvchi so'z bo'lmagan hollarda ham asosiy gapdan keyin uyushiq bo'laklarni ta'kidlash uchun ikki nuqta qo'yiladi: *Mana shu qizil "Jiguli" damiz: xotinim, o'g'lim, qizim. (Sh.Xolmirzayev) Manavi barmoqlarim bilan sanab aytaman: ovozlarning ichida cholnikiyam bor – bir! Yoshnikiyam bor – ikki! Momonikiyam bor – uch! Qiznikiyam bor – to'rt! Chaqaloqnikiyam bor – besh! (T.Murod)*

5. Bog'lovchisiz qo'shma gapda keyingi qism oldingi qismdagi olmosh (yoki olmoshga vazifadosh so'z, gap, odat, narsa, tomon, fikr kabi mazmuni tavsiflanishi lozim bo'lgan so'zlar) bilan ifodalangan yoki ifodalanmagan eganing mazmunini izohlab, aniqlab kelsa, oldingi qismdan keyin ikki nuqta qo'yiladi: *Yarq etib yorishgan xayolimga yana shular keldi: insonda bu narsalarning hammasi – musiqqa, tarona, munojot, qo'shiq qaerdan, ularning odam bolasiga qanday zaruriyati bor va bo'ladi? (Ch.Aytmatov) Militsiyaga bir narsa qorong'i edi: u*

*tasodifan tushib ketganmi yo o'zini tashlaganmi?! (O'.Umarbekov) Pishmagan yong'oqning bitta yaxshi tomoni bor: og'ir bo'ladi. (O'.Hoshimov). O'shanda uning xayoliga yomon fikr keldi: mashina xotinini yoki o'zini bosib ketganda nima bo'lardi? (O'.Umarbekov).*

6. Bog'lovchisiz qo'shma gapda keyingi qism oldingi qismdagi olmosh (yoki olmoshga vazifadosh so'z) bilan ifodalangan kesimning mazmunini izohlab, aniqlab kelsa, oldingi qismdan keyin ikki nuqta qo'yiladi: *Mening senga javobim shu: birinchidan, haqiqat haqi aytilgan so'zdan qaytish yo'q, zero, Sen o'zing shuni istayapsan. Ikkinchidan – qilmagan ishingning jurmini gardanga olmoq joiz emas va qorakuya kabi bo'htonlardan ko'krakka urmoq bilan qutulib bo'lmas. (Ch.Aytmatov) Va'zxonning vazifasi ham shu: chin dildan samimiy so'z yuritish, hech qanday xavf-xatarga qaramay so'z bilan fidokorlarcha tushuntirish. (Ch.Aytmatov) ...Uning maqsadi bitta: sayg'oqlarni pistirma yotgan tomonga haydab borish, ana o'sha yerda u o'g'lonlariga ov qanday bo'lishini ko'rsatadi. (Ch.Aytmatov) Erkak kishi o'zi shunaga: bir kun uyda bo'lsa, o'n kun ko'chada. (O'.Umarbekov).*

7. Bog'lovchisiz qo'shma gapda keyingi qism oldingi qismdagi olmosh (yoki olmoshga vazifadosh so'z) bilan ifodalangan yoki ifodalanmagan to'ldiruvchining mazmunini izohlab, aniqlab kelsa, oldingi qismdan keyin ikki nuqta qo'yiladi: *Bo'ri polvon bildi: polvonlar hal etuvchi vaziyatni – toboq qo'yilishini kutyapti. (T.Murod) U o'zicha mo'ljal qildi: Hozir olishmoqchi bo'lib o'g'iriladi. (T.Murod) Bo'ri polvon o'ylab qaradi: bundayin dabdabali yurishlari bilan o'z niyatiga yetishi amrimahol bo'ldi. (T.Murod)*

8. Bog'lovchisiz qo'shma gapda keyingi qism so'roq shaklidagi gapdan iborat bo'lib, oldingi qismdagi ifodalangan yoki ifodalanmagan to'ldiruvchining mazmunini ochishga xizmat qilganda, oldingi qismdan keyin ikki nuqta qo'yiladi: *Bu yerda bo'rilar maslahat ma'raka qiladilar: kim quvishga boradi, kim pistirmada qoladi?.. (Ch.Aytmatov) Bo'ri polvon o'ylab qoldi: unda borib nima qiladi? (T.Murod) Ular inson jamoatchiligi uchun odatiy bo'lib qolgan bu narsalarni nimalarga yo'naltirar ekanlar: yaxshiliklarni yo yomonlikka, tuzishgami yo buzishgami?.. (Ch.Aytmatov)*

9. Bog'lovchisiz qo'shma gapda keyingi qism oldingi qismda ifodalangan voqea-hodisaning sababini bildirsa (ikki gap orasiga *chunki* bog'lovchisini qo'yish mumkin bo'lsa), oldingi qismdan keyin ikki nuqta qo'yiladi: *Bo'ri polvon ko'ngli uvishib-uvishib ketdi: shu yotmish bandalar yaqin-yaqinlarda tirik edi, eson-omon edi. Endi esa yo'q... (T.Murod) Ko'nglimni zo'r bir xushvaqtlik qitiqlar emish: ushbu behishtga birinchi bo'lib men qadam qo'yibman! Ahay-ahay! (T.Murod) Yanglishasiz: men ko'klarga berkingan yer qizidan xayolimni olmaymen. (Cho'lpon).*

10. Bog'lovchisiz qo'shma gapda oldingi qism keyingi qismda ifodalangan voqea-hodisaning sababini bildirsa (ikki gap orasiga *shuning uchun* bog'lovchi vositasini qo'yish mumkin bo'lsa), oldingi qismdan keyin ikki nuqta qo'yiladi: *Omon ovchining ov sarguzashlari ko'plarni qiziqtirardi: ko'plari hikoya eshitish uchun kelardi. (Sh.Xolmirzayev) U haligi yuksak qahqahani eshitgach, uning*

ma'nisini angladi: yugurib Zebining yoniga kirdi. (Cho'lpon). *Bo'ri polvon ko'tarilib-ko'tarilib ketdi: el Bo'ri polvonni qora tortib keldi!* (T.Murod)

11. Bog'lovchisiz qo'shma gapda keyingi qism oldingi qismda ifodalangan voqea-hodisaning natijasini, oqibatini bildirsa, oldingi qismdan keyin ikki nuqta qo'yiladi: *Tilovberdi polvon Abray polvon ko'zlariga tikildi: Abray polvon ko'zlari hayiqdi! Ana endi hamlaga o'tsa bo'ladi!* (T.Murod)

12. Bog'lovchisiz qo'shma gapda keyingi qism oldingi qismdagi olmosh (yoki olmoshga vazifadosh so'z) bilan ifodalangan yoki ifodalanmagan aniqlovchining mazmunini izohlab, to'ldirib kelsa, oldingi qismdan keyin ikki nuqta qo'yiladi: *Ey Salomxon, bu eshon pochchanning o'g'illari bir yigit bo'ldi: o'ktamlikdayam, suqsurlikdayam tengi yo'q.* (M.Mansur) *Shoirlardan doimo talab: O'qimog'i kerak yangi she'r va aytmog'i kerak yangi gap.* (E.Vohidov) *Sizdan bugun birgina o'tinch: Yolg'iz qo'ying meni, do'stlarim.* (E.Vohidov) *Adolatxondan xunuk bir xabar keldi: u Samarqanddagi maktabni bitirib, Toshkentga ketibdi.* (A.Qahhor).

13. Qo'shma gapning oldingi qismida ko'rmoq, qaramoq, diqqat qilmoq, eshitmoq, bilmoq, tushunmoq, sezmoq, eslamog kabi fe'llar qo'llanib, keyingi qismda keladigan muayyan fakt bayoni yoki muayyan tavsifga semantik ishora qilib tursa, ikki qism orasiga ikki nuqta qo'yiladi: *Boshda rais yurish qilib ko'rdi: qo'llari ortda, oyoq uchlari ikki yoqqa kerilgan.* (N.Norqobilov) *Ha, aytganday, Bo'ri polvonning ko'pni ko'rgan ko'zlari bir nimani sezib qoldi: Abray polvon ko'kragini berib olishdi.* (T.Murod) *O'zim ham bilgan edim: katta omburga chap berib bo'lmaydi.* (A.Qahhor) *Muhammad Churog'a dodxoh esladi: besh yil avval Samarqandda Bog'i Behisht mehmonxonasida ham xuddi shunday voqea yuz bergandi.* (M.Ali) *Bular darvozadan chiqib, muyulishga yetganda u yoqdan O'lmasjon ko'rindi: charchagan otini horg'in-horg'in qamchilab, asta-asta sudralmoqda edi.* (Cho'lpon).

14. Qo'shma gapning keyingi qismi oldingi qismdagi mazmuni umuman izohlab kelsa, ikki qism orasiga ikki nuqta qo'yiladi: *Hamidning tushi o'ngidan keldi: u ertasi kuni darsdan xushxabar bilan qaytdi.* (E.A'zam) *Chiroqlar uch marta o'chib yondi: chiroqchi to'y xizmatchilarini ogohlantirdi.* (T.Murod) *Daraning aholisi o'z ishi bilan mashg'ul: o'spirinlar podalarni haydab chiqib ketadi, erkaklar qo'sh qo'shib shudgor qilmoqda.* (S.Ayniy) *Musofir muxlis uni darrov tanidi: u tanimay kim tanisin!* (E.A'zam) *Sobiq maktabdoshini tanib-tanimay, noqulayroq biror gapni ko'zg'ab solishidan yuragi taka-puka bo'lib o'tirgan Oqsoqol shoir, nihoyat, yengil tortdi: shunisiga ham shukr!* (E.A'zam).

15. Ko'chirma gapdan oldin kelgan (muallif gapidan) so'ng: *Rais ogohlantirdi: "Ertayoq yerni shudgorlash ishlarini boshlash lozim".*

16. Reja, mavzu, qaror qilindi) kabi so'zlardan so'ng: *Mavzu: "Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni".*

17. Uslubiy ravonlikni, muxtasarlikni ta'minlash maqsadida turli xil rasmiy ma'lumotlarda, nashr ishlarida ayrim so'zlardan keyin: *Toshkentda "O'zbek tilshunosligi: kecha va bugun" mavzusida yettinchi an'anaviy respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi bo'lib o'tdi.*

18. Sport musobaqalarida raqiblar o'rtasidagi hisobni ifodalash uchun: *Sidneydagi XXVII yozgi olimpiada o'yinlarida hamyurtimiz Muhammadqodir Abdullayev raqibini 27 : 21 hisobi bilan yengdi.*

### 3. Ko'p nuqta belgisining qo'llanish holatlari

Ko'p nuqta XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'zbekcha matnlarda ishlatila boshlangan. Dastlab u ruschadan qilingan tarjima matnlarida, keyinchalik gazeta sahifalarida qo'llana boshlaydi. 1876-yildan e'tiboran "Turkiston viloyatining gazetisi"da muntazam qo'llangan<sup>32</sup>.

Ko'p nuqta A.Fitrat tomonidan (...) nuqtalan deyiladi. Gapning bir bo'lagi qanday bir sabab bilan aytilmay qolsa, uning joyig'a nuqtalar qo'yiladi:

*Bosqon izin ko'rmay o'tkan tuyoqlar*

*Toptab-toptab... Oh, aytolmam ketini!*<sup>33</sup>

Ko'p nuqtaning vazifasi murakkabdir. U, odatda, turli his-hayajonni ifodalovchi, ma'no jihatdan tugallanmagan gaplar oxiriga qo'yiladi. Bunday gaplar barcha nutq uslublariga xos yozma matnlarda uchraydi.

Ko'p nuqta, o'z tarkibiga ko'ra uch elementi tinish belgisi hisoblanadi, ko'p nuqta deyilganda ketma-ket qo'yilgan uchta nuqta tushuniladi. Ko'p nuqtaning qo'llanish o'rni (joyi) ham murakkabdir: u gap oxirida, o'rtasida va boshida, hatto so'z o'rtasida ham qo'llanaveradi.

Yozuvchi o'zining har qanday maqsad va istaklarini, turli emotsional holatlarini ko'p nuqta vositasida beradi. Bu jihatdan ko'p nuqtaning yozma nutq uchun ahamiyati kattadir.

Ko'p nuqta hozirgi o'zbek tilida quyidagi holatlarda ishlatiladi:

1. Mazmunan tugallanmagan darak gaplar oxiriga ko'p nuqta qo'yiladi: *To'yni kelasi yil qilsak qitarmiz...* (A.Qahhor) *Cho'nqaymaning qaltis taraflari tag'in ko'p...* (T.Murod) *Poyezdga bilet olib qo'yg'an bo'lsak, poyezd uch soatdan keyin ketsa...* (A.Qahhor) *Bo'lmasa, kunda nima ayb, xudoning hamishagidek karami keng bir kuni...* (A.A'zam).

2. Gapdagi tuzilishlarni ko'rsatish uchun ko'p nuqta qo'yiladi: *Hay-hay, ukani, shundoq baobro' odam sizni ko'rgani kelsa-yu, siz xursand bo'lish o'rniga...* (A.A'zam). *Oqibat... Bo'ri polvon... Polvon nomini olgandan buyon umrida birinchi marta yelkasi yer ko'rdi!* (T.Murod)

3. Gap muallifining o'ylanib qolish, ikkilanish, hayajonlanish kabi holatlarini ko'rsatish uchun ko'p nuqta qo'yiladi: *O'zing tengi bolalar lager palatkalarida maza qilib uxlab yotganida, sen suv sepib, yo'lka supurishing... Nima desam ekan... Sal alam qiladi kishiga.* (O'.Hoshimov) *Ammo ko'ngli tub-tubida yashirinib yotmish nimadir... nimadir bu istagini rad etdi.* (T.Murod) *Bo'ri, men... seni aldab edim.* (T.Murod)

4. Nutqda kutilmaganda bir fikrdan boshqasiga o'tib ketishni ko'rsatish uchun gapda ayni o'tish o'miga ko'p nuqta qo'yiladi: *Seni siypab, erkalatib, Asta-sekin ko'kartirgan Go'zal ko'klam... o'tib ketdi.* (Cho'lpon) *Yarim kechada uyga qaytsam...*

<sup>32</sup> Nurmonov A., Sobitov A., Qosimova A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm ziyo, 2015, 104-b.

<sup>33</sup> Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006, 213-b.

hamma yoq jimjit. (O'.Hoshimov).

5. Gapda berilgan sanoqdagi qatorni yana davom ettirish mumkinligini, uning tugamaganligini ko'rsatish uchun ko'p nuqta qo'yiladi: *Gullarning nomini juda topib qo'yishadi-da, — dedi, — tugmachagul, gulibeor, qirq og'ayni, ossaldirg'och...* (N.Eshonqul) *Bolaligimda ko'p kasal bo'lardim: qizamiq, ko'kyo'tal, bezgak...* (O'.Hoshimov). *Dasturxonda turfa noz-ne'matlar, palov-nisholda, holva... bo'ldi.* (T.Murod) *To'ylovchi ayollar sochqilar sochdi: yong'oq, pista, mayiz...* (T.Murod)

6. Mazmuni aniq ochilmagan gaplardan keyin ko'p nuqta qo'yiladi va undan keyin shu mazmuni ochadigan gap keltiriladi: *1914 yil... Shu yildan o'zbek she'riyati osmonida "Cho'lpon" degan mitti yulduz charaqlay boshladi.* (N.Karimov).

7. Matnda muayyan sabab bilan uzilib qolgan fikr bayonining davom ettirilganini ko'rsatish uchun gap boshiga ko'p nuqta qo'yiladi: *...Bolaligimni eslasam, iliq yoz kechalari ko'z oldimga keladi.* (O'.Hoshimov) *...Bu tushning oxiri emas edi. Bu ibtidosi edi.* (N.Eshonqul).

8. Sarlavha vazifasida qo'llangan gaplardan keyin mazmun taqozosiga muvofiq ko'p nuqta qo'yiladi: *Bir yigit kaylar ekan...* (Oybek. She'r sarlavhasi) *Yoshlikni eslab...* (Oybek. She'r sarlavhasi) *Iztirob ekan-ku muhabbat!..* (X.Do'stmuhammad. Hikoyalar turkumining nomi).

9. Suhbatdoshining gapi javobsiz qoldirilsa

— *Manavi dub eshiklaringizni yelkamda tashib kelganman. Tushundingizmi?*

— ...

— *Tushundingizmi, deyapman?* (X.Sultonov)

10. Tushirib qoldirilgan harf, so'z yoki boshqalar o'mida: *Nuqtalar o'rniga kerakli harfni qo'yib ko'chirib yozing. Xayri...x, a...loq, ...abar.*

11. Tutilib aytilgan so'z va iboralarni aks ettirish uchun yozma nutqda ko'p nuqta qo'yiladi.

Masalan: - *Xurshida bonu?... Siz ... Sizmu?*

### TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Nuqtali vergul o'zbek yozuvida qachondan boshlab qo'llanila boshlagan?
2. Ikki nuqta asosan qaysi o'rinlarda qo'llaniladi?
3. Ko'p nuqta o'zbek yozuvida qachondan boshlab qo'llanila boshlagan?
4. Nuqtali vergul asosan qaysi o'rinlarda qo'llaniladi?
5. Ko'p nuqta asosan qaysi o'rinlarda qo'llaniladi?

### Adabiyotlar:

1. Nazarov K. Egamberdiyev B. O'zbek tili ishora-irmlo qoidalari. — T.: O'qituvchi, 1996.
2. Mahmudov N., Madvaliyev A., Mahkamov N. Punktuaitsiya — fikrni yozma mukammal ifodalash vositasi // O'zbek tili va adabiyoti. 2015, №1, 57-79 betlar.
3. Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV jild. — Toshkent: Ma'naviyat, 2006, 210-b.
4. Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. — Toshkent: Ilm ziyo, 2015, 95-120-betlar.

## 11-Mavzu: Tinish belgilarining qo'llanish holatlari (qavs, tire, qo'shtirnoq belgilari)

**Tayanch tushunchalar:** qavs, tire, qo'shtirnoq, kirishlar, remarkalar, sitatalar, bog'lovchisiz qo'shma gap, uyushiq bo'laklar.

### Reja:

1. Qavsning qo'llanish o'rinlari.
2. Tirening qo'llanish o'rinlari
3. Qo'shtirnoqning qo'llanish o'rinlari

Qavs o'zbek yozuvida XIX asrning oxirgi choragidan qo'llanila boshlangan. Dastlab "Turkiston viloyatining gazetisi" da 1873-yilda ishlatilgan<sup>34</sup>.

A.Zohiriyning "Imlo"si o'zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi bo'yicha dastlabki ilmiy-metodik qo'llanmadir. Uning 3-qismi tinish belgilarining qo'llanishi qoidalariga bag'ishlangan bo'lib, "Xatlar orasida rioyasi lozim ishorat va vaqf alomatlari" deb sarlavha qo'yilgan.<sup>35</sup> Qavs belgisining xususiyatlariga ham to'xtaladi: "Ishorati" "( )" (qavsayn yoki tafsir ishorati) bir so'zning ma'nosini so'z orasida bayon qilg'onda yoki so'z orasida biror mazmuni eska tushurub ketmoqchi bo'lg'onda, ikki chetiga qo'yilur. Chunonchi, *Arz (er) yumaloqdur. Johil (nodon) kishilarning suhbatlari aqlni kamaytirur*".

Qavs belgisining ikkinchi alomatini muallif shunday izohlaydi: "... yoki so'z orasida biror mazmuni eska tushurub ketmoqchi bo'lg'onda ikki chetiga qo'yilur".<sup>36</sup> So'zlarni to'plab bir-biriga baylab gap tuzishda "o'y" qulay anglashilsin deb turli belgilar ishlatiladir.

Fitrat qavs haqida shunday deydi: () yoylar. "Kirish so'z"larning hammasi yoylar orasida yoziladir. Kirish so'zlarning iki tomonida iki yoy o'rnida ikki "y" belgisi qo'ymoq ham bo'ladir:

*Bu zot Amerika, Olmoniyo (Girmaniya), Angliya, Yapo'niya, Firansiya, Bilgiya va shuning kabi har davlatlarni yodlab bilar edi.*

(A.Q.)

*Bizda o'zlarini ulamo atag'anlar (Bizda haqiqiy ulamo yo'qdir) butun taraqqiy ishlariga qarshi turdilar.*

Kirish so'zlarining iki tomonida, yoylar joyig'a chiziqalar qo'yilsa-da bo'ladir:

*Bu kichkina, o'ksuz, oppoq bibaklar –*

*Ucha, ucha yetmay qolg'an tilaklar –*

*Eskan yelning qo'llarig'a o'zini*

*Tashlab qo'yar borlig'ini unitar*<sup>37</sup>.

<sup>34</sup> Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm ziyo, 2015, 103-b.

<sup>35</sup> Bu haqda qarang: Tog'ayev T. Ashu'ali Zohiriy va uning tilshunoslik mas'ala: Filol. fan. nom. ... diss. – Toshkent, 2005, 46-b.

<sup>36</sup> Tog'ayev T. Ko'rsatilgan dissertatsiya. 60-b.

<sup>37</sup> Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006, 212-b.



Qavs vazifasiga ko'ra chegaralovchi tinish belgilari jumlasiga kiradi: yozma nutqdagi muayyan qismlarning boshlanish va tugallanish nuqtasini ko'rsatib, mazkur qismning sintaktik jihatdan boshqa qismlar bilan kuchsiz bog'langanligini, semantik jihatdan u yoki bu darajada aloqadorligini bildiradi. Qavsqa olingan qism tinch ohang, kirish intonatsiyasi bilan aytiladi.

Qavs tuzilish jihatdan ikki elementli tinish belgisi sanaladi. Uning birinchi elementi ochiluvchi qavs, ikkinchi elementi esa yopiluvchi qavs deb yuritiladi. Yopiluvchi qavs yozma nutq jarayonida mustaqil holda ham qo'llana oladi: bunda u raqamlashda (raqam yo harf bilan) ishlatiladi.

Qavs, odatdagi shaklidan tashqari, kvadrat shaklda ham qo'llanadi. Kvadrat shakldagi qavs "katta qavs", odatdagi qavs esa ("katta qavs"ga nisbatan) "kichik qavs" deb yuritiladi.

"Katta qavs" matematika, geometriya, ximiya kabi fanlarga oid yozma matnlarda ko'p uchraydi. Boshqa sohaga oid matnlarda esa ikki qavsning takroriy qo'sha (bir o'rinda parallel) qo'llanishi zarur bo'lganda, ularning biri "katta qavs" shaklida (kvadrat shaklda) ishlatiladi. "Katta qavs"dan transkripsion belgilar ifodasida foydalaniladi.

Hozirgi o'zbek tilida qavsning qo'llanish doirasi va vazifasi kengaydi. Ilgari faqat asosiy gap bilan ma'nosi yaqin bo'lmagan qismlar qavsqa olingan bo'lsa, hozirgi kunda asosiy matn bilan semantik jihatdan uzviy aloqador bo'lgan qismlar ham qavsqa olinadi.

Qavsning yozma nutq jarayonida qo'llanish o'zmi chegaralanmagan: qavs gap boshida, gap o'rtasida va gapning oxirida kela oladi. Qavs gap o'rtasida kelganda, qavs ichidagi matn ma'nosining undan oldingi yoki keyingi jumlagacha taalluqliligi matndan aniqlanadi.

Hozirgi o'zbek tilida qavs quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

1. Gap ichida asosiy fikrga qo'shimcha sifatida beriladigan izoh, ma'lumotni ifodalaydigan kiritma so'z yoki birikma qavsqa olinadi: *Uni birinchi marta To'la aka (T.Xo'jayev)ning repetitsiyasida ko'rganman. (A.Meliboyev) Gulya Lagutina ichkarigi xonada o'ziga o'xshashib ketadigan (yo armani, yo ozari) bir ayol bilan achomlashib-cho'lpillashib, pichir-pichir qila boshladi. (E.A'zam) Bunga kaminaning qulog'ida va tevaragida kuchaygan (botiniy va zohiriy) shovqin ham sabab bo'ldi-yov. (E.A'zam) Farhodning taxminicha, kinoga bevosita daxldor bir-ikkitasini aytmasa, davradagilarning aksariyati (kelib-ketuvchilarini ham qo'shganda) anchayin san'at atrofida o'ralashib yuradigan, ammo o'zini unchamunchadan kam sanamaydigan omadsizroq bir toifa edi. (E.A'zam) Bordi-yu, hushyorlik qilinmaganida, qora bozorga kamida 50 ming so'mlik (o'sha yillarning bahosida) zahri qotil mahsulot chiqib ketgan bo'lar edi. (A.Meliboyev) Jarohat o'ruiga qov (kuydirilgan paxta) qo'ydi. (G'G'ulom).*

2. Gap ichida asosiy fikrga qo'shimcha sifatida beriladigan ma'lumotni ifodalagan kiritma gap qavsqa olinadi: *O'sar Hojarga uylangach (uylanganigayam yigirma yildan oshdi), ana shu eski uychaga taqab bir dahliz va bir mehmonxonayotoqdan iborat boshpana qurib olgan edi. (Sh.Xolmirzayev) Qarasam, bolalikdan birga o'sgan "o'ris o'rtog'im" Vali tushib kelyapdi (asl ismi Valentin ekanini*

keyin bilganman). Ustida o'sha kir ko'ylagi bilan gardi ro'moli, etagida qo'ng'iz kovlab ketgan besh-oltita g'ovak tezak (shuni bahona qilib chiqqan), birov urganmi, o'zi yig'laganmi, ko'zlari qizargan... Zaynab yovqarash bilan, yalt etib dushmaniga qaradi, (ha, u yori emas, dushmani edi!) o'rnidan turdi. (Tohir Malik)

3. Boshqa tildagi gapning yoki boshqa tildagi muayyan bo'lakning tarjimai qavsiga olinadi: *Ok. Continue the fly* ("Taxsh. Uchishda davom eting"). (I.Sulton) *Yes, sir* ("Xo'p buladi, ser"). (I.Sulton) Mening birinchi maqolalarim qirg'iz tilida chiqadigan "Emgek dangi" ("Mehnat shuhrati") nomli tuman gazetasida bosilgan. (A.Meliboyev). Bu hodisa tilshunoslikda pronominalizatsiya deyiladi. (pronom – lotincha olmosh degan ma'noni bildiradi). (Q.Sapayev)

4. Gap ichida asosiy fikrga muallifning subyektiv munosabatini ifodalaydigan kirish so'z yoki birikma qavsga olinadi: *Muqaddas esa* (ajabo!) *go'yo hech narsani sezmas, u nimagadir sevinib, hadeb kular...* edi. (O.Yoqubov) *Birov o'q borib uning qo'liga tekkan desa, boshqa birov (Astag'furulloh!) naqd og'ziga tekkan deydi.* (E.A'zam) *Menga bitilgan xatni ikki kun (ikki kun-a) saqlab yuribsiz, o'sha ikki kun mobaynida xayolan ikki yuz ming ko'chaga kirib chiqanimni iasavvur qilasizmi?* (X.Do'stmuhammad) *Tuyqus yon tomondan qo'llarida cho'qmor (ha ha rostakam cho'qor!), korjoma kiygan ikki barzangi sahnaga kirib keldi.* (E.A'zam). *Balki Mo'yinqumdan pul topib qaytgunimcha, Inga Fyodorovna ham kelib qolar va hammasi joy-joyiga tushib ketar: yoki u (o, qanday baxt!) sevgani bilan butkul qovusha-di, yoki orqaga qaytishga, yana yashash uchun o'zida kuch topishga to'g'ri keladi... Lekin bunisidan u juda-juda qo'rqadi...* (Ch.Aytmatov)

5. Gap ichida asosiy fikrga muallifning subyektiv munosabatini ifodalaydigan kirish gap qavsga olinadi: *Ko'ngil qo'yganlari boshqa edi, boshqalar edi. Uni biz bilamiz (Bilmaylar ketaylik, iloyim!).* (E.A'zam) *Sizning xayollaringizni ostin-ustun qilgan o'zimdagi fazilatlarini (Rostdan ham, bormi ular?) topib, ardoqlab yashayman.* (X.Do'stmuhammad) *Boylar bo'lsa na fuqaroni bir chaqaga oladi (bunisi-ku mayli-ya), na mingboshini (mana munisiga chidab bo'lmaydi!). Ochiqdan-ochiq so'kadi, haqorat qiladi...* (Cho'lpon). *Kandalov ko'pni ko'rgan kishi, temir yo'l yong'indan saqlash idorasida komendant bo'lib joylashib olgan, ilgari harbiyda va buning ustiga jazo batalonida xizmat qilgani, (bir balosi bordir-ku, axir!) cho'ldagi shoshilinch tadbirga juda mos tushardi.* (Ch.Aytmatov)

6. Sahna asarlari matnidagi turli izoh, remarkalar qavs ichida beriladi: *SOHIBOIRON. Yo'q! Bari Oллоhdan. Yaralgan egamning xohishi shul erkan. O'z jannatidan joy ato qilg'ay!* (Qalqonbekka). *Dafn taraddudini ko'ringlar! (Yuziga fотиha tortadi. Saragulni o'rnidan turg'izadi).* *Sen qachon kelding bu maskanga?* (O.Yoqubov) *OLIMJON (Alomatga qarab turib). Iye, bu o'chib qopti-ku... (Robotning yelkasidagi blokni kavlashtira boshlaydi.)* (Sh.Boshbekov). *Ayiq: (Pufakka ishora qilib) Orqada yov turibdi, Ko'p chalg'imang, xo'jayin. Sher: (Pufakka sarosimali hoqib qo'yib Tulkiga yuzlanadi).*

7. Fikr manbavi, uning muallifi ismi sharifi, manba haqidagi ma'lumotlar qavs ichida beriladi: *Qayerda kurash bo'lmasa, u yerda o'sish ham bo'lmaydi. Kim birovga chuqur qazisa, bunga o'zi yiqiladi* (Maqol). *Hasanxon qayda bo'lsa, qiy-chuv ham shunda bo'lur* (O'zbek xalq dostonidan).

6. Tasniflarda (puqtadan farqli holda) yarim qavs ishlatiladi: *So'zlar tuzilishi jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi: 1) sodda so'zlar; 2) qo'shma so'zlar; 3) juft so'zlar; 4) takroriy so'zlar; 5) qisqartma so'zlar.* (Q.Sapayev)

9. Muayyan **birliklarning variantlar** qavs ichida beriladi: *-gi (-g'i, -ki, -qi, g'u). Bu affiks yasash asosi anglatgan harakat quroli, holat va narsa oti yasaydi. Odaida, jarangli va sonor undosh bilan tugagan asoslarga -gi, -g'i affiksi, jarangsiz undosh bilan tugagan asoslarga -ki, -qi affiksi qo'shiladi.* (Q.Sapayev)

Eslatma. Qavsdan matematika fanida ham keng foydalaniladi.

$(57 + 38) - 17 = ?$

[ ] ko'rinishidagi qavsdan foydalanish hollari ham ko'p uchraydi. Masalan, egalik qo'shimchasi qo'shilganda shah[a]ri, o'r[i]jni, sing[i]lisi so'zlaridagi "a", "i" tovushlari qoidaga ko'ra tushiriladi kabi.

## 2. Tirening qo'llanish o'rinlari

Tireni amaliyotga rus yozuvchisi N.M. Karamzin (XVIII asr) kiritgan. U o'zbek yozuvida XIX asrning 70-yillaridan boshlab ishlatila boshlangan<sup>38</sup>.

Fitrat tireni **chiziq** deb nomlaydi: Iki-uch kishining bir-biriga gapirishlarini yozg'anda har birining gapidan burun chiziq yoziladi:

*Yana xalq churillashib ketdi:*

*– Barakalla taqsir, barakalla!*

*– Bo'sh kelmadilar taqsim!*

*– Hali bellari baquvvat ekan taqsimning!*

*(Cho'lpon)*

Yaxshi-yomon, katta-kichik, bola-chaqa, qo'zi-echki kabi bir-birig'a qarshi bo'lg'an yo bir turli munosabati bo'lg'an so'zlar orasig'a chiziq qo'yiladi<sup>39</sup>.

Hozirgi o'zbek tilida tire eng ko'p qo'llanadigan tinish belgilaridan hisoblanadi.

Tirening qo'llanishidagi barcha xususiyatlari logik-grammatik, uslubiy, qorishiq va differentsiatsiya prinsiplariga ko'ra belgilanadi.

Tire – aralash holda qo'llanuvchi tinish belgilaridan biri. U gap qismlari va gap bo'laklari orasidagi grammatik munosabatlarni ko'rsatish uchun ishlatiladi.

Tire yakka va takror qo'llana oladi: yakka holda qo'llanganda gap bo'laklarini ajratish, takror holda (qo'sh tire holatida) ishlatilganda esa ma'lum bo'laklarni chegaralash, chegaralangan bo'lakning ma'nosini ta'kidlash, bo'rttirish, emotsionallikni oshirish kabi vazifalarni bajaradi.

Tire – murakkab vazifali tinish belgisi. Uning yozma nutq jarayonida o'taydigan vazifasi (ma'no va vazifalari) turli xildir. Tirening ayrim vazifalari vergul va qavsning vazifalariga (ajratilgan bo'laklar, kirish va kiritma konstruksiyalarda qo'llanishi) o'xshab ketadi. Bu uning omografik xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Lekin tire vositasida ajratilgan bo'lakda chegaralanish, ma'noni ta'kidlash, emotsionallik, ajratilgan bo'lakning nisbiy mustaqilligini oshirish kuchli bo'ladi.

<sup>38</sup> Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm ziyo, 2015, 96-b.

<sup>39</sup> Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006, 213-b.

Hozirgi o'zbek tilida tire sodda va qo'shma gap tarkibida qo'llanadi. Tire yozma nutq jarayonida quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) gap bo'laklarini ajratadi; 2) gap bo'laklarini chegaralaydi; 3) gaplarning birini ikkinchisidan ajratadi; 4) kiritma konstruksiyalarni ajratadi va chegaralaydi; 5) turli maqsadlarni – emotsionallikni ifodalaydi; 6) tushirib qoldirilgan ayrim bo'laklar o'mini qoplaydi.

Tire sodda gapda quyidagi vazifalarda qo'llanadi:

1. Ot kesim ot, son, olmosh, harakat nomi, taqlidiy so'zlar yoki ular hokim bo'lgan so'z birikmalari bilan ifodalanib, bog'lamasiz qo'llanganda, ega va kesim orasiga tire qo'yiladi: *Ulug' ustozlarim so'zi – qoida.* (I.Mirzo) *O'g'ilni uyqantirish – otaning vazifasi.* (A.Mamarasulov) *Uyqu – umrning tanobi!* (Cho'lpon) *Samarqand – olamning sayqali, ko'rki.* (I.Mirzo) *Bu – hayvonlarga xos bo'lnagan xislat.* (H.Shayxov) *Dunyo go'zali – sen, qadoqqo'l singlim.* (I.Mirzo) *Ikki o'n besh – bir o'ttiz.* (Maqol) *Lekin hozir bizni qiynayotgan birdan-bir masala – siz bilan bevosita fikr almashish metodikasini aniqlash.* (H.Shayxov) *Oyoq osti – "chilip-chilip", Zirqiraydi eski yaralar...* (A.Muxtor) *Shabnam, bu – tunda oy to'kkan achchiq yosh, Hovur, bu – quyoshning ko'ksida alam.* (I.Mirzo).

2. Ammo ot kesim inkor shaklida (ya'ni undan keyin inkor ifodalovchi *emas* so'zi kelgan) bo'lsa, ega va kesim orasiga tire qo'yilmaydi: *Har qalay, er xotinning yugurdagi emas.* (A.Mamarasulov) *Salim Karimovich yomon odam emas.* (O.Yoqubov) *Bu yol emas, do'mbira tori, do'mbira tori!* (T.Murod)

3. Agar ega bilan ot kesim orasida kirish so'z, undovlar kelsa, ular orasiga tire qo'yilmaydi: *Rashk, avvalo, kuchli muhabbat belgisi.* (O'.Hoshimov) *Tantana qahramoni, albatta, Bahrom Farang.* (M.Xujayev).

4. Ega bilan ot kesim orasida *ham, faqat* kabi yuklamalar kelgan bo'lsa, ot kesimdan oldin tire qo'yilmaydi: *Rahmat ham o'qituvchi. Velosiped ham transport vositasi. Mening bilganim faqat Sunnatullayev.* (T.Malik).

5. Ot kesimli gap tilda idiomatik, frazeologik iboralarga aylanib qolgan bo'lsa, ega va ot kesim orasiga tire qo'yilmaydi: *Insomning qo'li gul.* (Maqol).

6. Ega kishilik olmoshlari bilan ifodalanganda, odatda ot kesimdan oldin tire qo'yilmaydi: *Sen Luffyning so'lim g'azali.* (A.Oripov) *Sen urush qatnashchisi.* (T.Murod). Ammo qarshilantirish ma'nosi voqelanganda, tire qo'yiladi: *Men – o'qituvchi, sen – talaba.*

7. Ot kesim (yoki ega) so'roq olmoshlari bilan yoki yuklamali so'zlar bilan ifodalanganda, ega va ot kesim orasiga tire qo'yilmaydi: *Do'sting kim? Do'sting nechta? To'y qachon? Oralaringda chaqqon va bilag'on Botirmi? Suv sening shaxsiy mulkingmi?* (E.A'zam).

8. Ot kesim sifat, ravish, tartib son yoki egalik olmoshi bilan ifodalanganda, ega va kesim orasiga tire qo'yilmaydi: *Dalalar ko'm-ko'k. Havo toza, musaffo, zangor.* (E.Vodidov) *Issig'i baland, alahsiraydi.* (T.Malik) *Ammo Miryoqub akaning yurishi ko'p!* (Cho'lpon) *O'sha anal seniki, xijolat tortma.* (A.Namozov) *Mana shu uy-joy turish-turmushi bilan seniki.* (T.Murod) *Eti sizniki, suyagi meniki, deb uyiga tashlab kelaman.* (S.Ahmad) *Mening o'g'lim hamisha birinchi...* (T.Murod).

9. Makon, zamon va miqdor chegaralari ("...dan ...gacha")ni ko'rsatuvchi so'zlar orasiga tire qo'yiladi: *Andijon – O'sh yo'lini quyuq, tuman bosgan.*

(S.Ahmad) XII – XVI asrlarda bu shahar Yassi deb yuritilgan. (N.Karimov) *Yosh Mirtemirning eski maktabda o'qigan davri 1914–1915-yillarga to'g'ri keladi.* (N.Karimov) Moskva – Olmaota poezdi Saratov yerlarini orqada qoldirib, ikki kundan beri Qozog'iston cho'llaridan borardi. (T.Murod)

10. Gapda uyushiq bo'laklardan keyin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan oldin tire qo'yiladi: *Yozuvchining shaxsiga, qanaqa asarlar yozayotganiga, qanday yozishiga, hatto kechasi yo kunduzi yozishigacha – hamma-hammasiga qiziqadilar.* (S.Ahmad). *Shu ajib bayramni tortiq qilish uchun meni yetaklab kelgan tasodifga tahsinlar o'qir, o'zimda yo'q quvonar, butun vujudim go yoki vaqidan, makondan butkul xoli bo'lib, ko'z ilg'amas kengliklarga chiqqan bunda o'tgan kunlar xotirasi ham, shu onlarning sezim va tushunchalari ham, kelajak orzulari ham – bari-bari mening barcha bilgan narsalarim, boshdan kechirganlarimga mo'jizakor bir tarzda qo'shilib, birlashib ketganday edi.* (Ch.Aytmatov) *Qarshimizda na sahna, na mikrofon, na parda – bunaqa narsalar yo'q.* (Ch.Aytmatov)

11. Gapda umumlashtiruvchi so'zdan keyin kelgan uyushiq bo'laklar aniqlashtirish, izohlash, ilova mazmuniga ega bo'lsa, umumlashtiruvchi so'zdan keyin ikki nuqta emas, balki tire qo'yilishi mumkin: *Olooh taolo bul yulduzlarni uch maqsadda – osmonga ziynat, shaytonlarga otiladiringan tosh hamda bandalariga yo'l ko'rsatuvchi alomatlar bo'lmogi uchun yaratdi.* (N.Jaloliddin) *Aytil beraversa barchaga barin – Omadu judolik va yonganini, Rashk, umid, alami va afsuslarin, Aldagani, quvonganini.* (A.Muxtor) *Zotan, ziyolikka bir qarashingizdayoq unda uzoq, asrlar mobaynidagi murakkab taraqqiyot jarayonida yuzaga keluvchi fikrlovchi mavjudotga xos hamma sifatlar – aql, farosat, bahodirlik, ko'tarinki ruh, olijanoblik, yumor va hokazolarni payqab olish sira qiyin emasdi.* (H.Shayxov). *Hammalari – oltovlon ham yettinchi ham, otlarni apil-tapil egar-jabdukdan chiqarib, charchoqning zo'ridan o'zlarini ham tappa-tappa yerga tashlaydilar.* (Ch.Aytmatov) *Shuni bilganday uchta azamat chopar – Petruxa, Avdiy, Lyonka yetib kelishgan edi.* (Ch.Aytmatov)

12. Gapda umumlashtiruvchi so'zdan keyin kelgan uyushiq bo'laklarni kuchli ta'kidlash zaruriyati mavjud bo'lgan yoki ular ajratilgan izohlovchidagi qo'llangan hollarda uyushiq bo'laklar ikki tomonidan tire bilan ajratilishi mumkin: *Sudda juda ko'p narsalar – tergovchilarning jinoyatkorona xatti-harakatlarayu, dastlabki sudning yuzakiligi, tergov va sudning protokolidagi qalbakiliklar – aniq isbotlar bilan fosh qilindi.* (N.Aminov) *Ikkala yosh – yuzlari kulgani, ko'ngillari yozilgan – qo'ltiqalshib, qyvonga bordilar.* (Cho'lpon).

13. Gapda aniqlashtirish, izohlash mazmunidagi ajratilgan bo'laklardan oldin tire qo'yilishi mumkin: *Gangrenaga – qorasonga aylanib ketsa nima bo'ladi?* (S.Ahmad) *Bu masalani hal etish, chamasi, hushyor, dovyurak, idrokli aqli raso, iste'dodli yoshlarimiz – kelajak avlodlar zimmasiga tushadi.* (M.Hasaniy) *Alibek eng asosiysi – majaqlangan inni yerga tashlagandan keyin darhol tepkilash kerakligini esdan chiqargan ekan.* (A.Mamarasulov) *Xalqaro savdo yo'li – Buyuk ipak yo'li Temur va temuriylar davrida juda serqatnov bo'lgan.* (B.Ahmedov) *Tashqarida – gulzor tomonda esa ola grongi'lik hukm surardi.* (Cho'lpon). *Shu payt pastda – mashina yonida qadam tovushlari eshitildi.* (Ch.Aytmatov) *Yangi*

*bo'ri xonadoni – Toshchaynar bilan Akbaraning qismatlari mana shu yerlarda kechadigan edi.* (Ch.Aytmatov)

14. Ajratilgan bo'laklarni gapda alohida ta'kidlash zaruriyati bo'lganda, ular har ikki tomonidan tire bilan ajratilishi mumkin: *Toy hammadan uzoqdan – Beshqo'rg'ondan – o'ziga o'xshash yuvosh sigirini oldiga solib kelardi.* (O'.Hoshimov) *Oyim ko'p tayinlagani uchun biz – bolalar – unga tegmasdik.* (O'.Hoshimov) *Shuhrat Salimovich – mening sobiq yordamchim, meditsina fanlari kandidati, dotsent – xonamga kirib keldi.* (H.Shayxov) *Shu topda uning juda ehtiyot bilan – hech bir sharpa chiqarmay – bosgan qadamlarining bo'shang shitirlashi ham o'tirganlarga malol kelgan kabi edi.* (Cho'lpon)

15. Kirish va kiritma birliklar gapda har ikki tomonidan tire bilan ajratilishi mumkin: *Bittasi – ularning kattasi bo'lsa kerak – yonidagi sherigiga "beshikni yo'qot" deganday ishora qildi.* (Sh.Boshbekov) *Chaqaloq – tonggi salqinda sovuq qotganmi, yo qorni ochganmi – big'illab yig'lardi.* (Sh.Boshbekov) *Gulmiraning onasi – og'zi to'la tilla tish, pakana, semiz ayol – barmoqlari bilan stolni asabiy chertib o'tiribdi.* (Sh.Boshbekov) *Abdulhamid Sulaymon o'g'li – boyagi o'n to'qqiz yashar yigit – shunday xatti-harakatga jur'at etgandi.* (N.Karimov) *Miryoqub – bir joyda bir nafas o'tirolmaydigan narsa – olti-yetti kundan beri mingboshi yonidan jilmaydi.* (Cho'lpon). *Ular jomening tagida joylashgan pastki qavatlarida – buni kript deyishar ekan, – kechki konsertlar uyushtirishib, ularda tirik eksponatlarni qatnashtirisharkan.* (Ch.Aytmatov) *Ular o'zlarining nimasiga ishonarkin. Nihoyat, o'ng tomondan uchinchi bo'lib turgan qo'shiqchi – u to'daning yetakchisi shekilli – ishora qildi va qo'shiq boshlandi.* (Ch.Aytmatov)

Tire qo'shma gap turlaridan asosan **bog'lovchisiz qo'shma gapda** qo'llaniladi:

16. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida o'xshatish munosabati ifodalanganda, ular orasiga tire qo'yiladi: *Hamal keldi – amal keldi.* (Maqol) *Qor yog'di – don yog'di.* (Maqol) *Yulduz o'chadi – Yo'qlik dunyosiga ko'chadi.* (A.Muxtor) *Ot bitdi – qanot bitdi.* (T.Murod)

17. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida savol-javob munosabati ifodalanganda, shuningdek, faqat birinchi qismi savoldan iborat bo'lganda, ular orasiga tire qo'yiladi: *Atrofda nima ko'p – kaniyo zavodlari ko'p.* (H.Shayxov). *Yetimlik nima – mendan so'rayver.* (Sh.Boshbekov) *Xayolidan ne o'ylar o'rdi – yolgiz xudoga ayon.* (Sh.Boshbekov). *Nimalar debdi, nimalar aytibdi – unisini yolg'iz o'zi bilibdi, yolg'iz Olmako'z bilibdi...* (T.Murod) *Kapitan katta yoza-yoza, bosh chayqab kuldi. Nimaga kuldi – farosatim yetmadi.* (T.Murod)

18. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida zidlash, qarshilantirish munosabati ifodalanganda, ular orasiga tire qo'yiladi: *Yulduzlarni xayolida hap xil rangga bo'yab ko'rdi – yulduzlar o'z rangida xira mitillab turaverdi.* (A.Muxtor) *It huradi – karvon o'tadi.* (Maqol.) *Jismimiz yo'qolur – o'chmas nomimiz.* (H.Olimjon).

19. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida shart munosabati ifodalanganda, ular orasiga tire qo'yiladi: *Birovga ayta ko'rmang – ikkovimiz ham baloga qolamiz.* (S.Ahmad) *Odamlarni biriktir – har birining yuragida bo'ron qo'zg'aladi.* (Oybek). *Erkakmisan – oyog'ida tik turgan erkak bilan olish!* (T.Murod)

20. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida sabab-oqibat, asos-xulosa munosabati ifodalanganda, ular orasiga tire qo'yiladi: *Sen borsan – men uchun bu hayot go'zal, Sen borsan – men uchun dilbar koinot.* (A.Oripov) *Endi nima bo'lib shundoq bo'lganini aytib o'tirishga fursatim yo'q idorada odamlar kutib o'tiribdi.* (A.Qahhor) *Uyda qadam bosgani joy yo'q – hamma yoq o'yinchoq.* (Sh.Boshbekov). *Keyingi kunlarda daryo qirg'og'ini chumchuq bosib ketdi – kanal miroblari suvi chekinib, ochilib qolgan orolchalarga sholi ekishgan.* (S.Ahmad) *Qarasam, oshxona tomondan gup-gup etgan tovush kelyapti – oyim o'g'irda tolqon qilyapti.* (O'Hoshimov) *Narigi tomonda taraq-turiq boshlandi – quruvchilar ishga tushdilar.* (N.Jaloliddin). *Lekin Guram Jo'xadzening vaqti soati bitmagan ekan! – u do'lday yog'ilgan o'q ostidan omon-eson qutulib chiqadi.* (Ch.Aytmatov)

21. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida payt munosabati ifodalanganda, ular orasiga tire qo'yiladi: *Arava notinch bo'ldi – qo'shquloqdagi sut chayqaladi, to'kiladi.* (A.Qahhor) *Yon tarafdagi salobali eshik ohista ochildi – yordamchi kerakli qog'ozlarning barchasini olib kiradi.* (A.Toshmatov) *Chalachu'pa u gapirdi – men angladim, chin ko'ngildan men gapirdim – u angladi.* (Cho'lpon).

22. Bog'lovchisiz qo'shma gapning ikkinchi qismi izoh, ilova xarakteriga ega bo'lsa, ular orasiga tire qo'yiladi: *Esladi – u sevgilisi Layli haqida gapirgandi.* (N.Jaloliddin) *Uning sarkash fe'li bor edi – birovning o'ziga bo'lgan munosabatining ma'nosini oydinlashtirmaguncha tinchimasdi.* (N.Jaloliddin).

23. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi ikkinchi gapning kesimi tushib qolgan hollarda ikki gap vergul bilan ajratilib, ikkinchi gapdagi egadan keyin tire qo'yiladi: *To'rg'ay dashtida kaylar, bulbul – chamanda.* (I.Mirzo) *Oltin o'tida bilinadi, odam – mehnatda.* (Maqol) *Yaxshidan ot qoladi, yomonidan – dod.* (Maqol).

24. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplardan tez almashinuvchi voqea-hodisalar mazmuni anglashilsa<sup>40</sup>: *Dilshod birdan qo'lini ko'tardi – chanog'idan toshib chiqqan paxta havoda oppoq qorday chaqnadi. Tog'a radioni o'chirdi – birdan sukumat boshlandi.*

25. Ko'chirma gapli qo'shma gaplarda ko'chirma gap muallif gapdan oldin kelganida muallif gapidan oldin tire qo'yiladi: *Sen unday o'ylarga borma, – dedi kuyov. – Chin, qaraganim chin. Men senga aytсам, qaraydigan vaqtlar edi-da.* (Ch.Aytmatov)

26. Dialoglarning replikalari ketma-ket bir qatorda emas, balki ularning har biri alohida abzas shaklida yangi qatordan berilsa, replikalar oldidan tire qo'yiladi:

– *Qanday, jiyanlar katia bo'layaptimi, suyaklar yengilmi, aka?... – dedi.*

– *Shukur, shukur, – dedim.*

– *Ikki marta kelib ketdim...*

– *Ayolimiz aytdi, yo'qladi, dedi.* (T.Murod)

Bundan tashqari, tire nashr, kitobot ishlarida ham faol ishlatiladi: *Tohir Malik. Shaytanat. 2-kitob. – T.: Sharq, 2005.*

<sup>40</sup> Rasulov I. Tanlangan asarlar. II jild, 81-b.

Tire hisob-kitob bilan bog'liq fanlarda ayirish belgisini bildiradi: 307 – 23. Bugun Toshkentda –3°C sovuq bo'ladi.

### 3. Qo'shtirnoqning qo'llanish o'rinlari

Qo'shtirnoqni amaliyotga rus olimi prof. A.A.Barsov kiritgan. O'zbek yozuvida u kiritish belgisi sifatida XIX asrning 80-yillaridan boshlab uchraydi<sup>41</sup>. Qo'shtirnoqni prof. A.A.Barsov "kiritish" belgisi deb atagan.

Fitrat unj tirmoqlar deb yuritadi. Bir yozg'uchi tomonidan muhim sanalsa, yozg'uchi o'z so'zlari orasida boshqa bir kishining so'zlarini hikoya qilsa, anglashilishi yengil bo'lmag'an otlar, atamalar bo'lsa, shular tirmoq ichra olinadir: "Samarkent"ni olmoqqa qo'shin tortqonda yo'l o'rtasida Nil daryosimi, Jayxunmi degan bir daryoga to'g'ri kelar ekan. Mudarrislikka "ukaz" berilgach og podshohning yashamog'ig'a qo'l ko'tarib... Podshohlig' "nisf nubuvvat" deganlar; kofir bo'lsa ham "nubuvvat", ya'ni payg'ambarlikning yarim kuchi bor... Orada urush boshlanib Turkistonda "rabo'chi" mas'alasi qo'zg'alg'anda "podshohning amri vojib; ma'noyi vojib farzligida ozg'ina shubha bor; ma'noi farz amri ilohiy" deb e'lni shov-shuvliqdan to'q'latmoqqa kirishar edi<sup>42</sup>.

Qo'shtirnoq – ikki elementli tinish belgisidir. Uning birinchi elementi "ochiluvchi qo'shtirnoq", ikkinchi elementi "yopiluvchi qo'shtirnoq" deb yuritiladi. Buning grafik shakli " » " dan iborat bo'lib, nashriyot ishlarida burchak (« ») shaklida ham qo'llanadi; ilmiy uslubda tirmoq shaklida (' ') ishlatiladi.

Qo'shtirnoq – chegaralovchi tinish belgisi. U yozma matndagi muayyan qismlarni ajratib ko'rsatish uchun ishlatiladi. Masalan, o'zganing gapini (ko'chirma gapni) muallif gapidan ayirib, uning boshlanish va tugallanish chegarasini va qanday shaklda ekanligini ko'rsatadi.

Qo'shtirnoq murakkab vazifali tinish belgilari jumlasidandir. U muayyan qismni chegaralab ko'rsatish bilan birga, uning muayyan matnga (qo'shtirnoqqa olingan qism kiritilgan umumiy matnga) sintaktik va intonatsion jihatdan ma'lum darajada bog'lanishini, unga muvofiqlashuvini ham ko'rsatadi.

Qo'shtirnoq quyidagi o'rinlarda qo'llaniladi:

1. Har biri alohida abzas ko'rinishida yangi qatordan emas, balki ketma-ket bir qatorda berilgan dialog replikalari shaklidagi ko'chirma gap qo'shtirnoqqa olinadi: "Endi topolmaydi, – dedi. – Qarab-qarab ketadi. Ammo idoradagilar oldida sharmanda bo'ladigan bo'ldim". (T.Murod) Yo'lda o'ylab yurdi: "Madaniyatli odamlar shaharga boradi. Ajab, bari shunday deydi. Shoirligimga shama qilyaptimi deyman". (T.Murod)

2. Turli manbalardan olingan iqtiboslar qo'shtirnoq ichida beriladi: Navoiy umrining oxirlarida yaratgan "Mahbub ul-qulub" asarida yozadi: "Yaxshiyamonning fe'lini bilibmen va yamonu yaxshi xislatlarin tajriba qilibmen". (N.Komilov) "Odami ersang, demagil odami Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami". (Alisher Navoiy) Cho'lpon shunday deb hayqirgan edi: "...Kishan kiyma, Bo'yin egma Ki, sen ham hur tug'ilg'onsen!" Yunonlarning Lukian degan yozuvchisi

<sup>41</sup> Nurmonov A., Sobirov A. Qosimova A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm ziyo, 2015, 110-b.

<sup>42</sup> Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006, 212-b.



o'tgan. Eramizdan avval. Uning "Vatan sha'niga" degan asari bor. Undagi birinchi jumla shunday ekan: "O'z ona-otasini sevmagan farzand o'zga ota-onalarni hurmat qila bilmaydi. Va o'z vatanini sevmagan kishi o'zgarar vatanini hurmat qila olmaydi!" (Sh.Xolmirzayev).

3. Ichki nutq shaklidagi birliklar (o'y-xayol, mulohaza, tasavvur kabi) qo'shtirmoqqa olinadi: "Nima bo'ldi menga?" deb o'ylamoqchi bo'ldi mingboshi: shu uch so'zni miyasiga to'play olmadi. (Cho'lpon) "Har qanday original tip bo'lsa ham, maqsadi belgisi. Bu joyda o'zga maqsad bo'lishi mumkin emas!" deb o'ylardi u. (Cho'lpon) Bo'ri polvon soqoli uchini buklab tishladi. Sezilar-sezilmas bosh irg'adi. "Bordi-yu. Momoqizga yetganimda, shu Abray polvon mening o'g'lim bo'lardi..." (T.Murod)

4. Gapda odatdagi ma'nosidan boshqa ma'noda qo'llangan, shuningdek, eski, yangi yoki chet so'zlar qo'shtirmoqqa olib beriladi: Borib-borib yirikroq ishga o'ldi - odamlarning uy-joyi, mol-holini o'g'iraydigan bo'ldi. (Sh.Boshbekov) Shundagina Shavkat "o'tlab" ketayotganini anglab qoldi. (Sh.Boshbekov) Bu turqi sovuqning sho'rlik Otaga "mehri" tushgan ekan, uni tinch qo'ymadi. (O.Yoqubov) (Malades, Shayx! Orangutan bo'p ket-e!) Bunday "maqto'vlar" Shayxni battar jazavaga soladi. (O'.Hoshimov) Ko'p o'zingdan ketaverma, adang "shishka" bo'lsa o'ziga! (Sh.Boshbekov). U kelganimizdan beri allaqanday lug'atni yonidan qo'ymaydi, biroq ovqat mahali bor bilimi esidan chiqib ketadimi, nuqul "fish" (baliq), "chiken" (qovurma jo'ja go'shti), "ti: (choy) yoki "bia" (pivo) deydi. (E.A.'zam). Men Maskovdan Berlingacha Gitler quvib borib edim! Men oltita "til" ushlab kelib edim! Men generallardan rahmatnomalar olib edim, generallardan! (T.Murod)

5. Turli asarlarning, shuningdek, kitob, gazeta, jurnallarning nomlari, sarlavhalar alohida olinganda emas, balki matnda qo'llanganda, qo'shtirmoqqa olinadi: A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanini o'qidim; O'.Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi; A.Oripovning "O'zbekiston" she'ri; "Maftuningman" badiiy filmi; "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligi; "Mehnat kodeksi" kitobi; "Xalq so'zi" gazetasi; "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi; "Sharq yulduzi" jurnali; "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali kabi. Shuhrat Umiraliyev bir ro'znomada "Ona tuproq obrazi" deya atalmish maqola chop etdi.

6. Muassasa, tashkilot, korxonalar va shu kabilarning shartli nomlari qo'shtirmoqqa olinadi: "O'quvchi nashriyoti", "Fan" nashriyoti, "Jahon" axborot agentligi, "Oila" ilmiy-amaliy markazi, "Tasviriy oyina" ijodiy uyushmasi, "Oltin meros" xalqaro xayriya jamg'armasi kabi.

7. O'zbekiston Respublikasi orden va medallarining nomi qo'shtirmoqqa olinadi: "Mustaqillik" ordeni, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni, "El-yurt hurmati" ordeni, "Sog'lom avlod uchun" ordeni, "Oltin yulduz" medali, "Jasorat" medali, "Shuhrat" medali kabi.

Ammo buyuk shaxslar nomi bilan atalgan orden nomlari qo'shtirmoqqa olinmaydi: Amir Temur ordeni, Jaloliddin Manguberdi ordeni kabi.

8. Turli mahsulotlarning shartli nomlari qo'shtirmoqqa olinadi: "Qoraqum" konfeti, "Paxta" torti, "Samarqand" muzlatkichi, "Neksiya" avtomashinasi kabi.

## TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Qavs belgisi qachondan ishlatila boshlangan?
2. Qavsning qo'llanish o'rinlarini misollar bilan izohlang.
3. Tire va uning tarixi, qo'llanish o'rinlari haqida ma'lumot bering.
4. Qo'shtimoq qaysi o'rinlarda qo'llanadi?

### Adabiyotlar:

1. Nazarov K. Egamberdiyev B. O'zbek tili ishora-imlo qoidalari. –T.: O'qituvchi, 1996.
2. Mahmudov N., Madvaliyev A., Mahkamov N. Punktatsiya – fikmi yozma mukammal ifodalash vositasi // O'zbek tili va adabiyoti. 2015, №1, 57-79-betlar.
3. Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006, 210-b.
4. Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm ziyo, 2015, 95-120-betlar.

### Ko'chirma gapli qo'shma gaplarda tinish belgilarining qo'llanishi

1. Ko'chirma gaplar alohida abzas ko'rinishida yangi qatordan emas, balki ketma-ket bir qatorda berilgan bo'lsa, qo'shtimoqqa olinadi: *Muning ustiga yana ta'na ham qilib qo'ydi: "Kim olardi endi u kampirmi?"* (Cho'lpon). Ammo agar ko'chirma gap alohida abzas ko'rinishida yangi qatordan berilgan bo'lsa, qo'shtimoqqa olinmaydi va uning boshlanishi oldidan tire qo'yiladi: *Shunda keksa olim dedi:*

– *O'g'lingizning dunyoda tengi bo'lmaydi.* (O'.Umarbekov)

*Birdan u qaddini rosladi va o'choq boshiga qarab baqirdi:*

– *Oyi! Otini nima qo'yamiz!* (O'.Umarbekov)

*Eshikka yetganda Obid aka:*

– *Teshavoy! – deb chaqirdi.* (O'.Umarbekov).

2. Agar ko'chirma gap muallif gapidan keyin kelsa, muallif gapidan so'ng ikki nuqta qo'yiladi va ko'chirma gap bosh harf bilan boshlanadi; ko'chirma gap darak mazmunida bo'lsa, nuqta qo'shtimoqdan tashqarida, so'roq mazmunida yoki emotsionallikka ega bo'lganda esa so'roq yoki undov belgisi, shuningdek, ko'pnuqta yopiluvchi qo'shtimoqdan oldin qo'yiladi: *Barcha dedi barobar: "Ona tilim o'lmaydi"*. (E.Vohidov) *Otasi gapini ma'qulladi: "Tentirab yurma begona yurtlarda! Kelaver, ochingdan o'lsang, men kafil"*. (O'.Hoshimov). *Mansurning og'zidan nogoh chiqib ketdi: "Jo'ra, bir o'tirish qilsam, nima deysiz?"* (Sh.Xolmirzayev) *Shahobiddin gap qotdi: "Otasi sotarmikan bu hurliqoni yo sandiqqa qamab, narxini oshirib o'tiraverarmikan?"* (A.Ibodinov) *Salim uning qo'lidan yulqinib, uyga chopdi, zum o'tmay otasidan qolgan qo'shtig'ni ko'tarib chiqib, Polvonga o'qtaldi: "Ket, bo'lmasam, otaman!"* Mahfrat multiqqa ko'kragini tutdi: "Avval meni otasan!.." (M.M.Do'st) *Dam o'tmay ko'chada onaning fig'oni eshitildi: "Mening bolam o'g'ri emas, nega uni qiynaysizlar. Uning jigari kasal..."* (T.Malik). Ko'chirma gap muallif gapidan oldin kelsa, muallif gapidan oldin tire

qo'yiladi; ko'chirma gap darak mazmunida bo'lsa, qo'shtimoqdan keyin vergul qo'yiladi, so'roq mazmunida yoki emotsionallikka ega bo'lganda esa so'roq yoki undov belgisi, shuningdek, ko'pnuqta yopiluvchi qo'shtimoqdan oldin qo'yiladi, muallif gapi esa kichik harf bilan boshlanadi: "*Tushunsangiz-chi, aya, o'z holimga qo'ying, yosh bola emasman*", – dedi. (O'.Hoshimov) "*Sizga bir og'iz gapim bor edi*", – dedim. (Sh.Xolmirzayev) "*Kimsan o'zing?*" – dedim jahlim chiqib. (E.A'zam) *Hoy, shu kunningdan o'lganing yaxshimasm?*" – deb baqirdim. (Sh.Xolmirzayev) "*O'zing panohngda asra, Xudo!*" – deydi Muyassar xayolan. (O'.Hoshimov).

4. Muallif gapi ko'chirma gapning ichida kelganda, muallif gapi ikki tomonidan tire bilan ajratiladi; bo'laklangan ko'chirma gap qismlarining har biri emas, balki yaxlit ko'chirma gap qo'shtimoqqa olinadi, ya'ni ichida muallif gapi mavjud bo'lgan ko'chirma gapning boshida qo'shtimoq ochilib, uning oxirida yopiladi; bo'laklangan ko'chirma gapning birinchi qismi bo'laklangunga qadar vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire kabi tinish belgilarini taqozo etgan yoki hech qanday tinish belgisini taqozo etmagan bo'lsa, ko'chirma gapning ayni uzilgan joyida vergul qo'yiladi va muallif gapidan keyin ham vergul qo'yilib, muallif gapi, shuningdek, ko'chirma gapning ikkinchi qismi kichik harf bilan boshlanadi: "*Kim astoydil harakat qilsa, – deydi keksalar, – o'sha har qanday maqsadiga erishadi*". (Gazeta) "*Shuni ham aytib qo'yay, – so'zida davom etdi Ibrohimov, – hozirgi zamonda xotin baxtini erdan kutmaydi*". (A.Qahhor) "*Lekin qobiliyat keyin ham yuzaga chiqishi mumkin, – deb o'zicha to'ng'illadi Zokir O'rin nihoyat, – Buyam talaniday gap*". (Sh.Xolmirzayev) "*Talabalar, – deydi ustozlar, o'z ustilarida muntazam ishlamoqlari lozim*". (Gazeta).

5. Agar bo'laklangan ko'chirma gapning birinchi qismi bo'laklangunga qadar nuqtani taqozo etgan bo'lsa, ko'chirma gapning ayni uzilgan joyida vergul qo'yiladi va muallif gapi kichik harf bilan boshlanib, undan keyin nuqta qo'yiladi; ko'chirma gapning ikkinchi qismi bosh harf bilan boshlanadi: "*Ma, – dedi mashinaning qiya ochiq eshigidan uzatib, – Gulandomniyum og'zi tegsin*". (O'.Hoshimov) "*Uch yildan beri shu gapni kutar edim sizdan, – dedi Omon iymonib, – Qiling. Bir yonini o'zim ko'taraman...*". "*Yo'q, hammasi o'zimdanda, kesib ta'kidladi Mansur, – Armonim shu edi, jo'ra*". (Sh.Xolmirzayev) "*Kambag'alning ekkani unmaydi, bolasi ko'payadi o'zi, – deb o'yladi Shoikrom ijirganib, – Shu kumimdan ko'ra urushga horib, o'lib keta qolganim yaxshiydi*". (O'.Hoshimov).

6. Agar bo'laklangan ko'chirma gapning birinchi qismi bo'laklangunga qadar so'roq yoki undov belgisini taqozo etgan bo'lsa, ko'chirma gapning ayni uzilgan joyida so'roq yoki undov belgisi qo'yiladi va muallif gapi kichik harf bilan boshlanib, undan keyin nuqta qo'yiladi; ko'chirma gapning ikkinchi qismi bosh harf bilan boshlanadi: "*Nahotki, Sultonmurod akan? – deyman, – O'zi qolib, sherik boshlab keptimi endi?.. Bo'lakdir-e, o'libdimi?!*" (M.Mansur) "*Tavba! – deyman, – Bu qanaqasi bo'ldi!*" (Sh.Xolmirzayev) "*Menga desa, otib yubormaydimi?! – deb o'yladi u ayvon labiga cho'qqayib o'tirganicha usti yopiq simni ochiq simga ildam ularkan, – Harna bitta haromxo'rni o'ldirganim*". (O'.Hoshimov).

7. Ko'chirma gap muallif gapining ichida kelganda, u bosh harf bilan

boshlanib, qo'shtimoqqa olinadi va uning oldidan ikki nuqta qo'yiladi; ko'chirma gapdan keyin uning mazmuniga muvofiq vergul (yopiluvchi qo'shtimoqdan keyin) yoki so'roq, yoki undov, yoki ko'pnuqta (yopiluvchi qo'shtimoqdan oldin) qo'yiladi, bu belgilardan keyin esa tire qo'yiladi: *Kampirni uyg'otib: "Tur, karomatingni ko'rsat", - dedim. (Oybek) Bunga qarshi o'jar cho'loq: "Avval quda qilib, keyincha o'zim ham shaharga ko'chmoqchiman", - deb javob berdi. (Cho'lpon) Mehmonlarga: "Zeriknadingizlarmi?" - deb, supaning bir chetiga o'tirdi. (Oybek) To'n kiyib, belbog' bog'lagan holakaylar ko'zidan duv-duv yosh oqib: "Buvijonim, buvijonim!" - deb chirillashar edi. (O'Hoshimov) Ona esa: "Bolam, qishlog'imiz, odamlarimiz yana ham yaxshi bo'lib ketdi, mana, kelsang ko'rarsan..." - derdi. (S.Ahmad) Qizaloq: "Otam sizni yo'qlayotuvdi. Zerikkanlar..." - dedi. (Sh.Xolmirzayev).*

Lotin tili - qadimgi Rim adabiy va davlat tili; yozma, epik, lirik, dramatik, tarixiy nasr, huquqiy hujjat va notifikatsion san'atga oid yodgorliklarga asoslangan; qadimgi yozma yodgorlikli eramizt oldingi IV asrga borib taqaladi; o'tta asr g'arbiy Yevropa adabiy va rakhiz chetkari tili; qadimgi grek tili s'ngari xalqaro terminologiya manba'i.

### Adabiyotlar ro'yxati

1. Eltazarov J. O'zbekistonda 20-asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixidan (sotsiolingvistik tahlil). – Toshkent, 2006.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. – Toshkent, 1999.
3. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2013
4. Abdullayev Y. Sovg'a. – Toshkent, 1996
5. Жамолхонов Х., Сапаев К. Имло муаммолари. – Toshkent, 2007.
6. Shoabdurahmonov Sh. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism. – T., 1990, 88-b.
7. Nazarov K., Egamberdiyev B. O'zbek tili ishora-imlo qoidalari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996, 6-b.
8. Shoabdurahmonov Sh. Punktuatsiya qoidalari. – Toshkent, 1953;
9. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek tilida punktuatsiya. – Toshkent, 1955;
10. Nazarov K. Tinish belgilari va yozma nutq. – Toshkent: Fan, 1974;
11. Nazarov K., Egamberdiyev B. O'zbek tili ishora-imlo qoidalari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996;
12. Abdurahmonov G'. Punktuatsiyani o'rgatish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1968.
13. Tog'ayev T. Ashurali Zohiriy va uning tilshunoslik merosi: Filol. fan. nom. ... diss. – Toshkent, 2005, 46-b.
14. Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006, 177-b.
15. Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm ziyo, 2015, 95-120-betlar.
16. Mahmudov N., Madvaliyev A., Mahkamov N. Punktuatsiya – fikri yozma mukammal ifodalash vositasi // O'zbek tili va adabiyoti. 2015, №1, 57-79 betlar.
17. Rasulov I. Tanlangan asarlar. II jild, 81-b.
18. Ўзбек орфографиясининг асосий қоидалари. – Toshkent, 1956.
19. Mirtojdiyev M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2004.

## MUNDARIJA

"O'zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi asoslari" fani predmeti, maqsadi va vazifalari. Yozuv va uning paydo bo'lishi.....	3
Alifbo va imlo muammolari bo'yicha tarixiy-xronologik ma'lumot....	5
Rus-o'zbek alifbosiga asoslangan yozuvning grafik tavsifi va imlo qoidalari.....	11
Lotin-o'zbek alifbosiga asoslangan yozuvning grafik tavsifi.....	25
Orfografiya, uning asosiy prinsiplari, bunday prinsiplarning imlo qoidalarini belgilashdagi ahamiyati.....	28
Yangi o'zbek yozuvi imlo qoidasining mazmuniy tavsifi.....	32
Puntuatsiya va uning prinsiplari.....	48
Tinish belgilarining tasnifi.....	54
Tinish belgilarining qo'llanish holatlari (nuqta, vergul, so'roq, undov belgilari).....	59
Tinish belgilarining qo'llanish holatlari (nuqtali vergul, ikki nuqta, ko'p nuqta belgilari).....	72
Tinish belgilarining qo'llanish holatlari (qavs, tire, qo'shtimoq belgilari).....	80
Ko'chirma gapli qo'shma gaplarda tinish belgilarining qo'llanishi.....	90
Adabiyotlar ro'yxati.....	93

**NARGIZA AHMEDOVA SHIXNAZAROVNA**

**O'ZBEK ORFOGRAFIYASI VA  
PUNKTUATSIYASI ASOSLARI**

Adadi 100 nusxa. Hajmi 6 b/t. Bichimi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>  
«Times New Roman» garniturası. Ofset usulida bosildi.  
Nizomiy nomidagi TDPU Rizografida nashr qilindi.  
Toshkent, Yusuf Xos Hojib 103.